Shuni ham tan olish kerakki, diversifikatsiyani boshqarish jarayoni uzluksiz va siklik bo'lishi kerak, ya'ni davomiylikdan qo'shimchagacha. Chunki bozor konyunkturasi va iste'mol qilishning o'zlashtirish to'qimachilik sanoatida amalga oshirilayotgan diversifikatsiyalashda samara bermasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chemirbayeva M., Malgarayeva Z., Azamatova A. Economic strategy of diversification of enterprise activities under conditions of globalization //Entrepreneurship and Sustainability Issues. – 2020. – T. 8. – №. 2. – S. 1083.
2. Zhang Q. Diversification and performance of group-affiliated firms during institutional transitions: The case of the Chinese textile industry //American Journal of Economics and Business Administration. – 2011. – T. 3. – №. 2. – S. 234-246.
3. Anvardjanovich S.A. Organizational-economic mechanisms of management of manufacturing diversification in the companies of textile industry //Journal of Management Value and Ethics. – 2017. – T. 7. – №. 1.
4. Colpan A.M. Are strategy-performance relationships contingent on macroeconomic environments? Evidence from Japan’s textile industry //Asia Pacific Journal of Management. – 2008. – T. 25. – S. 635-665.
5. Gemba K., Kodama F. Diversification dynamics of the Japanese industry //Research Policy. – 2001. – T. 30. – №. 8. – S. 1165-1184.
6. Axmadovich X. Z. et al. O‘zbekstonda shakllangan to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyati va samaradorligi //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 02. – C. 106-115.
7. Ruzmetov B. et al. Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 449. – S. 01001.
8. Dhir S., Dhir S. Diversification: Literature review and issues //Strategic Change. – 2015. – T. 24. – №. 6. – S. 569-588 .
9. Thompson A., Strickland, A. 1998. Strategic management. The art of developing and implementing a strategy. Moscow: Banks and exchanges, 576 p.
10. Korinko M. 2017. Diversification: theoretical and methodological foundations. Moscow: NNTsIAE, 488 p
11. Poplavskaya Zh. 2018. The essence of the life cycle: advantages and factors affecting its formation. Scientific Bulletin of NTU, 8(18), 169-175.
12. Krasnikova A., Melnikov, O., Starozhuk, E. 2019. The mechanism of tactical and strategic coordination of the departments of industrial enterprises under diversification. Russian Journal of Innovation Economics, 9(4), 1479-1488. <https://doi.org/10.18334/vinec.9.4.41324>.
13. Хакимов З. Саноат кластерларнинг синергия самарасини аниқлаш ва баҳолашга илмий ёндашувлар //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 2. – C. 154-165.
14. Ergashkhodjaeva S., Ahmadovich K. Z. Uzbekistan's technological products introduction to the european market strategies //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – T. 11. – C. 64-71.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USUL VA YONDASHUVLARI

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi
TDIU Marketing kafedrasi dotsenti, i.f.n

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim xizmatlari bozorlarida universitetlar o'rtasidagi raqobatni an'anaviy tadqiqot yondashuvlari orqali tahlil qilish bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqilgan. Aniqlangan yondashuvlar asosida zamonaviy universitetlarda samarali marketing menejmentini tashkil qilish uchun muhim bo'lgan omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarining (OTM) raqobatbardoshligini boshqarishning xulq-atvor, tizimli va innovatsion nazariyalarni birlashtirish asosida kompleks yondashuv ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari (OTM), xulq-atvor yondashuvi, tarkibiy yondashuv, innovatsion yondashuv, marketingni boshqarish, iste'molchi motivlari, raqobat strategiyasi, bozor pozitsiyasi, maqsadli marketing, raqobatbardoshlik nazariyasi

Аннотация

В данной статье разработаны подходы к анализу конкуренции между вузами на рынках услуг высшего образования посредством традиционных исследовательских подходов. На основе выявленных подходов выявлены факторы, важные для организации эффективного управления маркетингом в современных университетах. По результатам исследования разработан комплексный подход к управлению конкурентоспособностью высших учебных заведений (ВУЗов), основанный на интеграции поведенческой, системной и инновационной теорий.

Ключевые слова: высшие учебные заведения (ВУЗы), поведенческий подход, структурный подход, инновационный подход, управление маркетингом, потребительская мотивация, конкурентная стратегия, положение на рынке, целевой маркетинг, теория конкурентоспособности.

Abstract

In this article, approaches to the analysis of competition between universities in higher education services markets through traditional research approaches have been developed. Based on the identified approaches, the factors that are important for the organization of effective marketing management in modern universities are identified. Based on the results of the research, a comprehensive approach to the management of the competitiveness of higher education institutions (HE) was developed based on the integration of behavioral, systematic and innovative theories.

Keywords: higher education (HE), behavioral approach, structural approach, innovative approach, marketing management, consumer motives, competitive strategy, market position, targeted marketing, competitiveness theory

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar ta’lim bozoridagi asosiy subyektlar hisoblangan oliy ta’lim muassasalari oldiga bir qator nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni qo‘ydi. Bunday muammolardan biri oliy ta’lim xizmatlari bozorida shakllanayotgan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish va samarali raqobat strategiyalarini ishlab chiqishdir. O‘zbekistonda so‘nggi 5 yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini oshirish maqsadida yangi 84 ta oliy ta’lim muassasalari, jumladan, 52 ta mahalliy, 10 ta nodavlat va 22 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va ularning jami soni 156 ta yetdi. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2010-yilda 14,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 8,7% ni tashkil etdi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2023-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 51% ga yetdi. Mazkur statistik ko‘rsatkichlar OTMlar uchun raqobat muhitini keskinlashtiribgina qulay, ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni yuqori cheklanishini yuzaga chiqarmoqda. Shunga ko‘ra Oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardoshlikni boshqarishning zamonaviy usul va yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga zaruriyat sezilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardoshlikni boshqarishning nazariya va amaliyoti bo‘yicha xorijiy ilmiy manbalarda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda raqobatbardoshlikni boshqarishning zamonaviy usul va yondashuvlari keng o‘rganilgan. Jumladan Marulanda-Grisales N., Vera-Acevedo L. D.[1] tadqiqotlarida Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) bilimlarni boshqarish qimmatli elementga aylanib borayotgan bir qator nomoddiy resurslardan tashkil topgan intellektual kapitaldan (IC) foydalanish orqali raqobatda ustunliklarni yaratish mexanizmlari taklif etilgan.

Hart P. F., Rodgers W. [2] tadqiqotlarida esa 2012 va 2022-yillar oralig‘ida chop etilgan to‘rtta ma’lumotlar bazasidan, xususan Scopus, Web of Science, Hull universiteti (UoH), Buyuk Britaniya kutubxonasi ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar bazasidan olingan 80 ta maqolaga asoslanib, oliy ta’lim sohasidagi raqobat ichki va tashqi manbalari aniqlangan. Ichki raqobat asosan hukumat, institutlar reytingi va global korporatsiyalarning tashqi bosimiga bog‘liqligi aniqlangan. Bundan tashqari, tadqiqotda raqobatning ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi bo‘yicha fikrlarni ilgari surgan

T.P. Danko bozor tizimlarining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda rivojlanayotgan va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga va raqobat muhitida pozitsiyani baholashga qaratilgan sa’y-harakatlarga qaratilgan universitetlarning marketingni boshqarish vositalarining evolyutsiyasini aniqlagan va tavsiflagan. [3] Muallif ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllanishiga ko‘ra marketing tizimlari evolyutsiyasini belgilab berdi, bu mijozlarga yo‘naltirilgan marketing metodologiyasi doirasida iste’molchilar xatti-harakatlarining qonuniyatlari va determinantlarini hisobga olgan holda innovatsion marketing vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni talab qilishi aniqlandi.

V.A. Bepalko OTMlarning “raqobatbardoshlik va raqobatbardosh barqarorlik”[4] nazariyalarini ilgari surdi. V. A. Bepalkoning mualliflik

yondashuvining afzalliklari sodiq mijozlarning buyurtmalari bilan ishlab chiqarish chegarasini ta'minlash darajasini aks ettiruvchi raqobat barqarorligining marketing metrikasini taklif qilishga qaratilgan bo'lib, mijozlar oqimining farqlanishini va iste'molchilar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan korporativ subyektning raqobatbardosh barqarorlik qoidalarining kengaytirilgan tasnifini o'z ichiga olishi kerakligini aniqladi.

O.V.Vandrikova[5] universitet marketingining raqobatbardoshligi va reytingni rivojlantirish istiqbollari alohida e'tibor berish raqobatbardoshligini baholash va undan tashkiliy rivojlanishning strategik maqsad va vazifalarini rejalashtirish va ularga erishishda foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

E.A. Kolesnik tomonidan "jamoat talabini qondirish qiymati zamonaviy universitet samaradorligi va raqobatbardoshligi mezoni sifatida" hali ham shaffof va mazmunli usul va ko'rsatkichlardan foydalangan holda yagona ta'rif va o'lchovga ega emasligi ta'kidlanadi.[6]

Zaxarova I. V. tomonidan ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini boshqarish zarurati asoslanib, "Universitet raqobatbardoshligi" tushunchasining ma'nosi ma'muriy va iste'molchi nuqtayi nazaridan taqqoslanadi. Uning tadqiqotlarida iste'mol bozori kontekstida mintaqaviy universitetning raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmlari taklif etildi.[7]

Shumakova I. A. oliy ta'lim muassasalarining marketing strategiyasini ishlab chiqishning mustaqil yo'nalishi ta'lim xizmatlari eksportini faollashtirish, xalqaro ta'lim oqimlarini jalb qilish va jahon ilmiy va ta'lim makonida samarali o'rin olish istiqbollari bilan milliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh ustunliklarni yaratishning marketing strategiyalarini taklif etgan.[8]

Dmitriyeva G. S.[9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda abituriyentlarni jalb qilish va o'quv jarayoniga qiziqishni oshirish, ilmiy hamjamiyatlarni shakllantirish, shuningdek, universitetning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli marketing vositalari va marketing texnologiyalaritaklif etilgan. Taklif etilayotgan marketing vositalari zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan bo'lib, ta'lim muassasalarining qabul kompaniyalarini tashkil etishda foydalanish imkoniyatini yaratgan.

O'zbekistonlik olimlar ham so'nggi yillarda bu borada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirishgan.

Jumladan D. Nishonov tomonidan[10] ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik darajasini aniqlashning matematik modeli tavsiya etilgan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faoliyati va raqobatbardoshlik omillari statistik tahlil qilingan. Tahlil natijalariga asoslangan holda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradigan sifatni boshqarishning marketing modeli tavsiya etilgan.

O Qahhorov[11] tomonidan oliy ta'lim tizimida marketing faoliyati samaradorligini boshqarish, ya'ni, marketing boshqaruvi konsepsiyasini ishlab chiqish, uni qo'llash va amaliyotga tatbiq etish samaradorligini asoslash kabi muhim masalalar yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida marketing boshqaruvining

asosiy universal parametrlarini aniqlash va baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqorida aytilganlarning barchasi muallifning oliy o'quv yurtlarining marketing faoliyatini boshqarish xususiyatlari haqidagi qarashlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib, asosiy o'quv jarayonini tashkil etish, uning borishi va yakunlanishi bilan birga keladigan marketing o'zaro ta'sirining aniq o'ziga xos xususiyatlari sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish zarurligini hisobga olgan holda asosiy yondashuvlar sifatida quyidagilarga ahamiyat qaratishni talab etadi.

-raqobat zamonaviy ta'lim tashkilotining marketing menejmenti samaradorligining belgisi va omili sifatida;

- universitetning ijtimoiy-iqtisodiy institut va marketing tizimlari subyekti sifatida raqobatbardoshligi: zamonaviy yondashuvlar va marketing ahamiyati;

- marketing menejmenti nuqtayi nazaridan universitetning raqobatbardoshligini baholash ko'rsatkichlari va usullari;

- marketing ta'sirini tashkil etishning turli darajalarida ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini marketingni boshqarishning asosiy yo'nalishlari va usullari.

METODOLOGIYA

Turli miqyosdagi ta'lim bozorlari tizimidagi oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi raqobatni an'anaviy tadqiqot yondashuvlari –xulq-atvor, tarkibiy va innovatsion nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin, ularning har biri zamonaviy universitetning marketing boshqaruvini tashkil etishda yuzaga keladigan muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Raqobat bozor tizimlari doirasida bir tomondan, raqobatbardosh imkoniyatlarning mavjudligi marketingga yo'naltirilgan universitetlarga o'zlarining sodiq mijozlar oqimlarini ushlab turish va iste'molchilarning motivlarini tushunish va maqsadli marketing ta'siridan foydalanish orqali oqilona va mantiqsiz iste'molchilarni jalb qilish orqali bozorda barqaror pozitsiyani egallashga imkon beradi. Boshqa tomondan, xulq-atvorning muhim raqobatbardosh faoliyati to'liq marketing xizmatini joylashtirishni, barcha xodimlarni marketing va raqobatbardosh strategiyani amalga oshirish jarayonlariga jalb qilishni va tegishli maqsadli moliyalashtirishni talab qiladi. Shunga ko'ra OTMlarning raqobatbardoshlik nazariyalarini o'rganishda xulq-atvor, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab etadi (1-jadval).

1-jadval

Zamonaviy ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini boshqarishga bo'lgan metodologik yondashuvlar

| Mahalliy va mintaqaviy bozorlar | Milliy bozor | Xalqaro bozorlar |
|---|--|--|
| Xulq-atvor yondashuvi: | Strukturaviy yondashuv: | Innovatsion yondashuv: |
| raqobat — bu markazlashtirilmagan samarali talabni qayta taqsimlashga va narx va narx bo'lmagan tabiatning raqobatbardosh ustunliklarini doimiy ravishda shakllantirish va ulardan foydalanishga asoslangan iste'molchilarni jalb qilishga qaratilgan marketing tizimlari doirasidagi bozor xatti-harakatlarining usuli | raqobat barcha turdagi ta'lim bozorlari tuzilmalarini shakllantirish va rivojlantirish usuli sifatida, bu ta'lim xizmatlari va mahsulotlarini "yetkazib beruvchilar" tarmoq tuzilmasini modernizatsiya qilishda raqobatbardosh rivojlanish va tanlash mexanizmlaridan foydalanishni nazarda tutadi, shuningdek, bozor joylashuvi tarkibidagi marketing o'zaro ta'siri samaradorligini oshirish | raqobat — marketingni boshqarishning strategik va taktik darajalarida amalga oshiriladigan innovatsion trayektoriya orqali uzoq muddatli barqaror faoliyat va rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim tashkilotlarining innovatsion rivojlanishi uchun rag'bat va mexanizm sifatida. |

| Mahalliy va mintaqaviy bozorlar | Milliy bozor | Xalqaro bozorlar |
|--|--|--|
| <p>Raqobatga xulq-atvor yondashuvi nuqtayi nazaridan universitet marketingini boshqarish imkoniyatlari — strategik, operatsion va taktik marketing:</p> <p>1) raqobatbardoshlikning o'sishi (bitiruvchilar, professor-o'qituvchilar, universitet "inson kapitali", universitetning o'zi va uning ekotizimining bir qismi sifatida biznes bo'linmalari;</p> <p>2) iste'molchi tanlashning turli darajadagi haqiqiyli va algoritimga ega bo'lgan iste'molchilarni jalb qilish;</p> <p>3) raqobatchilar — mahalliy/mintaqaviy, milliy, xalqaro bozorlarda ishtirok etuvchi universitetlar</p> <p>4) ta'lim tashkiloti marketing tizimining boshqa subyektlari, ular bilan o'zaro hamkorlik raqobatdosh ustunlikni yaratish va yoki tijoratlashtirishni ta'minlaydi.</p> | <p>Raqobatga tarkibiy yondashuv nuqtayi nazaridan universitet marketingini boshqarish imkoniyatlari:</p> <p>1) ma'lum bir ta'lim bozori tarkibida yetakchi marketing mavqeyini egallash va saqlab qolish;</p> <p>2) amalga oshirish uchun asosiy bozorda barqaror marketing pozitsiyasidan foydalanish</p> <p>3) "raqobatli manevr" va "raqobat tashabbusi" marketing strategiyalari (V.A.Bespalko tomonidan taklif qilingan);</p> <p>4) bozor tizimining yangi subyektlari va darajalarini, shuningdek ular o'rtasidagi munosabatlarning yangi turlarini yaratish asosida bozor tuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish imkoniyati;</p> | <p>Raqobatga innovatsion yondashuv nuqtayi nazaridan universitet marketingini boshqarish imkoniyatlari:</p> <p>1) strategik daraja: universitetni mustaqil innovatsion jarayonni boshlash va tijoratlashtirish asosida operatsion natijalarni olish, "bilimlar iqtisodiyoti tugunlari" sifatida joylashtirish.</p> <p>2) operatsion daraja: universitet ichidagi va universitetlararo marketing o'zaro ta'siri shakllari nuqtayi nazaridan innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash, shuningdek, universitetning marketing muhiti subyektlari bilan o'zaro aloqasi va marketing tizimi. joriy va istiqbolli bozorlar</p> <p>3) taktik daraja: ta'lim xizmatlari va mahsulotlari, ta'lim texnologiyalari, ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, ammo unga bog'liq bo'lgan va qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar va mahsulotlar tarkibi va tarkibini doimiy ravishda modernizatsiya qilish, universitet xodimlarining shtatlari va tarkibi, barcha universitet faoliyatini infratuzilma bilan ta'minlash turlari</p> |

TAHLIL VA NATIJALAR

Universitetlar raqobatning tabiati, mohiyati va xususiyatlari haqidagi an'anaviy marketing g'oyalarini birinchi navbatda uzoq operatsion sikl, ta'limning nisbatan yuqori narxi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish zarurati, mahsulotlar va iste'molchilarning qaror qabul qiluvchilar — asosan, ota-onalar va oila a'zolari tomonidan talabalarning majburiy oliy ta'limga oid barqaror qarashlari asosida shakllanadi.

Universitetlar o'rtasidagi raqobatga, shuningdek, bitiruvchining raqobatbardoshligini an'anaviy akademik samaradorlik modellari yoki bugungi kunda ilgari surilayotgan kompetensiyaga asoslangan baholash modeli asosida obyektiv baholash har doim ham mumkin emasligi ham sezilarli darajada ta'sir qiladi, chunki bu ishlanmalar individual omillarni ko'rib chiqmaydi. Shuningdek, mutaxassislik bo'yicha haqiqiy bandlikni yoki o'z biznesini ochishni kafolatlamaydi.


Bitiruvchilar o'qishni tugatgandan keyin 5-7 yil ichida ularga berilgan bilim, ko'nikma va mamlakatlarning haqiqiy darajasi va dolzarbligini baholash qobiliyatiga ega bo'lganda, ularda fikr-mulohazalar uchun real imkoniyat bo'lmaydi, ularning fikrlari va baholari natijalari, mijozlar guruhlari va oqimlari vakillari bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli marketing aloqalariga emas, balki markazlashtirilgan tizimlarga bog'liq bo'lib, bu ta'lim tashkilotlari uchun ahamiyatsizdir.

Bizning fikrimizcha, ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi, ularning raqobatbardosh ta'lim bozorlarida mavjudligi va faoliyatining marketing hodisasi sifatida universitetlar faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy, marketing va innovatsion xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli integratsiyalashgan baholashni amalga oshirish lozim (2-rasm).

Buning markaziy nuqtasi ularning iqtisodiy faoliyat turi sifatida ta'limning strategik funksiyasini bajarish samaradorligi bo'lib, uning mohiyati, bizning fikrimizcha, M. Montessori tomonidan aniq belgilangan: "ta'lim — hayotga

yordam"[12] konsepsiyasidan kelib chiqishi kerak. Shunga ko'ra, universitetlar raqobatbardoshligini aniqlashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha darajasiga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, jumladan, ta'lim mahsulotini olgan va mehnat resurslari bozorlarida raqobatga tayyor bo'lgan bitiruvchilar nuqtayi nazaridan baholash lozimdir.

OTMlarning asosiy mahsuloti bu biriktiruvchilar bo'lib, ularning raqobatbardoshligi universitet raqobatbardoshligining asosiy sifat ko'rsatkichi sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy OTMning anaviy marketing usuli bu bitiruvchilarni kasbiy kompetentligini ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.



1-rasm. Universitetlarning marketing faoliyatida raqobatbardoshlikni boshqarishning ahamiyati

Mazkur jarayon amalga oshishi uchun universitet marketingi va raqobat strategiyasi nafaqat talabalarni kasbiy ko'nikmalar, balki innovatsion kompetensiyalar asosida baholash talab etiladi. Universitetning raqobatbardoshligini baholashning yondashuvlari va ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Universitet bitiruvchilarining raqobatbardoshligi (o'qitish yo'nalishlari bo'yicha, umuman universitetda):

1.1. O'z biznes tuzilmasini ochgan talabalarning ulushi (o'quv jarayonida, o'qishni tugatgandan so'ng darhol (diplom olgandan keyin 0-6 oy));

1.2. Trening davomida, shuningdek, o'qishni tugatgandan so'ng (0-6 oy) ish bilan ta'minlangan talabalarning ulushi;

1.3. O'qishni tugatganidan keyin 0-6 oy ichida ish bilan ta'minlanganlarning ulushi;

1.4. Bitirgandan keyin 0-6 oy ichida ishsizlar ulushi;

1.5. Ish bilan band bo'lgan bitiruvchilarning ish haqi bozorning o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan: ta'limdan tashqari ish bilan ta'minlangan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, universitetda o'rtacha 0-12 oy, 1-3 yil, 3-7 yil, 7-10 yil

2. Universitetning ta'lim xizmatlari va innovatsiyalar bozorida raqobatbardoshligi:

2.1. Daromad tuzilmasi tarkibidagi byudjetdan tashqari moliyalashtirishning ulushi;

2.2. Ta'lim va boshqa faoliyat turlaridan olinadigan daromad ulushini ajratish bilan byudjetdan tashqari moliyalashtirish tarkibi;

2.3. Universitetlarda 1 xodimiga to'g'ri keladigan daromadlari tarkibidagi byudjetdan tashqari moliyalashtirishning o'ziga xos ko'rsatkichi;

2.4. Maqsadli (mahalliy, mintaqaviy, milliy, xalqaro) ta'lim bozorining ma'lum bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha universitet tomonidan egallab olingan ulushi

2.5. Umuman universitet egallagan maqsadli ta'lim bozorining ulushi

2.6. Mijozlar oqimining tuzilishi: sodiqlik darajasi

2.7. Universitetning noyob savdo taklifining narx raqobatbardoshligi (o'qitish yo'nalishlari bo'yicha, universitetda o'rtacha)

3. Universitetning innovatsion va raqobatbardosh jarayon subyekti sifatida raqobatbardoshligi

3.1. Universitetda tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ullanadigan xodimlarining soni

3.2. Universitetda ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish tarkibi: byudjet, ichki moliyalashtirish;

3.3. Ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligi;

3.4. Universitetning tarkibiy bo'linmalarida innovatsiyalarining mavjudligi va ko'lami;

3.5. Universitetning tarkibiy bo'linmalarida tashkiliy yangiliklarning mavjudligi va ko'lami;

3.6. Universitetning tarkibiy bo'linmalarida texnologik yangiliklarning mavjudligi va ko'lami.

Marketing menejmenti nuqtayi nazaridan OTMlar raqobatbardoshligini baholash yondashuvi talabalar va bitiruvchilar bilan uzoq muddatli o'zaro manfaatli aloqalarni shakllantirish zaruratini ularning mehnat bozori subyektlari sifatida haqiqiy raqobatbardoshligini baholashni o'z ichiga oladi. Universitetlar uchun eng katta qiymat bu ular tomonidan yaratilgan "inson kapitali" funksiyasini o'qish paytida shakllantirish yoki to'g'ridan-to'g'ri uni tugatish vaqtida bitiruvchilar tomonidan tashkil etilgan yangi biznes tuzilmasi yoki Start up yaratish holatlari bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, OTMlar raqobatbardoshligi bizning fikrimizcha, asosiy ta'lim faoliyatidan diversifikatsiyalangan faoliyatni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan doimiy innovatsion va izlanish faoliyatiga e'tibor qaratishni talab etadi.

Universitetning innovatsion faoliyati raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim tashkilotining marketing menejmenti samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir.

Marketingni boshqarish strategiyasida universitetning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari strategik, operatsion va taktik marketing imkoniyatlariga mos keladigan mexanizmni yaratishni talab etadi.

Faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlarini va raqobatbardoshlikning yakuniy ko'rsatkichlarini shakllantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda universitetlar marketing menejmentini amalga oshirishga tizimli va kompleks yondashuvni zarur. Shunga ko'ra universitetlar ta'lim xizmatlari bozorida samarali raqobatdosh ustunliklarni yaratishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq strategik maqsadlar belgilashi zarur:

1. Bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish;
2. Universitetning bozor subyekti sifatida raqobatbardoshligi oshirish;
3. Universitetning innovatsiyalar bozorida raqobatbardoshligini oshirish;

Zamonaviy universitetning raqobatbardoshligini marketingni boshqarishning asosiy yo'nalishlari va vositalari 2-jadvalda aks etgan.

2-jadval

Zamonaviy universitetning raqobatbardoshligini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va marketing vositalari¹

| Marketingni boshqarish darajalari | OTMLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI | | |
|-----------------------------------|---|--|--|
| | Bitiruvchilarning raqobatbardoshligi | Universitetning bozor subyekti sifatida raqobatbardoshligi | Universitetning innovatsion faoliyat raqobatbardoshligi |
| Strategik | <ol style="list-style-type: none"> 1. Turli yillardagi bitiruvchilarning martabasi bo'yicha doimiy marketing tadqiqotlari olib borish 2. Ta'lim xizmati/mahsulotining mehnat bozorida sinovdan o'tkazishda raqobatbardoshligini funksional va xarajatlarni hisobga olgan holda tahlil qilish 3. O'ziga xos marketing profilini yaratish va turli toifadagi segmentlar uchun individual ta'lim yo'lini ishlab chiqish | <ol style="list-style-type: none"> 1. Mintaqaviy/milliy/xalqaro ta'lim bozorlarini marketing tadqiqotlarini olib borish (talab, taklif, marketing tizimi, narx va narxdan tashqari takliflar, raqobat muhiti) 2. Universitetlar brendini shakllantirish, maqsadi joylashtirish va ilgari surish 3. Universitet marketing tizimining asosiy subyektlari bilan bog'liq holda marketing va raqobat strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Universitetning innovatsiyalar bozoridagi tadqiqotlari va marketing auditi 2. OTMLarning innovatsion faoliyati rejasi va uning natijalarini tijoratlashtirish istiqbollari 3. Innovatsion tovar va xizmatlar bozorlarini universitetga kirish istiqbollari bilan marketing tadqiqotlari |
| Operatsion | <ol style="list-style-type: none"> 1. Universitetning ishga qabul qilish resursi 2. Universitetda va uning ekotizimida ish bilan ta'minlash imkoniyatlari 3. Talabalar va bitiruvchilarni universitet biznes inkubatori va Startup tezlakichi faoliyatiga jalb qilish | <ol style="list-style-type: none"> 1. Asosiy ta'lim jarayonini taqqoslash va sifat menejmenti 2. Sodiqlik dasturlari asosida "bitiruvchilar" mijozlar oqimini qayta sotish 3. O'quv — ishlab chiqarish va ilmiy — tadqiqot filiallarini ajratish bilan universitetni ekotizim formatida rivojlantirish | <ol style="list-style-type: none"> 1. Universitetning innovatsion faoliyatining asosiy yo'nalishlarini marketing bilan ta'minlash. 2. Universitet biznes-inkubatori va Startup faoliyati natijalarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish |
| Taktik | <ol style="list-style-type: none"> 1. Talaba portfelini saqlash va yakunlash 2. Talabalar va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli marketing faoliyati 3. Universitetning o'quv-ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot tuzilmalarida o'qitish va ishtirok etishga jalb qilingan amaliy mutaxassislar ulushini oshirish | <ol style="list-style-type: none"> 1. Korporativ identifikatori ishlab chiqish va yangilash 2. Ta'lim xizmatlari va mahsulotlarini nomlash 3. Universitetning o'quv yo'nalishlari va tarkibiy bo'linmalarining marketing kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish 4. Virtual ta'lim makonining marketing resurslaridan foydalanish 5. "Yo'qotilgan mijozlar (aloqani uzgan bitiruvchilar)" bilan ishlash | <ol style="list-style-type: none"> 1. OTMLarning innovatsion tovarlari va xizmatlari uchun marketing MIKS 2. Universitetning innovatsion brendini ishlab chiqish va targ'ib qilish |

¹ Muallif ishlanmasi

Taklif qilayotgan ta'lim tashkilotlarining marketing menejmenti tizimida universitetning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari tizimi strategik ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyot tizimidagi mavqeyini hisobga oladi. Bubirinchi navbatda mijozlar va xodimlar bilan samarali uzoq muddatli hamkorlik nuqtayi nazaridan raqobatli ta'lim xizmatlari bozorida universitetning barqarorligi ta'minlashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar mazkur bozorda raqobat muhitini shakllantirishga qaratilib, OTMlarga erkin raqobatlashish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarmoqda. Bunday jarayonda ta'lim xizmatlari va mahsulotlarini yetkazib beruvchi subyektlarning asosiy faoliyati ta'lim sifati va uning samarasiga qaratilishi lozim.

Bozor muhiti marketing o'zgarishlarining tezligi va universitetning raqobatbardoshligi bilan belgilanadi va bunday jarayonda marketingni boshqarish samaradorligining asosiy omili hisoblanadi.

Universitetlarning raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan marketing menejmentini tashkil qilish uchun dinamik va strategik yondashuvni amalga oshirish juda muhimdir. Bu bozor tendensiyalarini tushunish, texnologiyadan foydalanish, manfaatdor tomonlarni jalb qilish va marketing harakatlarini doimiy ravishda takomillashtirishni talaba etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marulanda-Grisales N., Vera-Acevedo L. D. Analysis of core competences and competitive advantages in higher education institutions: An intellectual capital approach //Knowledge Management Research & Practice. – 2023. – T. 21. – №. 5. – С. 957-971.

2. Hart P.F., Rodgers W. Competition, competitiveness, and competitive advantage in higher education institutions: a systematic literature review //Studies in Higher Education. – 2023. – С. 1-25.

3. Данько Т.П. Управление маркетингом. М., Юрайт, 2017. – 521с. С. 27.

4. Беспалько В.А. Стратегии, формы и методы ценовой и неценовой конкуренции в теории и методологии промышленного маркетинга. Краснодар, ККИ, 2017. – 240 с.

5. Вандрикова О.В. Маркетинг образовательных услуг в системе высшего образования // Вестник Академии знаний. 2017. №4. С. 65-70.

6. Колесник Е.А. Маркетинг высшего образования: тенденции развития // Здоровье и образование в XXI веке. 2016. Том 18. №2. С. 749–752.

7. Захарова И.В. Управление конкурентоспособностью образовательной организации //Горизонты и риски развития образования в условиях системных изменений и цифровизации. – 2020. – С. 664-668.

8. Шумакова И.А. Управление маркетинговой деятельностью российских вузов и его адаптация к изменяющимся рыночным условиям в экономике России

и на глобальных рынках //Экономика. Информатика. – 2021. – Т. 48. – №. 1. – С. 72-81.

9. Дмитриева Г.С. Особенности маркетинговых технологий вуза для привлечения абитуриентов //Креативная экономика. – 2020. – Т. 14. – №. 8. – С. 1821-1828.

10. Нишонов Д.Ш. Олий таълим рақобатбардошлигини оширишнинг маркетинг стратегиялари //Иқтисодийёт фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т. 2022.

11. Каҳҳоров О. Олий таълим муассасалари маркетинг фаолияти самарадорлигини бошқариш. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil.

12. Монтессори М. Полный курс воспитания. М., АСТ, 2017. – 576 с.

ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI VA UNDAGI MUHIM TENDENSIYALAR

Abidov Badriddin Nurutdinovich

Diplomat Universiteti katta o'qituvchi, ilmiy izlanuvchi

bobidov@yahoo.com

Inxomova Gulasal Javli qizi

Diplomat Universiteti, 2-kurs talabasi

inxomovagulasal@gmail.com

Erkinova Xosiyat Botir qizi

Diplomat Universiteti, 2-kurs talabasi

erkinova050@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda elektron tijorat ("e-commerce") tobora dolzarb bo'lmoqda, jahon iqtisodiyotida, ko'p tomonlama savdo tizimida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy rol o'ynamoqda. Internet texnologiyalarining rivojlanishi va biznesning raqamli transformatsiyasi natijasida tashkilotlar va kompaniyalar o'z faoliyatini onlayn makonga o'tkazmoqda, elektron do'konlar va platformalar yaratmoqda. Internet platformasi savdo o'sib borayotgan soha va ayni paytda iqtisodiyot uchun kuchli asos bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir elektron tijoratning kengayishi va takomillashuvi bilan bog'liq bo'lib biznes va iste'molchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek xulosa o'rnida bu maqolaning maqsadi elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari va undagi muhim tendensiyalarni tahlil qilishdir. Buning uchun biz ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va tadqiqotlar natijasiga tayanamiz.

Kalit so'zlar: internet-savdo, internet-marketing, onlayn-do'konlar, mahsulot turlari, savdo tashkilotlari, savdo texnologiyalari.

Аннотация

В современном мире электронная коммерция («электронная коммерция») становится все более актуальной, играя ключевую роль в мировой экономике, многосторонней торговой системе и международных экономических отношениях. В результате развития интернет-технологий и цифровой трансформации бизнеса организации и компании переносят свою деятельность в онлайн-пространство, создавая электронные магазины и платформы. Интернет-платформа — это растущая сфера коммерции и в то же время прочная основа экономики. Каждое расширение и совершенствование электронной коммерции создает новые возможности для бизнеса и потребителей. Также в заключение целью данной статьи является анализ этапов развития электронной коммерции и ее важных тенденций. Для этого мы опираемся на научную литературу, статистику и результаты исследований.

Ключевые слова: интернет-торговля, интернет-маркетинг, интернет-магазины, виды продукции, торговые организации, торговые технологии.

Abstract

In the modern world, electronic commerce ("e-commerce") is becoming more and more relevant, playing a key role in the world economy, multilateral trade system and international economic relations. As a result of the development of Internet technologies and the digital transformation of business, organizations and companies are transferring their activities to the online space, creating electronic stores and platforms. The Internet platform is a growing area of commerce and a strong foundation for the economy at the same time. Each expansion and improvement of e-commerce creates new opportunities for business and consumers. Also, in conclusion, the purpose of this article is to analyze the stages of development of e-commerce and its important trends. To do this, we rely on scientific literature, statistics and research results.

Keywords: Internet trade, Internet marketing, online stores, types of products, trade organizations, trade technologies.

KIRISH

Elektron tijorat soʻnggi yillar davomida juda ommalashib, deyarli hayotimizning bir qismiga aylanib bormoqda. Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Soʻnggi yillarda texnologik taraqqiyot va internetning ommaviylashuvi elektron tijoratning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari:

1. Boshlangʻich bosqich(1990). Bu davrda asosiy maqsad kompaniyalar uchun internetda mavjud boʻlish edi. Saytlar, asosan, statik boʻlib, mijozlar uchun oddiy axborot sahifalari edi. Bunda birinchilardan onlayn doʻkonlarning paydo boʻlgan. Amazon va eBay kabi yirik kompaniyalar bu davrda onlayn savdoni yoʻlga qoʻydilar. Mijozlar internet orqali mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega boʻldilar.

2. Oʻsish bosqichi (2000-2010-yillar). Bu bosqichda “ Interaktiv va dinamik saytlar va “Sunʼiy intellekt” paydo boʻldi. Bunda mijozlar oʻz fikrlarini qondirish, baholash va mulohazalarni bildirish imkoniyatiga ega boʻldilar. Ijtimoiy tarmoqlar yangi Facebook, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlar onlayn savdo jarayonini rivojlantirdi. “Toʻlov tizimlari” bunda Paypal kabi onlayn toʻlov tizimlari rivojlanib, xavfsiz va qulay toʻlov imkoniyatini yaratdi.

3. Rivojlanish bosqichi (2010-2020). Bu bosqichda mobil tijorat (m-tijorat) yaʼni smartfonlar va mobil ilovalar orqali mahsulot sotib olish koʻpaydi “Bulut texnologiyalar” va “Sunʼiy intellekt(AI)”yoʻlga qoʻyildi. Shaxsiylashtirilgan takliflar va chatbotlar orqali mijozlar bilan aloqa qilindi.

4. Raqamli transformatsiya bosqichi(2020-yillar va keyin). Bunda “Iot va Big data”, “Blockchain texnologiyasi”, “Ovozli savdo” yoʻlga qoʻyildi. Ilovalardan mahsulot sotib olish imkoniyati kengaytirildi, xavfsizlik yanada oshirildi va xizmatlar optimallashtirildi.

Elektron tijoratning muhim tendensiyalari quyidagilar:

1. Shaxsiylashtirish. All va maʼlumotlarni tahlil qilish yordamida mijozlarga shaxsiylashtirilgan tajriba taqdim etish.

2. Ko‘p kanallik (Omnichannel) yondashuvi. Turli kanallar orqali yagona savdo tajribasini taqdim etish va savdo va marketing strategiyalarini birlashtirish.

3. Barqarorlik va ekologik mas’uliyat. Barqarorlikka e’tibor qaratgan kompaniyalar mijozlar e’tiborini tortmoqda va qayta ishlanadigan mahsulotlar va ekologik toza yetkazib berish xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

4. Xavfsizlik va maxfiylik. Mijoz ma’lumotlarini himoya qilish uchun kuchli xavfsizlik choralari va GDPR va boshqa maxfiylik qoidalariga rioya qilish.

5. Tezkor yetkazib berish. Tezkor va bepul yetkazib berish xizmatlari bilan mijozlartalablarini qondirish, dronlar va robotlar yordamida yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirish.

Elektron tijoratning rivojlanishi texnologiyalarining o‘zgarishi va mijozlar talablariga javob berish maqsadida yangi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Elektron tijoratning kelajagi texnologik yangiliklar va mijozlar talablariga moslashish bilan birga bog‘liq bo‘lib bu sohada muvaffaqiyatli erishish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Elektron tijoratda tovarlarni bozorda tanitish uchun ularni mijozlar o‘rtasida ilgari surish har qanday korxonaning muhim vazifasi hisoblanadi, bunda banner reklamasi oflayn va onlayn reklama va qurilmalarda ro‘yxatdan o‘tish usullar qo‘shimcha imkoniyat beradi.

Elektron tijoratning samaradorligini oshirish uchun statistik ma’lumotlardan foydalanib, qaysi mahsulotlar ommabop ekanini va marketing strategiyalarining samaradorligini aniqlash mumkin. Internet-marketing, shu jumladan, SMM, SEO va mijozlardan fikr-mulohazalar yig‘ish elektron tijoratning muhim tarkibiy qismlaridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolani yozishda bir qancha adabiyotlardan foydalanildi. Elektron tijoratning rivojlanish bosqichlarini aniqlash va ularni ilmiy nuqtai nazardan tushunish uchun keng ko‘lamli adabiyotlarni tahlil qilish talab etiladi. Quyida bu maqola bo‘yicha asosiy adabiyotlar va ularning tahlili keltirildi. Bu maqolada Chaffe D. tadqiqolarigatayandi “Digital Business and E-Commerce Management” da elektron tijoratning boshqaruvi haqida keng qamrovli ma’lumotlar keltirilgan, shu sababli elektron tijoratning rivojlanish bosqichlarini va zamonaviy tendensiyalarini tushunish uchun foydalanildi.

METODOLOGIYA

Elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari va muhim tendensiyalarni tahlil qilish uchun bir qator metodlardan foydalanildi. Misol qilib aytganda elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish uchun kompyuter modellari va simulyatsiyaladan foydalanildi. Hozirda dunyoda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari yanada takomillashmoqda. Kelajakda vediotelefon va virtual haqiqat texnologiyalari elektron tijoratda muhim rol o‘ynashi kutilmoqda. Bu texnologiyalarni ko‘rish sinab ko‘rish ularning sifatiga to‘liq baho imkonini beradi. Maqolaning maqsadi va mohiyati holat haqida umumiy tasvirni tasvirlashga asoslangan. Bundan tashqari eklektron tijoratning takomillashuvi haqida yanada yaxshiroq ko‘nikmaga ega bolishga qaratildi. Mazmuni to‘liq ochib berish uchun koproq kitoblar va mantiqqa

tayanildi. Zotan elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari tushunish uchun yetarlicha kuchli dalil bo‘la oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi o‘n yillikda elektron tijorat sohasida erishilgan natijalarga. Bularga quyidagilar kiradi

1. Savdo hajmining o‘shishi ya’ni elektron tijorat global savdo hajmini sezilarli darajada oshirdi. Misol uchun 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida elektron tijorat orqali sotuvlar jadvali o‘sdi va jahon elektron tijorat savdo hajmi 4trillion dollardan oshdi.

2. Kichik va O‘rta bizneslarning o‘shishi. Kichik va o‘rta bizneslar uchun global bozorlar ochildi. Onlayn platformalar orqali kichik tadbirkorlar ham xalqaro savdo bozorlariga chiqish imkoniga ega bo‘ldilar

3. Bandlik va yangi ish o‘rinlar: Elektron tijorat sohasida ko‘klab yangi ish o‘rinlar yaratildi. Logistika mijozlarga xizmat ko‘rsatish, IT va marketing sohalarida ish o‘rinlari ko‘paydi.

4. Mijozlarga tajribasining yaxshilanishi: elektron tijorat mijozlari uchun qulaylik va vaqtni tejash imkoniyatlarini taqdim etadi.

5. Innovatsion to‘lov tizimlari: Xavfsiz va qulay to‘lov tizimlarining rivojlanishi elektron tijoratni yanada ommallashtirdi. Yangi ijtimoiy tarmoqlar elektron tijorat bilan integratsiyalashib mijozlar bilan aloqalarni kuchaytirdi.

6. Mobil tijorat: Smartfonlar va mobil ilovalar yordamida xarid qilish imkoniyati kengaydi.

Mobil tijorat savdo hajmi jadal o‘shib 2023-yilda globalelektron tijorat savdo hajmining yarmidan ko‘pini tashkil etdi. Sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu mijozlarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va ularga mos ravishda takliflar taqdim etish imkonini berdi. Elektron tijoratda tezkor va samarali yetkazib berish tizimlari rivojlandi. Blockchain texnologiyasi yordamida xavfsizlik va shaffoflik ta’minlandi. Bu texnologiya orqali tovarlarni kuzatish tranzaksiyalarni tasdiqlash va firibgarlikni oldini olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Narsalar interneti narsalari (IoT). IoT qurilmalari yordamida xarid jarayonlari yanada avtomatlashtirildi va soddalashtirildi. Aqlli uylar va do‘konlar orqali mijozlar o‘z xaridlarini masofadan turib boshqarish imkoniga ega bo‘ldilar. Personalizatsiya elektron tijorat kompaniyalari mijozlarning xatti harakatini tahlil qilib ularga individual takliflar va reklama kompaniyalarini taqdim etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Elektron tijorat sharoitida erishilgan natijalar sohaning tez suratlar bilan rivojlanayotganini va global iqtisodiyotga ijobiy tasir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik jihatlaridan erishilgan yutuqlar kompaniyalarga va mijozlarga katta foyda keltirdi. Kelajakda yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida elektron tijorat yanada rivojlanib, global savdo va mijozlar tajribasini yaxshilashda davom etadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o‘shib bormoqda. Xususan, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi

2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 milliard soʻmdan ortiqni tashkil etdi. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortigʻiga teng (1-rasm).



1-rasm. Oʻzbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi,¹ mlrd. soʻm

Oʻzbekistonda elektron tijoratning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri sohani qonunchilik bilan tartibga solishdir. 2022-yilda yangilangan “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilindi. Qonun isteʼmolchilarni ham, tadbirkorlarni ham huquqiy himoya qiladi, elektron operatsiyalarni amalga oshirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash tartibini belgilaydi. Ishonchli va barqaror elektron tijorat ekotizimini yaratishda qonunchilik va toʻlov tizimlari hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ular jarayonning barcha ishtirokchilari — ham xaridorlar, ham sotuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni taʼminlaydi va hokazolar.

Elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari zamonaviy iqtisodiyot va savdo tizimini sezilarli darajada oʻzgartirdi. Boshlangʻich bosqichda internet va web-saytlar paydo boʻlishi bilan elektron tijorat tez rivojlandi. Keyingi bosqichlarda ijtimoiy tarmoqlar va xavfsiz toʻlov tizimlarining rivojlanishi elektr tijoratni yangi darajada olib chiqdi. Mobil tijoratning oʻsishi va AI texnologiyalarining rivojlanishi mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat koʻrsatish imkoniyatlarini kengaytirdi. Raqamli transformatsiya bosqichda IoT, katta maʼlumotlar va blockchain texnologiyalari elektron tijoratning samaradorligi oshirdi va xavfsizlikni taʼminlash. Hozirgi va kelajakdagi tendensiyalar elektron tijorat kompaniyalari uchun raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlarga eng yaxshi tajribani taqdim etishga qaratilgan.

Personalizatsiya, omnichannel yondashuvi, barqarorlik va ekologik masʼuliyat, xavfsizlik va tezkor yetkazib berish kabi tendensiyalar kompaniyaga muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Elektron tijoratning kelajagi texnologik yangiliklar va mijozlar talablariga moslashish bilan bogʻliq boʻlib, bu soha muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Kompaniyalar raqobatda ustunlikka erishish uchun shaxsiylashtirilgan va samarali strategiyalar ishlab chiqishi kerak.

¹ www.stat.uz sayti maʼlumotlari asosida tayyorlangan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijorat zamonaviy raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, u kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan quyidagi moliyaviy va tijorat operatsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Qonunchilikni takomillashtirish. Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish va yangi huquqiy me‘yoriy hujjatlarni qabul qilish, foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilishga e‘tibor qaratish va shaffof soliq tizimini yaratish.

Logistika va yetkazib berishni yaxshilash. Yakuniy logistika tizimini yaratish uchun pochta xizmatlarini modernizatsiya qilish va bu sohaga investitsiya qilish talab etiladi.

Marketing va reklama. Internet-marketingga, jumladan SMM, SEO va banner reklamasiga e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi.

Mahsulotlar tarkibi va xizmatlarni kengaytirish. Onlayn va an‘anaviy mahsulotlar takliflarini kengaytirish muhim.

Ijtimoiy nafaqalarni oshirish. kam ta‘minlangan odamlarni arzonroq tovarlar bilan ta‘minlash va kasanachilik imkoniyatlarini kengaytirish.

Statistikadan foydalanish. Ommabop mahsulotlar va marketing strategiyalarining samaradorligini aniqlash uchun statistikadan foydalanish. O‘qitish va tizimni rivojlantirish: Mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish kerak.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarni tarbiyalash kerak.

Aloqa va xizmatlar sifatini yaxshilash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro tajriba almashish va ular bilan o‘zaro foydali yo‘nalishlarni rivojlantirish zarur. Elektron tijoratning samaradorligini oshirish uchun statistik ma‘lumotlardan foydalanib, ommabop mahsulotlarni va marketing strategiyalarining samaradorligini aniqlash mumkin. Internet-marketing (SMM, SEO) va mijozlardan fikr-mulohazalar yig‘ish orqali elektron tijoratni yanada rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «ОСНОВЫ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ», Юрасов А. В., Горячая линия-Телеком, Москва, 2007 год
2. «Electronic Commerce», Gary Schneider, Course Technology, 2008
3. "E-commerce 2025: Trends and Strategies" by Maria Johnsen (2020)
4. "Digital Marketing for Dummies" by Ryan Deiss and Russ Henneberry (2020)
5. Amazon.com, Inc kompaniyasi hisoboti, Annual Report 2022 (SEC Filing Form 10-K).
6. Elektron manba: <https://www.techtarget.com/searchcio/definition/e-commerce>.
7. Elektron manba: <https://infocom.uz/elektron-tijorat-ozbekiston-iqtisodiyotidamavjud-holat-muammolar-va-istiqbollar>.
8. Chaffey D.(2015).”Digital Business and E-Commerce Management”.

CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI

Sadinov Aziz Ziyadullayevich

Toshkent xalqaro moliyaviy
boshqaruv va texnologiyalar
universiteti raqamli texnologiyalar
kafedrasida katta o'qituvchisi
azizsadinov1909@gmail.com

Аннотация

Raqamli texnologiyalar — bu ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyasi bo'lib, bunda chiqindi mahsulotlarni saqlash, himoyalash, qayta ishlash kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. Raqamli texnologiyalar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon raqamli va axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni, raqamli texnologiyalar mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Калит so'zlar: raqamli texnologiyalar, chiqindi mahsulotlarni saqlash, himoyalash, qayta ishlash.

Аннотация

Цифровые технологии — это технологии управления и обработки информации, которые используются для хранения, защиты и переработки отходов. Хотя цифровые технологии существовали на различных этапах развития человечества, характерной чертой современного цифрового и информационного общества является то, что впервые в истории цивилизации энергия, сырье, материалы и потребительские товары используются для приобретения и производство знаний доминирует над расходами, то есть цифровые технологии занимают ведущее место среди доступных новых технологий.

Ключевые слова: Цифровые технологии работают на такие действия, как хранение, защита, переработка отходов.

Abstract

Digital technologies are information management and processing technologies, which are used to store, protect, and recycle waste products. Although digital technologies have existed at various stages of human development, the characteristic feature of the current digital and information society is that, for the first time in the history of civilization, the energy, raw materials, materials and consumer goods used for the acquisition and production of knowledge dominates the spending, that is, digital technologies take the leading place among the available new technologies.

Key words: Digital technologies work on such actions as storage, protection, recycling of waste products.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning industriyasi majmuini kompyuter tizimi, ma'lumotlar bazasi va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil qiladi.

Xorij tajribasi sifatida Singapurda chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Bu texnologiyalar yordamida chiqindilarni saralash va olib chiqib ketishda foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarga (SMART chiqindi mashinalari) chiqindilarni yig'ish, to'plash va olib chiqib ketish vazifasi yuklatilgan bo'lib, bu faqat raqamli texnologiyalar yordami bilan amalga oshiriladi. SMART mashinaga maxsus chip orqali signal yetkazib beriladi, bu signal orqali chiqindilarni joylashgan joyidan topib olish va sifat ko'rsatkichlari orqali saralash ishlarini olib boradi [3].

Singapurda avtomatlashtirilgan mashinalardan, ya'ni raqamli texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, Singapurda chiqindilar muammosi mavjud emas hamda davlatning iqtisodiy ulushiga katta hissa qo'shib kelayotgan tizim bu raqamli texnologiyalar bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashni boshqarish dasturlarini shakllantirish masalalari A.K. Golubin, V.V. Devyatkin, L.Y. Shubov K. Schvab va boshqalar tomonidan ilmiy asosida yangi tahlil va natijalari o'rganilgan [1]. Bugungi kunga qadar mintaqaviy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindi jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, muammoni hal etishda ilmiy jihatdan kompleks yondashuv mavjud emas. Dunyoda ushbu bozor segmentini samarali boshqarishning asoslangan usullari va mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Ushbu holatlar, maqolaning maqsadi va vazifalarini belgilab berdi. Hozirgi paytda O'zbekiston olimlaridan S. S G'ulomov, B. Y. Xodiyev, B.A. Begalov, A.N. Aripov, T. K. Iminov, M.A. Mahkamova, H.A. Muxitdinovlarning axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi va yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarni raqamlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni raqamlashtirish deganda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Korxonalarda ishlab chiqarish va boshqaruvi uchun zamonaviy texnologiyalarning asosiy vazifalari — kerakli ma'lumotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangi ma'lumotlarni ishlab

chiqish va optimallashtirishning turli xil muammolarini hal etishdan iboratdir. Vazifa nafaqat vaqtni sarflaydigan, muntazam takrorlanadigan, ma'lumotlarni qayta ishlash operatsiyalarini tanlash va avtomatlashtirish, balki samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan yangi ma'lumotlarni olish uchun ularni qayta ishlash orqali ham amalga oshiriladi.

Ushbu ikkilamchi xomashyo mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirishda sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishda investitsiya kiritgan Qozog'iston davlati. Qozog'istonning Qizilo'rda shahrida uch smenada yiliga 100 ming tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega chiqindilarni qayta ishlash zavodini qurgan. Qizilo'rda shahrining muammolarini hal etish bilan birga "Qozog'iston Respublikasida ishlab chiqarishni rivojlantirish" davlat dasturida belgilangan vazifalarni ham bajaradi. Ushbu investitsiya loyihasining belgilangan maqsadiga erishishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yiliga 72 000 tonna qattiq maishiy chiqindilarni (keyingi o'rinlarda MChJ deb yuritiladi) qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash zavodini qisqa muddatda uch smenada o'rnatish;
- korxonaning kadrlar salohiyatini yaratish: professional texnik mutaxassislar, ishchilar va menejerlarni tanlash, joylashtirish, tayyorlash, moslashtirish;
- korxonaning marketing siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qozog'istonda xom ashyo iste'mol chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish;
- tayyor mahsulotlarni sotish tarmog'ini yaratish;
- jahon ekologik va texnologik uskunalar standartlaridan foydalanish;
- shahar va tumanlardagi ko'cha va korxonalarining sanitariya holatini, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaxshilash;
- arzon va ekologik toza texnologiyalar asosida qattiq maishiy chiqindilarni 100 foizga yaqin qayta ishlashni ta'minlash;
- xomashyo, tovar mahsuloti va energiya ko'rinishidagi chiqindilarning 85 foizini iqtisodiy aylanmaga qaytarish;
- shaharni sanitar tozalash uchun birlik xarajatlarini qisqartirish va qayta ishlash sohasini qimmat tarmoqdan yuqori daromadli sohaga aylantirish;
- 50 ta barqaror ish o'rni yaratish.

Zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash zavodining barpo etilishi nafaqat chiqindilarni saralash va zararsizlantirish, balki mahalliy bozor uchun chiqindidan tayyor mahsulot olish imkonini beradi. Yiliga 100 000 tonna qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash quvvatiga ega korxonada uch smenada to'liq yuklanganda sotuvga mo'ljallangan xom ashyo va tayyor mahsulotlarning quyidagi hajmlari ishlab chiqariladi (1-jadval).

1-jadval

Qozog‘iston Respublikasida chiqindilardan olinadigan ikkilamchi resurslarning hosilasi narxi va xarajatlari¹

| № | Mahsulot nomi | Birlik miqdori | Ishlab chiqarish miqdori kun | Ishlab chiqarish miqdori oy | Ishlab chiqarish miqdori yillik |
|----|--|-----------------|------------------------------|-----------------------------|---------------------------------|
| 1 | Tualet qog‘ozi | tonna | 8,9 | 250,0 | 3000 |
| 2 | Qog‘oz salftkalar | tonna | | | |
| 3 | Qog‘oz (oq) | tonna | | | |
| 4 | Kompost | tonna | | | |
| 5 | PET maydalangan | tonnasi | | | |
| 6 | Elektr energiyasi | mvt | | | |
| 7 | Qora metall | tonna | 8,9 | 250,0 | 3 000 |
| 8 | Rangli metallar | tonna | 4,5 | 125,0 | 1500 |
| 9 | Stol usti va pollar | kv. m | 47,6 | 1 333,3 | 16 000 |
| 10 | G‘ishtlar | tonna | 9,5 | 266,7 | 3200 |
| 11 | Makulatura | tonna | 53,6 | 1500,0 | 18000 |
| 12 | Xarajatlarni nomlash | Narxi, ming KZT | | | Narxi,ming AQSh dollari |
| 13 | Zavodning qurilishi va jihozlari | | 7 585 240 | 20 120,0 | |
| 14 | Yordamchi uskunalar sotib olish | | 5542 | 14,7 | |
| 15 | Avtotransport vositalarini sotib olish | | 818 090 | 2 170,0 | |
| 16 | Aylanma mablag‘lar | | 450628 | 1195,3 | |
| | Jami: | | 8 859 500 | 23 500,0 | |

Maqolada, Korxonaning ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqib kunlik va oylik xarajatlarni belgilash va shu orqali daromad topish va ikkilamchi xom ashyo mahsulotlarni belgilash keyinchalik bozor talablariga chidamli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsad qilingan[6].

Germaniya tajribasida murakkab sanoat jarayonlarida raqamli tarmoqlardan tobora ko‘proq foydalanish barqarorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu jarayonlarda 600 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalarini o‘z ichiga olgan noyob ma‘lumotlar to‘plamiga asoslangan holda nemis sanoatida moddiy samaradorlikni oshirish uchun raqamlashtirishning dolzarbligi haqidagi birinchi empirik topilmalarni taqdim etadi. Natijalari shuni ko‘rsatadiki, moddiy samaradorlikni oshirish uchun raqamli tarmoq imkoniyatlari hozircha cheklangan darajada, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha an‘anaviy samaradorlikni oshirish choralari uchun foydalanilmoqda.

Ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarni yanada barqaror shakllariga o‘tishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgi kun tartibi va barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDGs) muhim qismi sifatida global miqyosda kelishilgan. SDGlar chiziqli iqtisodiyotdan aylanma iqtisodiyotga o‘tish uchun muhim turtki bo‘ladi. SDGdan 12 tasi bevosita tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga bog‘liq bo‘lgan holda resurslar samaradorligini oshirish asosiy strategiya hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Maqsadlarda 2030 yilgacha resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun sanoatni qayta jihozlashga alohida e'tibor qaratilgan. Maqsad oldini olish, kamaytirish, qayta ishlash va qayta foydalanish orqali isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan aylanma iqtisodiyot g'oyasini kuchaytiradi. Doiraviy iqtisodiyotning mantiqiy asosi resurslarni iloji boricha uzoq vaqt davomida ishlatishdir. Yondashuv resursning to'liq hayot aylanishini ko'rib chiqishdan iborat — qazib olishdan mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va oxir-oqibat chiqindilarni boshqarish. Masalan, qayta ishlash. Aylanma iqtisod resurslarni tejaydigan mahsulot dizayni (ekodizayn) hamda mahsulot va materiallarni qayta ishlash va qayta ishlatish orqali ham moddiy sarfni, ham chiqindilarni hosil qilishni minimallashtirishga qaratilgan. Qayta ishlash va qayta foydalanish orqali chiqindilar qaytadan resursga aylanadi.

Yaqinda G20 Resurs samaradorligi bo'yicha dialogning boshlanishi bilan G20 mamlakatlari 20 30 kun tartibini amalga oshirishga hissa qo'shishni maqsad qilgan. Maqsad butun hayot sikli davomida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi va barqarorligini oshirish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish modellarini rag'batlantirish uchun ilg'or tajriba va milliy tajriba almashishdir. Bungacha G7 mamlakatlari resurslardan samarali foydalanish muhimligini tan olgan edi. 2015-yil, bu masalani G7 kun tartibiga qo'yishgan. Resurs samaradorligini oshirish bo'yicha G7 ittifoqini yaratish bilan bir qatorda, G7 BMT Atrof-muhit bo'yicha dasturining Xalqaro Resurs Paneli va OECD tomonidan resurslar samaradorligini oshirish uchun eng istiqbolli yechim va yondashuvlarni aniqlash uchun ikkita hisobot talab qildi. Bunga parallel ravishda Yevropa Ittifoqining aylanma iqtisod bo'yicha harakatlar rejasi, uning maqsadi eko-dizayn orqali resurslardan yuqori samaradorlikka erishishdir.

Germaniya birinchilardan bo'lib resurslar samaradorligi bo'yicha keng qamrovli siyosiy strategiyani ishlab chiqqan Yevropa davlatlaridan biri edi. Milliy miqyosda tabiiy resurslardan foydalanishni iqtisodiy rivojlanishdan ajratishning siyosiy maqsadi Germaniyaning Barqaror rivojlanish strategiyasida (GSDS) va Germaniyaning resurslardan samarali foydalanish dasturida (GREP) mustahkamlangan.

2002-yildayoq GSDS mahalliy ishlab chiqarishda resurslar samaradorligini oshirish uchun 2020-yilga kelib xomashyo unumdorligini 1994-yilga nisbatan ikki baravar oshirish vazifasini qo'ygan edi. Ushbu maqsadga erishish uchun GREP 2012- yilda amalga oshirildi. Germaniyada resurs samaradorligi bo'yicha hozirgi holat va taraqqiyot ko'rib chiqiladi va keyinchalik dastur mos ravishda takomillashtiriladi. Birinchi yangilash 2016-2019-yillarda amalga oshirildi. GSDSdan olingan xom ashyo mahsuldorligi ko'rsatkichi hali ham GREP uchun asosiy mos yozuvlar nuqtasi bo'lib qolmoqda. Biroq, endi u yangi ko'rsatkich, jami xom ashyo unumdorligi bilan to'ldirilib, resurslar samaradorligini oshirishni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi, Masalan biotik resurslarni qo'shish va import uchun yetarli miqdorda ruxsat berish orqali. Bu faqat resurslarni ko'p talab qiladigan jarayonlarni chet elga ko'chirishga asoslangan hosildorlik o'sishi haqida hisobot berishning oldini oladi. Maqsad bu 2000-2020 yillardagi tendensiyani 2030-yilgacha davom ettirishdir [8].

Korxonalar resurs samaradorligini asosiy strategiya sifatida ko'proq aylanma va resurslardan tejankor iqtisodiyotni faqat barcha davlat va nodavlat partiyalarni,

xususan, xususiy sektorni jalb qilgan holda amalga oshirish mumkin. Sanoat sektori investitsiyalar manbai va tabiiy resurslardan yaxshiroq va ehtiyotkorona foydalanishni ta'minlovchi texnologik rivojlanish va innovatsiyalarning harakatlantiruvchisi sifatida asosiy rol o'ynaydi.

Yuqori sanoatlashgan iqtisodiyot sifatida Germaniya resurslarni tejash va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uchun hozirgi ishlab chiqarish va iste'mol modellarini yanada o'zgartirishi kerak. Global qiymat zanjirlarida yuqori darajada integratsiyalashgan holda Germaniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlar bu yerda asosiy rol o'ynaydi, chunki ular sanoatlashgan, rivojlanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish usullariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin va ularga yanada barqaror global ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun alohida mas'uliyat yuklaydi. Shunday qilib, ko'plab nemislar ishlab chiqarilgan resurslarni iste'mol kompaniyalari minimallashtirishmoqda. Bundan tashqari, material iste'moli yaratish xarajat omilidir. Kelajakda xomashyo ta'minotini himoya qilish uchun Germaniya iqtisodiyoti mavjud resurslar bilan tejamkorlik bilan ishlash muammosiga duch keladi [9].

Qimmatbaho resurslarning energiya sarflanishiga qarshi turish uchun muhim manba resurslarni ishlab chiqarishni ishlab chiqarishni yanada yaxshi ekologik tozalash orqali isrofgarchilikni oldini olish va murakkab sanoat ishlab chiqarish va jarayonlarida boshqaruv tizimlarining ortib borishi resurslarni tejaydigan ishlab chiqarish usullari bo'yicha yuqori talablarni ishlab chiqaradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan an'anaviy sanoat jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi resurslardan tejamkor va samarali sayohat va qayta yuklash (yani, qayta ishlash) uchun yangi mahsulotni taqdim etadi. O'rta ishlab chiqarish korxonalarini (20-249 ishchi) o'z sektoridagi boshqa kompaniyalardan biroz farq qiladigan muayyan chora-tadbirlar strategiyasini qabul qiladilar. O'rta kompaniyalarning deyarli yarmi ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori darajada optimallashtiradi va samaradorlikni oshirish uchun resurslarni tejovchi mahsulot dizaynidan kamida o'rta darajada foydalanadi.

Yirik kompaniyalar (250 dan ortiq xodimlar), odatda, yangi materiallardan foydalanishni mos yondashuv deb bilishadi, ammo faqat bir nechtasi bu chorani intensiv ravishda qo'llaydi. Yirik kompaniyalarning deyarli yarmi yangi materiallardan ozgina foydalanadi, qolgan uchdan bir qismi esa ulardan o'rtacha foydalanadi. Bu Germaniyaning oldingi tadqiqotlarida ko'rsatilganidan sezilarli darajada kichikdir. Ko'pincha materiallarni tejash potensialini qayta hisoblash ishlab chiqarish sanoatining (20 yoki undan ortiq xodimi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarida) xarajat tuzilmasi bo'yicha Germaniya tadqiqotida ko'rsatilganidek materiallarning narxi bilan bog'liq. Ushbu so'rov natijalariga ko'ra, 3,6 foiz jamg'arma salohiyati deyarli 30 milliard yevroga to'g'ri keladi. Biroq, bu hisob tejash potensialini sezilarli darajada oshirib yuboradi. Bu, asosan, Germaniya xarajatlari tuzilmasi tadqiqotida moddiy xarajatlar nafaqat xomashyo, yordamchi va ishchi materiallarni, balki sotib olingan oraliq mahsulotlarni, masalan, qurilish komponentlarini ham o'z ichiga olganligi bilan bog'liq. Xususan, faqat mahsulotga o'rnatilishi kerak bo'lgan tayyor mahsulotlarga kelsak, nemis kompaniyalari moddiy samaradorlikni oshirish uchun real imkoniyatlarga ega emaslar. Buning asosiy sababi shundaki, Germaniyada to'plangan

mineral xomashyo importining 40 foiz tayyor mahsulotlardir. Rudalar bo'lsa 50 foizga yetadi (2-jadval).

(2-jadval)

Germaniya tajribasida sanoat chiqindilarni qayta ishlash miqdori¹

| № | Mahsulot nomi | Birlik miqdori | Ishlab chiqarish miqdori kun | Ishlab chiqarish miqdori oy | Ishlab chiqarish miqdori yillik |
|----|------------------------------|----------------|------------------------------|-----------------------------|---------------------------------|
| 2 | Qog'oz salftkalar | tonna | 19,7 | 591 | 7092 |
| 3 | Qog'oz (oq) | tonna | 13,1 | 393 | 4716 |
| 4 | Tog' kon sanoat chiqindilari | tonna | 46,5 | 139,5 | 16740 |
| 5 | Plastik maydalangan | tonnasi | 58,4 | 1752 | 21024 |
| 7 | Qora metall | tonna | 8,9. | 250,0 | 3 000 |
| 8 | Rangli metallar | tonna | 4,5 | 125,0 | 1500 |
| 9 | Yog'och materiallari | kv. m | 47,6 | 1 333,3 | 16 000 |
| 10 | G'ishtlar | tonna | 9,5 | 266,7 | 3200 |
| 11 | Makulatura | tonna | 53,6 | 1500,0 | 18000 |
| | Jami: | | 261,8 | 6350,5 | 91272,00 |

Xalqaro yetkazib beruvchilar moddiy samaradorlikni bir xil darajada oshirishlari va natijada olingan xarajatlar ustunligini to'liq o'tkazishlari asosiy talabdir. Biroq, bu sodir bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Materiallar samaradorligini oshirish uchun raqamli strategiyalar raqamli integratsiyalashgan va qiymat zanjirlari ichi bo'ylab hamkorlik qiluvchi tarmoqlar resurslardan foydalanishni kuzatish va optimallashtirish imkonini beradi.

Keyingi yillarda raqamli texnologiyalar yordamida korxonalarini boshqarish boshqaruvda sezilarli darajada imkoniyatlarni yaratmoqda, chunki ular barcha darajadagi menejerlarga va korxonalarining rahbarlariga eng yaxshi va muqobil boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiyqayta ishlash va tahlil qilishning so'nggi usullari bilan ta'minlanib kelinmoqda [10].

Har bir aqlli qutisi ichidagi chiqindilarni yuklanishini foizda nazorat qilish chiqindilarni yig'ish yo'nalishi shahardagi tirbandliklarni hisobga olgan holda shakllantiriladi va avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanish orqali chiqindilarni boshqarish sifatini oshirish turli hisobotlarni yaratadi(3-rasmda).

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm. Xorijiy davlatlarda aqli qutilardan foydalanish afzalliklari

Chiqindilar qutisi quyosh batareyalari bilan quvvatlanishi mumkin va elektr energiyasiga pul sarflamaslik imkonini beradi va qo‘shimcha elektr kabellarini o‘tkazishga hojat yo‘q. Aqli chiqindi qutilarini to‘g‘ridan to‘g‘ri shahar ko‘chalari va savdo markazlari, ta’lim muassasalari, shifoxonalar, vokzallar, aeroportlar va biznes markazlariga o‘rnatish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Raqamli texnologiyalarda chiqindi mahsulotlarni qayta ishlash va ishlab chiqarish tizimi faoliyatida mavjud muammolarning yechimlarini topish uchun uning iqtisodiy va texnik-texnologik elementlari tarkibini qayta ishlash tamoyillar asosida hamda rivojlanishning takomillashtirish orqali optimallashtirish fundamental tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Hududlarda chiqindilarni integratsion va moslashtirish xususiyatlariga ega bo‘lgan bir qator fundamental va amaliy fan sohalari mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish va boshqaruv hamda inson faoliyatining boshqa ko‘pchilik turlari xususiyatlari hamda sharoitlariga eng moslashgan ilmiy yondashuvlardan biri uning tamoyillaridir.

2. Qayta ishlashda va qo‘llashda korxonalar faoliyati samaradorligini, ularning raqobatdoshligini oshirishi, muvaffaqiyat poydevorini yaratishga asos solishi mumkin. Buning uchun korporativ strategiyani qo‘llab-quvvatlab turish uchun mo‘ljallangan, korxonaning raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqish lozim. Aynan korxonalar tizim sohasidagi keyinchalik xatti-harakatlar va yechimlarni belgilab beradi: muayyan sifatidagi talab qilingan mahsulotni, zarur bo‘lgan hajmda, aniq iste’molchiga, minimal xarajatlar bilan, belgilangan vaqtda, lozim bo‘lgan joyga yetkazib berishni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elnikov V. Cryptography from papyrus to computer. M.: ABF, 1997. — 336s.
2. Zubanov F. WINDOWS NT-choice "pro". — M.: Publishing department "Russian Redaxia" LLP "Chanel Trading Ltd.", 1996.
3. Barichev S. Cryptography without secrets. M.: "DIALOG-MEPHI", — 1995.
4. Bobojonov A.B. Methodological aspects of business development of information products and services in Uzbekistan., TSU T: 2018 T: 2018

5. Odilov Sh.G . Mechanisms for improving the company's logistics processes on the basis of information and communication technologies., TDIU T: 2019
6. Kenjabaev A.T. Problems of formation of the national system of informatization in business activity., Tashkent: TSU, 2005-41p.
7. Samoilov Alexey Mikhailovich. Electronic commerce in the modern business system: Moscow 2004 164 pp. RSL OD, 61 04-8 / 3514
8. Melnik Ivan Olegovich. Development of methods for constructing integrated information systems for electronic commerce Moscow2007 specialty of the Higher Attestation Commission of the Russian Federation.
9. Chechenov Muslim Khuseynovich., Development of electronic commerce in Russia Moscow 2002 Code of the Higher Attestation Commission of the Russian Federation
10. Рута Бендере, гл. ред. Управление твёрдыми бытовыми отходами. — НРЖ, 2008. — 97 с.
11. Гринин А.С., Новиков В.Н. Промышленные и бытовые отходы. — ФАИР-ПРЕСС, 2002. — 336 с.
12. Stefan Greil Chrestian Schwarz Stefan Stein., “Fairness and the Arm’s Length Principle in a Digital Economy ” Forschungsberichte des Fachbereichs Wirtschaftswissenschaften der Hochschule Dusseldorf Ausgabe 42 (2018) ISSN:2365-3361 Posted: 26 Jul 2018.
13. M.S.Sandeep., M.N.Ravishankar. “Socioncultural transitions and developmental impacts in the digital economy of impact sourcing” Information systems journal May 2017.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQAMLI MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mirzajonov Xusniddin Xabibullo o'g'li
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining raqamli marketing faoliyati va uning samaradorligini aniqlashga bo'lgan yondashuvlar taklif etilgan. Kichik biznes subyektlarining raqamli marketing faoliyatini tahlil qilish bo'yicha ilmiy manbalarda keltirilgan usullar tanqidiy tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlarining internetda marketing kommunikatsiyalari samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tavsiya etilgan. Kichik biznes subyektlarining raqamli marketing faoliyati samaradorligini kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya bo'yicha jamlanma baholash usuli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, marketing, raqamli marketing, kommunikatsiya, konversiya, monetizatsiya, onlayn reklama, veb-sayt, elektron pochta.

Аннотация

В данной статье предложены подходы к определению цифровой маркетинговой активности субъектов малого бизнеса и ее эффективности. Критически проанализированы представленные в научных источниках методы анализа цифровой маркетинговой деятельности субъектов малого бизнеса. Рекомендуются показатели оценки эффективности маркетинговых коммуникаций субъектов малого предпринимательства в сети Интернет. Предложен метод комплексной оценки эффективности цифровой маркетинговой деятельности субъектов малого бизнеса с точки зрения коммуникации, конверсии и монетизации.

Ключевые слова: малый бизнес, маркетинг, цифровой маркетинг, коммуникация, конверсия, монетизация, интернет-реклама, сайт, электронная почта.

Abstract

This article offers approaches to determine the digital marketing activity of small business entities and its effectiveness. The methods presented in scientific sources for the analysis of digital marketing activities of small business subjects were critically analyzed. Indicators for evaluating the effectiveness of marketing communications of small business entities on the Internet are recommended. A method of comprehensive assessment of the effectiveness of digital marketing activities of small business entities in terms of communication, conversion and monetization is proposed.

Keywords: small business, marketing, digital marketing, communication, conversion, monetization, online advertising, website, email.

KIRISH

Kichik biznes jahon iqtisodiyotining tayanchi bo'lib, bandlikning qariyb 50 foizini va biznesning 90 foizini tashkil etadi.[1] Elektron tijorat va qo'shilgan qiymat

zanjirlari bilan kichik biznes subyektlarini raqamli transformatsiyasi ularni raqobat va oʻsish imkonini oshirishning samarali vositasi sifatida mamlakatlarda daromad va bandlikni oshirishdagi asosiy vositaga aylanmoqda. Global elektron tijorat bozori bugungi kunda 3,3 trillion dollardan 2026-yilda 5,4 trillion dollargacha oʻsishini, 2022-2016-yillarda jami savdo aylanmasining 60 foizdan oshishi prognoz qilingan.[2] Mazkur holatlar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish, marketing vositalaridan foydalanish hamda mahsulotlari xalqaro platformalarga joylashtirish orqali integratsion oʻsishga erishishning strategik imkoniyatlarini belgilash muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining marketing faoliyati boʻyicha koʻplab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borgan boʻlib, soʻnggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlarini raqamli transformatsiyaga yuqori ahamiyat qaratilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining anʼanaviy marketing muammolari ham koʻplab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan koʻrib chiqilgan. Jumladan, rus olimlaridan R.R. Sidorchuk[3], I.A. Adamchuk[4], I.V. Alekseeva va E.A. Ionkina[5], T. A. Glinova[6] hamda mahalliy olimlaridan A.A. Djalilov[7], B.A. Xalbaev, D.A. Yuldasheva[8], D. Turgunov, I. Bakieva [9], N. Nosirova[10], M. Hakimova[11], va boshqalar shular jumlasidandir.

Kichik biznes subyektlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va marketing faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, R.M. Skobelev marketing tadqiqotlari, internetda mavjudligi strategiyasini ishlab chiqish, maʼlumotlar bazasini loyihalash, marketing faoliyati uchun vositalarni tanlash, voqealarni tahlil qilish va sozlash kabi funksiyalarni oʻzida birlashtirgan kichik tashkilotlarning marketing qarorlarini qabul qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi algoritmini taklif qiladi[12]. A.A Shapkin tadbirkor — egasini kichik korxonaning eng malakali xodimi deb hisoblaydi, u ikki sohada eng yuqori sifatli maʼlumotga ega: bozor va isteʼmol talabini bilish[13]. P.E. Jukovning fikricha, kichik korxonalarining maʼlum marketing funksiyalarini sotuvchilar va xaridorlarning oʻzaro munosabatlari uchun muhitni taʼminlovchi agregator savdo maydonchasi bajarishi mumkin[14].

K.V. Malyavko biznes jarayonlarini axborotlashtirish asosida kichik korxonalar rivojlanishini boshqarishni koʻrib chiqdi va axborot texnologiyalarini kichik korxonalarining marketing biznes jarayonlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy vositasi — reklama va sotish deb ataydi[15].

A. Bobojonovning[16] tadqiqotlarida raqamli marketing xizmatlari axborot mahsulotlari va xizmatlari sifatida, xususan, maʼlumotlar intellektual tizimi hamda undan korxonalar foydalanishning turli jihatlari va ularni sotishdan olinadigan foydani maksimalashtirish jarayonlari tahlil qilingan.

Sh.A. Begmatov[17] tomonidan Oʻzbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish uchun Internet tarmogʻidan toʻlaqonli foydalanish imkoniyati yaratib berilishi boʻyicha takliflar ilgari surilgan. Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari

faoliyatida Internet-marketing tizimidan samarali foydalanish mexanizmi taklif etilgan.

Yuqoridagilar bilan birga korxonalarining raqamli marketing va internet marketing faoliyatini samaradorligini baholash masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganiladi va asosiy e‘tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratiladi: kommunikatsion faoliyat samaradorligi, munosabatlar samaradorligi, konvertatsiya qilish jarayonlari, WOM samaradorligi va boshqalar. Moliyaviy, kadrlar va malaka cheklovlari bilan tavsiflanadigan kichik biznes korxonalarida internet-marketing strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish barcha korxonalarining muhim funksional yo‘nalishi sifatida belgilanadi. Raqamli marketing samaradorligini baholashga yondashuvlar ko‘p va ularni tizimlashtirish maqsadga muvofiq, ular: kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya jarayonlari nuqtayi nazaridan o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

METODOLOGIYA

Korxonalarining raqamli marketing faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha bir qator platformalar ham mavjudki, ular zamonaviy tadqiqot usullariga asoslangan holda mijozlar bilan ishlash, raqobatchilar bilan taqqoslash va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha to‘liq axborotlarni taqdim etadi. Masalan, “Yandex.Metrika” hamda “Google Analytics” kabilar shular jumlasidandir.

Ma‘lumki, kichik biznes subyektlari, asosan, tor ixtisoslashuvga va cheklangan bozor imkoniyatlariga ega hisoblanadi. Shunga asosiy kichik korxonalarining raqamli marketing faoliyatini joriy etilgan marketing texnologiyalari asosida tashrif buyuruvchilar soni va narxi, sahifalar ochish harakatlari (veb-saytlar), maqsadli so‘rovlar (ilovalar), buyurtmalar, savdo va boshqalar kabi bir qator asosiy ko‘rsatkichlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq.

Raqamli marketing faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Komarov V.M. tadqiqotlarida Internet-reklama samaradorligini baholash bo‘yicha metodologik yondashuvni taklif etadi.[18] S.A.Mixalev esa reklama xabarining samaradorligi mezoni, ya‘ni reklama kampaniyasi – CTR (click-through rate) ko‘rsatkichi va PD “harakat-bosish” asosida aniqlash yo‘nalishini taklif etadi.

Internetda reklama kampaniyasining samaradorligini baholash g‘oyalari M.V. Zaxarovaning ishida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda reklama kampaniyasini baholashning narx modellari taklif etiladi. Korxonalarining internet marketing faoliyati samaradorligi kommunikativ samaradorlik bilan bog‘liq bo‘lib, muallif tomonidan baholash ko‘rsatkichlarining to‘rt turini ajratishadi (1-jadval).

V. M. Komarov onlayn reklama samaradorligini baholash formulasini taklif qiladi[20]:

$$Ep = F_1(Nmd, Nfd, Nmk, Nfk) - F_2(Me, Mr), (1)$$

bu yerda,

Ep — onlayn reklama samaradorligini baholash;

F_1 — tashkilotning daromadini ifodalovchi funksiya;

Nmd — asosiy ehtiyojlar asosida joylashtirilgan reklama xabarlar soni;

Nfd — asosiy ehtiyojlar asosida yuborilgan xabarlar javoblar soni;

Nmk — tegishli ehtiyojlarni hisobga olgan holda joylashtirilgan reklama xabarlar soni;

Nfk — tegishli ehtiyojlarni hisobga olgan holda yuborilgan xabarlar javoblar soni;

F_2 — korxonaning joriy xarajatlarini aks ettiruvchi funksiya; Me — kirish xarajatlari;

Mr — ishlab chiqish xarajatlari.

1-jadval

Internetda marketing kommunikatsiyalari samaradorligini baholash ko'rsatkichlari[19]

| Ko'rsatkichlar | Hisoblash formulasi | Shartli belgilar | Xususiyatlari |
|---|---|---|---|
| Veb-sayt trafigini o'zgartirish | $\Delta N = N2 - N1$ | $N1$ -joriy hisobot davridagi saytga tashrif buyuruvchilar soni; $N2$ — oldingi hisobot davridagi saytga tashrif buyuruvchilar soni | Indikativ ko'rsatkich. Kamaytirish maqsadli auditoriya bilan aloqaning pasayishini bildiradi. |
| Internet-resurslarini targ'ib qilish samaradorligi | $K_i = \frac{\Delta N}{S_{np}}$ | ΔN -davr uchun sayt trafigining o'zgarishi; S_{np} -ma'lum davrda saytni reklama qilish xarajatlari miqdori | Saytni reklama qilish orqali yordamni olish |
| Foydalanuvchini jalb qilish xarajatlari miqdori | $K_2 = \frac{S_{np}}{\Delta N}$ | ΔN -davr uchun sayt trafigining o'zgarishi; S_{np} -ma'lum davrda saytni reklama qilish xarajatlari miqdori | Teskari indikator. Bitta foydalanuvchini jalb qilish narxini tavsiflaydi |
| Pochta ro'yxatlarida reklama samaradorligini baholash | $K_2 = \frac{\mathfrak{z}_{cnp}}{\mathfrak{z}_{cnp}}$ | \mathfrak{z}_{cnp} -pochta xabarlarini oluvchilarga xatlarda reklama orqali olingan korxon mahsulotlarini sotishdan olingan daromad; \mathfrak{z}_{cnp} -pochta xarajatlari | Elektron pochtni tarqatish samaradorligini tavsiflaydi |

Veb-saytga tashrif buyuruvchilarni xaridorga aylantirish jarayoni deb hisoblangan internet-trafikni konversiya qilish bo'yicha samaradorlikni baholash M.I. Ukolov[21] tadqiqotlarida ko'rib chiqiladi va quyidagi formulani taklif etadi:

$$C_i = f(C_{ext,i}, C_{int})(2)$$

Bu yerda,

C_i — i -maydonning umumiy trafik konversiya tezligi,

$C_{ext,i}$ - i -maydon trafigining tashqi konversiya tezligi,

C_{int} — saytning ichki konversiya tezligi — ichki samaradorlik funksiyasi, internet-saytning trafikni haqiqiy mijozlarga aylantirish uchun funksional qobiliyatining miqdoriy ifodasi.

Texnik nuqtayi nazardan, "Internet-trafik" tushunchasi ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish uchun tarmoqdagi axborot oqimi sifatida ta'riflanadi. Internet-trafikning

marketing ma'nosi Internetdagi maqsadli auditoriya birliklarining maksimal soni sifatida aniqlanadi[22].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rib o'tilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, raqamli marketing faoliyati samaradorligini baholash uchun uch turdagi jarayonlar ko'rib chiqilishi lozim, ular: kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya jarayonlaridir.

Internet-marketingning iqtisodiy samaradorligini baholash (monetizatsiya) jarayonlarida taqdim etilgan ma'lumotlar shaklida o'zgartirish natijasida shakllanadi. Bu M.I. Ukolov tomonidan taqdim etilgan C_i konversiya formulasini to'ldirishga imkon beradi:

$$C_i = f(C_{ext,i}, (C_c + C_s), C_{int}(C_m)).(3)$$

bu yerda,

C_i -umumiy konversiya;

$C_{ext,i}$ -tashqi konversiya;

C_{int} -ichki konversiya;

C_c -reklama tizimlarida internet-marketingning axborot-kommunikatsiya oqimining o'zgarishini aks ettiruvchi kommunikatsiya manbasini konversiya qilishning kommunikativ komponenti;

C_s -saytni konversiya qilishning aloqa komponenti, saytning qo'nish sahifalarida internet-marketingning axborot-kommunikatsiya oqimining o'zgarishini aks ettiradi;

C_m -bu tashkilotning biznes jarayonlarida Internet-marketingning axborot-moliyaviy oqimining o'zgarishini aks ettiruvchi konversiyaning monetizatsiya komponentidan iboratdir.

Shunday qilib, T. V. Deynekin[23], L. M. Kapustina va I. D. Mosunov[24], A.Yu. Muzyka[25], shuningdek, xorijiy internet-marketing amaliyotchilari J. R. Saura, P. P. Sanches va L. M. Serda-Suares[26] tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarining raqamli marketing faoliyatini baholashning quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlarni asosi qilib olish maqsadga muvofiqligini asoslaydi:

1) taassurotlar soni — reklama kommunikatsiya vositalarining umumiy soni. Har safar reklama ko'rsatilganda mijoz bilan kommunikatsiya o'rnatiladi. Ma'lumotlar manbai: standartlashtirilgan internet-marketing reklama tizimlari (Google.Adwords, "Yandeks.Direkt", Facebook.Ads, Target.Mail va boshqalar) tomonidan belgilanadi;

2) tashrif buyuruvchilar soni (reklama orqali o'tish yoki bosish) — reklama ta'siri natijasida tashkilot veb-saytiga tashrif buyurgan noyob foydalanuvchilar (taassurotlar ko'rinishidagi reklama kontaktlari);

3) CTR (click-touch-rate) — bosish tezligi, reklamalarni bosish sonining taassurotlarning umumiy soniga nisbati. Bizning fikrimizcha, bu axborot oqimini konvertatsiya qilishning birinchi ko'rsatkichidir, chunki u reklamani bosish orqali foydalanuvchilar e'tiborining qiziqishga o'tishini aks ettiradi;

4) sahifadagi maqsadli harakatlar (harakatlar) — sahifadagi maqsadli harakatlar soni (fikir shakllarida soʻrov, onlayn maslahatchi bilan bogʻlanish, aloqa maʼlumotlarini yuborish va h.k.);

5) sahifadagi maqsadli soʻrovlar (arizalar) — maqsadli auditoriya boʻlinmalarining bitimni amalga oshirishga (tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olishga) tayyorligi haqidagi xabar;

6) sotish (sales) — maqsadli auditoriya (vab-saytlarga tashrif buyuruvchilar) tomonidan korxonalarining tovarlari, ishlari va xizmatlarini sotib olish;

7) konversiya — erishilgan maqsadlar sonining tashrif buyuruvchilarning umumiy soniga nisbati. Avvalroq maʼlum boʻlganidek, konversiya tashqi va ichki turlarga boʻlinadi. Tashqi konvertatsiya Internet-marketing kommunikatsiyalarining reklama tizimlarida axborot-kommunikatsiya oqimining oʻzgarishini belgilaydi. Ichki konvertatsiya potensial mijozlarning maqsadli soʻrovlari (ilovalari) va Internet-marketingning iqtisodiy samaradorligini baholash (monetizatsiya) jarayonlarida taqdim etilgan maʼlumotlar koʻrinishida tashkilot veb-saytidagi maʼlumotlar va moliyaviy oqimlarni oʻzgartirishni belgilaydi.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan tadqiqotlar asosida kichik korxonalarda raqamli marketing samaradorligini baholash uchun 2-jadvalda koʻrsatkichlar tizimi shakllantirilgan.

2-jadval

Kichik biznes subyektlarining internet-marketing faoliyati samaradorligini baholash koʻrsatkichlari [27]

| IM texnologiyasining samaradorligi turi | IM texnologiyasi turi | | | | |
|--|--|---|--|--|--------------------------------------|
| | Aloqa | | Konversiya | Monetizatsiya | |
| | CR ni hisoblash uchun dastlabki maʼlumotlar | Tashqi CR konversiyasi | Oqim shaklini oʻzgartirish | CR ni hisoblash uchun dastlabki maʼlumotlar | Ichki CR konversiyasi |
| IM texnologiyasining samaradorligi turi (kommu-nikativ samara, birliklar.) | Reklama tizimlarida namoyishlar (<i>IMP</i> , birliklar). Oʻtish (<i>CL</i> , birliklar) | Oʻtish paytida reklama tizimlarida namoyishlar ($CR_{CL/IMP}$, %) | Internet-marketingning axborot oqimini oʻzgartirishning erishilgan bosqichlari Taassurotlar soni (<i>IMP</i>), kliklar (<i>CL</i>), harakatlar (<i>ACT</i>) soʻrovlar soni (<i>LD</i> buyurtmalar (<i>ORD</i> va savdo (<i>SL</i>)) | | |
| IM ning axborot va aloqa oqimi | Oʻtishlar (<i>CL</i> , birlik). | Sahifadagi harakatlar | Sahifadagi harakatlar | Maqsadli soʻrovlar soni (<i>LD</i> , birlik). | Buyurtmalarga maqsadli soʻrovlar |
| Konversiya samaradorligi (%) | Sahifadagi harakatlar | sahifasiga oʻtish | sahifadagi maqsadli soʻrovlar | Buyurtmalar soni (<i>ORD</i> , birlik). | soʻrovlar |
| IM ning axborot va moliyaviy oqimi | (<i>ACT</i> , birlik) | ($CR_{ACT/CL}$, %) | ($CR_{LD/ACT}$, %) | Sotishlar soni (<i>SL</i> , birlik) | Sotish uchun buyurtmalar |
| | A | | $A \rightarrow V$ | | ($CR_{SL/ORD}$, %) |
| IM texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi (iqtisodiy samara, s.) | Koʻrsatish xarajatlari (<i>CPM</i> , s.), oʻtish xarajatlari (<i>CPC</i> , s.), Harakat xarajatlari (<i>CPA</i> , s.) | | Maqsadli soʻrov narxi (<i>CPL</i> , summ) | | Buyurtma narxi (<i>CPO</i> , summ). |
| | Internet-marketing axborot oqimini oʻzgartirishning erishilgan bosqichlari narxi | | V | | Sotish narxi (<i>CPS</i> , summ) |

Kichik biznesda raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirishning asosi tashkilotning veb-saytga tashrif buyuruvchilar—maqsadli auditoriya bo'linmalarining harakatlarini hisobga olgan holda samaradorlikni baholashning xulq-atvor yondashuvi taklif etilgan

Kichik biznes korxonalarining veb-saytlari ularning raqamli marketing faoliyati uchun asosiy vosita hisoblanadi. Veb-saytni yaratish kichik korxonalar uchun o'z biznes faoliyatini mijozlarga tanitishga yordam beradi. Veb-sahifa manzilini barcha marketing vositalarida aks ettirish kerak. Bu orqali istiqboldagi mijozlar uchun biznesni tanitish va aloqaga chiqish uchun qulay vosita yaratish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, kichik biznes subyektlari uchun raqamli marketing strategiyalarining samaradorligini baholash ushbu strategiyalar o'z maqsadlariga qanchalik yaxshi erishayotganini tushunish uchun turli ko'rsatkichlar va ishlash ko'rsatkichlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Umumlashtirilgan holda quyidagi tahlil usullaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni aniqlash:
2. Veb-sayt tahlilini amalga oshirish, bunga quyidagilar kiradi:
 - Trafik ko'rsatkichlari: jami tashriflar, noyob tashrif buyuruvchilar, sahifalarni ko'rishlar, chiqish tezligi.
 - Xulq-atvor ko'rsatkichlari: o'rtacha seans davomiyligi, har bir seansdagi sahifalar, eng yaxshi ko'rsatkichli sahifalar.
 - Konversiya ko'rsatkichlari: maqsadlarning bajarilishi, konversiya stavkalari, har bir konvertatsiya narxi.
3. Ijtimoiy media ko'rsatkichlarini tahlil qilish, bunga quyidagilar kiradi:
 - Ishtirok: yoqtirishlar, ulashishlar, sharhlar.
 - Taassurotlar: kontentni ko'rgan odamlar soni.
 - Kuzatuvchilarning o'sishi: vaqt o'tishi bilan kuzatuvchilar yoki obunachilarning ko'payishi.
 - Click-through stavkalari (CTR): ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlardagi havolalarni bosish soni.
4. Elektron pochta marketingi ko'rsatkichlarini tahlil qilish, bunga quyidagilar kiradi:
 - Ochiq tariflar: Ochilgan elektron xatlar foizi.
 - Click-through stavkalari (CTR): havolalarni bosgan elektron pochta qabul qiluvchilarining ulushi.
 - Obunani bekor qilish tariflari: pochta ro'yxatidan voz kechgan oluvchilar foizi.
 - Konversiya stavkalari: Istalgan amalni bajargan elektron pochta qabul qiluvchilarining ulushi.
5. Pulli reklama faoliyati va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, bu quyidagi ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi:
 - Klik boshiga xarajat (CPC): reklamaga har bir bosish uchun to'lanadigan miqdor.

- Har bir sotib olish narxi (CPA): mijozni pulli reklama orqali sotib olish narxi.
- Reklamaga sarflangan daromad (ROAS): reklama kampaniyalaridan olingan daromad sarflangan summaga nisbatan.
- Taassurotlar va kirish: reklamalar necha marta ko'rsatilishi va ularni ko'rgan noyob foydalanuvchilar soni.

Yuqoridagi tahlillarni amalga oshirish uchun asosiy vositalar vava platformalar sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

Google Analytics: Veb-sayt trafigini va xatti-harakatlarini tahlil qilish uchun.

Social Media Analytics Tools: mahalliy tahlillar (Facebook Insights, Twitter Analytics, LinkedIn Analytics) yoki uchinchi tomon vositalari (Hootsuite, Buffer, Sprout Social).

Elektron pochta marketingi platformalari: mailchimp, doimiy aloqa, HubSpot.

Reklama platformalari: Google Ads, Facebook reklama menejeri, LinkedIn Kompaniya menejeri.

Keltirib o'tilgan tahlil usullaridan foydalanish kichik biznes subyektlarining raqamli marketing va onlayn faoliyatlarini samaradorligini o'lchashga xizmat qiladi. Mazkur baholash usullari orqali kichik biznes sub'ektlari o'zlarining raqamli marketing strategiyalari samaradorligini baholashlari va ularning samaradorligini oshirish uchun ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://blogs.worldbank.org/psd/boosting-small-businesses-through-e-commerce-and-integration-value-chains>
2. Trade finance for SMEs in the digital era. OECD SME and Entrepreneurship Papers No. 24
3. Сидорчук Р.Р. Задачи, проблемы и барьеры малого предпринимательства в процессе модернизации Российской экономики // Креативная экономика. – 2012. – № 5. – С. 96–101.
4. Адамчук И.А. Роль маркетинга в малом бизнесе // Территория науки. – 2014. – № 5. – С. 78–84.
5. Алексеева С.Г., Ионкина Е. А. Взаимодействие органов местного самоуправления с малым бизнесом // Системные технологии. – 2017. – № 24. – С. 43–46.
6. Глинова Т.А. Проблемы развития малого бизнеса в России // Концепт. – 2015. – № 8. – URL: <https://e-koncept.ru/2015/15266.htm>.
7. Джалилов А.А. Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий шакллари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2016. – №. 9. – С. 35-40.
8. Xalbaev B.A., Yuldasheva D. A. Biznes rivojida marketing vositalari o'rni //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 761-765.
9. Тургунов Д. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари //Архив научных исследований. – 2020

10. Nosirova N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 5. – b. 309-315.

11. Hakimova M. Kichik biznes faoliyatida zamonaviy marketing dasturlaridan foydalanish // Arxiv nauchnix issledovaniy. – 2020. – №. 30.

12. Скобелев Р.М. Повышение эффективности деятельности предприятия малого бизнеса с использованием маркетинговых инноваций: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2009. – 18 с.

13. Шапкин А.А. Развитие маркетинговой деятельности хозяйствующих субъектов малого предпринимательства на продовольственном рынке: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 – СПб., 2009. – С. 8.

14. Жуков П.Е. Оценка эффективности электронных торговых площадок B2B для стимулирования малых и средних предприятий и международной торговли // Вестник Евразийской науки. – 2019. – № 3. – URL: <https://esj.today/PDF/68ECVN319.pdf>.

15. Малявко К.В. Управление развитием малого и среднего предпринимательства на основе информатизации бизнес-процессов: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – Ставрополь, 2010. – 22 с.

16. Bobojonov A. Axborot maxsulotlari va raqamli marketing xizmatlari bozorining rivojlanish tendentsiyalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №. 2. – S. 226-235.

17. Begmatov S. Internet–marketing kichik biznes subyektlarini rivojlantirish omili sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2016. – №. 6. – S. 355-360.

18. Комаров В.М. Совершенствование интернет-рекламы в системе маркетинговых коммуникаций: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2003. – С. 16–17.

19. Захарова М.В. Повышение конкурентоспособности торгового предприятия на основе использования маркетинговых интернет-услуг: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2005. – С. 17

20. Песиков С. Г. Интернет-реклама как метод управления промышленным предприятием: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2006. – С. 20–22

21. Уколов М.И. Организация рекламной кампании крупных сетевых интернет-ритейлеро: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2007. – С. 19–21.

22. Мордовин А.В. Глущенко М.С. Рекламный трафик в интернете: проблемы оценки эффективности // Таврический научный обозреватель. – 2015. – № 4-1. – С. 68.

23. Дейнекин Т.В. Оценка эффективности предпринимательской деятельности в сфере интернет-рекламы: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2003. – 32 с.

24. Капустина Л. М., Мосунов И. Д. Интернет-маркетинг. Теория и практика продвижения бренда в сети: монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2015. – 102 с.

25. Музыка А. Ю. Повышение эффективности интернет-рекламы в системе электронной торговли: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2015. – 23 с.

26. Saura J. R., Palos-Sanchez P., Cerda-Cuarez L. M. Understanding the Digital Marketing Environment with KPIs and Web Analytics // Future Internet. – 2017. – Vol. 9, no. 76. – P. 1–13.

27. Капустина Л. М., Мосунов И. Д. Интернет-маркетинг. Теория и практика продвижения бренда в сети: монография. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. экон. ун-та, 2015. – 102 с.

BANKLARDA YUZAGA KELADIGAN RISKLARNING TURLARI VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, mustaqil tadqiqotchi (PhD).
ORCID: 0009-0006-3233-3602

Annotatsiya

Maqolada risklarning mohiyati, tijorat banklarida yuzaga keladigan risklar va ularning turlari keltirilgan. Shuningdek, banklarda yuzaga keladigan eng asosiy risklardan biri bo'lgan kredit riski atroflicha yoritilgan hamda kredit risklarni baholash va boshqarish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha tahlillari amalga oshirilgan va ularning risklarga ta'siri o'rganilgan. Kredit risklarini kamaytirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: risk, kredit risklar, bozor risklari, foiz risklari, valyuta risklari, likvidlik riski, operatsion risklar, risk menejment, risklarni baholash va boshqarish, kreditlar, depozitlar, muammoli kreditlar.

Аннотация

В статье представлена сущность рисков, риски, возникающие в коммерческих банках, и их виды. Также подробно освещен кредитный риск, который является одним из основных рисков, возникающих в банках, и даны соответствующие предложения и рекомендации по оценке и управлению кредитными рисками. Проведен анализ кредитных вложений коммерческих банков по секторам и изучено их влияние на риски. Даны предложения и рекомендации по снижению кредитных рисков.

Ключевые слова: риск, кредитные риски, рыночные риски, процентные риски, валютные риски, риск ликвидности, операционные риски, управление рисками, оценка и управление рисками, кредиты, депозиты, проблемные кредиты.

Abstract

The article presents the nature of risks, risks that occur in commercial banks and their types. Also, the credit risk, which is one of the main risks that arise in banks, is covered in detail, and the relevant suggestions and recommendations for the evaluation and management of credit risks are given. Analyzes of credit investments of commercial banks by sector were carried out and their impact on risks was studied. Proposals and recommendations are given to reduce credit risks.

Keywords: risk, credit risks, market risks, interest risks, currency risks, liquidity risk, operational risks, risk management, risk assessment and management, loans, deposits, problem loans.

KIRISH

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O‘zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi [1].

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi [2] sohada bir qancha muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Bu esa banklarda risklarni baholash va boshqarish maqsadida nazariy hamda amaliy ahamiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Next, let's explore the relationship between Tourism Employment and the Tourism Contribution to GDP.

$$\text{Tourism Contribution to GDP} = \beta_0 + \beta_1 * \text{Tourism Employment} + \varepsilon$$

Regression results:

Intercept (β_0) = 1.0%

Slope Coefficient (β_1) = 0.6%

R-squared = 0.994

The exceptionally high R-squared of 0.994 suggests that 99.4% of the variation in Tourism Contribution to GDP can be explained by the variation in Tourism Employment. The slope coefficient of 0.6% indicates that for every 1 unit increase in Tourism Employment, the Tourism Contribution to GDP increases by 0.6 percentage points.

This strong positive correlation highlights the significant role that the tourism industry plays in driving economic growth and employment in the region.

While the sample size is limited, these regression analyses provide valuable insights into the interrelationships between the key tourism metrics. As more data becomes available, we can further refine and expand the econometric modeling to gain a deeper understanding of the dynamics within the tourism sector.

ECONOMIC INDICATORS

The development of tourism in Karakalpakistan has positively impacted several economic indicators:

Employment: The tourism sector has created approximately 5,000 new jobs in the region, ranging from hospitality and transportation to tour guides and local crafts.

GDP Contribution: The contribution of tourism to the regional GDP has increased from 2.5% in 2020 to 4.2% in 2023.

Infrastructure Development: Significant investments have been made in improving infrastructure, including the renovation of Nukus Airport, road enhancements, and the development of new hotels and recreational facilities.

Social and Cultural Impacts

Community Empowerment: Tourism has facilitated local entrepreneurship, with small businesses and artisans benefiting from increased tourist spending.

Cultural Preservation: Efforts have been made to promote and preserve Karakalpakistan's cultural heritage through museums, festivals, and educational programs.

The findings suggest that tourism development in Karakalpakistan can serve as a significant economic driver. The increase in tourist arrivals has spurred job creation and contributed to GDP growth. Moreover, infrastructure improvements not only facilitate tourism but also benefit local residents, enhancing overall quality of life.

Despite the positive impacts, several challenges need to be addressed to sustain tourism growth:

Environmental Concerns: The Aral Sea disaster remains a critical environmental issue, necessitating sustainable tourism practices to mitigate further ecological damage.

Cultural Preservation: Balancing tourism growth with the preservation of Karakalpakistan's unique cultural heritage is essential to maintain the authenticity of the tourist experience.

Investment and Policy Support: Continued government support and private investment are crucial for the long-term success of tourism in the region.

Strategies for Sustainable Tourism

1. **Environmental Sustainability:** Implement eco-tourism practices to protect natural resources and promote environmental awareness among tourists.
2. **Cultural Sensitivity:** Develop tourism products that respect and preserve local traditions and heritage.
3. **Infrastructure Development:** Continue investing in transportation, accommodation, and amenities to enhance the tourist experience.
4. **Community Engagement:** Involve local communities in tourism planning and decision-making processes to ensure that benefits are widely shared.
5. **Marketing and Promotion:** Strengthen marketing efforts to attract more international tourists, highlighting Karakalpakistan's unique attractions.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS:

Developing tourism in Karakalpakistan has the potential to significantly boost the economy of Uzbekistan, as evidenced by the positive trends in employment, GDP contribution, and infrastructure development observed in the data. This aligns with the strategic vision outlined by President Shavkat Mirziyoyev, who has placed a strong emphasis on the tourism sector as a key driver of economic growth and diversification for Uzbekistan.

In his official speech at the 2022 Uzbekistan Tourism Development Strategy conference, President Sh. Mirziyoyev highlighted Karakalpakistan as a region with immense untapped potential for tourism. He noted that the unique natural landscapes, cultural heritage, and ecological diversity of Karakalpakistan provide an opportunity to attract both domestic and international visitors, while also creating new jobs and contributing to the overall economic development of the country.

To realize this potential, the Uzbek government has implemented a comprehensive tourism development strategy for Karakalpakistan, which includes:

Infrastructure Investments: Significant investments are being made to improve transportation links, build modern hotels and hospitality facilities, and develop tourism-related infrastructure in the region.

Promotion and Marketing: Extensive marketing campaigns are being launched to raise awareness of Karakalpakistan's tourist attractions, both domestically and globally, in order to attract a larger share of the international tourism market.

Sustainable and Eco-Tourism: The government is prioritizing the development of sustainable and eco-tourism initiatives, focusing on the preservation of the region's unique natural and cultural heritage, while also providing economic opportunities for local communities.

Regulatory Reforms: The government has streamlined visa procedures and introduced other regulatory changes to make it easier for international visitors to travel to Karakalpakistan and explore its wonders.

By addressing the environmental and cultural challenges through these sustainable practices, the tourism development in Karakalpakistan aims to ensure that

the economic benefits flow not only to the country as a whole but also to the local communities, ultimately leading to inclusive and equitable growth.

Overall, the data-driven analysis, combined with the strategic vision and initiatives outlined by the Uzbek government, paints a promising future for the tourism industry in Karakalpakistan, with the potential to significantly contribute to the economic prosperity of the region and the country.

REFERENCES

1. State Committee for Tourism Development of Uzbekistan. (2023). Tourism Statistics Report.
2. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update.
3. Local Government Reports. (2023). Karakalpakistan Infrastructure Development Plan.
4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2023). Sustainable Tourism Development Guidelines.
5. Karakalpakstan Regional Government. (2023). Tourism Development Strategy.

CHAKANA SAVDO XIZMATLARIDA MARKETING INNOVATSIYALARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHLTLARI

Karimov Baxrom Ixomjonovich

TDIU Marketing kafedrası mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada chakana savdo xizmatlari bozoridagi soʻnggi marketing innovatsiyalari va rivojlanish tendensiyalarining nazariy jihatlari oʻrganilgan. Chakana savdo tarmoqlarida qoʻllaniladigan marketing innovatsiyalari tizimlashtirilgan va asosiy yoʻnalishlari aniqlangan. Ilmiy mushohada asosida Oʻzbekiston chakana savdo tarmoqlarida marketing innovatsiyalaridan foydalanish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: chakana savdo, marketing, innovatsiya, omnichannel, shaxsiylashtirish, kengaytirilgan haqiqat (AR), robototexnika, avtomatlashtirish, obuna xizmatlari, barqarorlik tashabbuslari.

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические аспекты последних маркетинговых инноваций и тенденций развития рынка розничных услуг. Систематизированы маркетинговые инновации, используемые в розничных торговых сетях, и определены основные направления. На основе научных наблюдений разработаны предложения и рекомендации по использованию маркетинговых инноваций в розничных торговых сетях Узбекистана.

Ключевые слова: ритейл, маркетинг, инновации, омниканальность, персонализация, дополненная реальность (AR), робототехника, автоматизация, подписные услуги, инициативы устойчивого развития.

Abstract

This article explores the theoretical aspects of the latest marketing innovations and development trends in the retail services market. Marketing innovations used in retail trade networks are systematized and the main directions are identified. Proposals and recommendations on the use of marketing innovations in the retail trade networks of Uzbekistan were developed on the basis of scientific observation.

Keywords: retail, marketing, innovation, omnichannel, personalization, augmented reality (AR), robotics, automation, subscription services, sustainability initiatives.

KIRISH

Chakana savdo milliy iqtisodiyotning muhim tarmogʻi hisoblanganligi uchun mazkur tarmoq muntazam ravishda rivojlanishga va innovatsion oʻzgarishlarga muhtoj. Savdoda innovatsiyalar — bu tashkiliy-iqtisodiy xususiyatga ega boʻlgan va chakana savdo korxonalarini faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar koʻrinishidagi innovatsiyalardan samarali foydalanishni anglatadi.

O‘zbekistonda aholining xarid qobiliyati va turmush darajasi, xizmatlardan foydalanish xulq-avtoriy yuqori darajada o‘shib bormoqda. Bunday sharoitda savdo korxonalari xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib, xaridorning doimiy mijoziga aylanishi uchun doimiy ravishda harakat qilishi talab etiladi. Bu savdo biznesida doimiy ravishda innovatsiyalarni talab qiladi. Innovatsiyalarni joriy etish uchun katta moliyaviy investitsiyalar talab etiladi. Katta moliyaviy investitsiyalarning maqsadi asosan bozorda yetakchilikni ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashdir. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, tovar-moddiy boyliklarni va tovar yetkazib berishni yanada samarali boshqarishga xizmat qiladi. Biroq, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, birinchi navbatda, chakana savdoni innovatsion rivojlantirish tamoyillariga bog‘liq. Shuning uchun ham savdo biznesida innovatsion rivojlantirish tamoyillarini o‘rganish va ko‘rib chiqish zaruriyati mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda barqaror o‘shishga yo‘naltirilgan chakana savdoni tarmoqlarining innovatsion yo‘liga o‘tishning eng muhim shart-sharoitlari quyidagilardan iborat: berilgan o‘shish sur‘atlariga erishish imkoniyati; kerakli foyda stavkasini olish imkoniyati; savdo korxonalari uchun bozor ulushini olish imkoniyatlari.[1]

Shuni ta‘kidlash kerakki, "chakana savdodagi barcha innovatsiyalar birinchi navbatda AQSh, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya va Xitoy kabi chakana savdo rivojlangan mamlakatlarda paydo bo‘lgan.[2] Biroq sharqona savdo va uning o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalari ham mavjudki, bu chakana savdoning O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatini ham hisobga olishni talab etadi.

Bilimlarning globallashuvi bilan raqobat kuchayib bormoqda, iste‘molchilarning ehtiyojlari ortib bormoqda — bularning barchasi savdo korxonalari qiyofasini tubdan o‘zgartira oladigan innovatsion texnologiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadlarida qo‘llanilayotgan chakana savdodagi ko‘plab innovatsiyalar esa barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelmasligi sababli innovatsion faoliyatni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda.

Dunyodagi eng zo‘r “Ford” va “Kraysler” kompaniyalarining menejeri o‘z davrida shon-shuxrati bo‘yicha Amerika Prezidenti Ronal’d Reygendan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan Li Yakokka ham o‘z faoliyatini oziq-ovqat savdosida boshlagan.[3] Demak, savdo biznes faoliyatlari ichida markaziy o‘rinni egallashi tarixdan ma‘lum bo‘lib, hozirgi zamonda mazkur soha yangidan yangi ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishga asos bo‘lmoqda. Natijada oddiy savdo-sotiq jarayoni XXI asrga kelib, ishlab chiqarishni bozorga yo‘naltirish g‘oyasi, mahsulotni taqsimlanishi, iste‘molchiga yetkazilishi, sotilishi iste‘mol qilish davridagi servis jarayonlari hamda yangi iste‘molchini yaratish bilan bog‘liq bozor-marketing faoliyatiga aylandi. Mazkur jarayon ilmiy-texnika progressi va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo mamlakatlari ichida eng rivojlangan hamda yangi kichik industrial davlatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq. Jahon bozorlarida raqobat kurashini keskinlashuvi transmilliy korporatsiyalarni shakllanishiga, chetga kapital eksport qilishning

kuchayishiga va oxir-oqibatda jahon xo'jaligini baynalminallashuvi va globallashuviga olib kelmoqda. Bundan jarayonlarda korxonalarining raqobatda omon qolishi va bozor faoliyatlarining samarali amal qilish mexanizmlari nafaqat ularning raqobatlashish qobiliyatiga, balki iste'molchilar muammolarini tezkor va samaraliroq yechishga harakat qilishini talab etmoqda. Bunday holatda har qanday biznes uchun eng maqsadga muvofiq yo'nalishlarni marketing va innovatsiyalar ta'minlab bermoqda.

Innovatsiyalar, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, keyingi navbatda innovatsion mahsulotlarga qaratiladi. Ko'plab tadqiqotlarda bu ikki innovatsiyalar bilan birga tashkiliy va boshqarish bilan bog'liq innovatsiyalar ham ajratilib ko'rsatiladi[4]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda marketing innovatsiyalari va innovatsion marketing strategiyalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, innovatsion marketing bo'yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universitet olimlari ilk o'quv qo'llanmalar nashr etgan. Mazkur darslikda innovatsion marketingning mohiyati va mazmuni bo'yicha umumlashtirilgan yangi ilmiy-nazariy bilimlar, uslubiy tavsiyalar, innovatsion turlari hamda uni korxonalar faoliyatiga tatbiq etish yo'llari va usullari, innovatsion marketingni rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari aks ettirilgan[5].

Mahalliy olimlar tomonidan innovatsion marketing strategiyalaridan korxonalar amaliyotida foydalanishning ilmiy va amaliy muammolariga bag'ishlangan dissertatsiyalar 2015-yildan keyingi davrlarda himoya qilina boshlangan. Jumladan, O'zbekiston avtomobil transporti tizimida innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar A.J. Qaxxorov tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda innovatsiyalarni bozorga kiritish strategiyasini ishlab chiqish va yangi mahsulotni bozorda mustahkam o'rin egallashini ta'minlash hisoblanib, korxonalarining an'anaviy marketingdan farqli ravishda innovatsion marketingning vositalari asosida bozorini tadqiq etish, kuzatish, konyunkturasini tahlil qilish, talabni shakllantirish, iste'molchilar xulq-atvori bo'yicha bozor segmentlarini ishlab chiqish faoliyatlari sifatida qaralgan.[6] Keyingi dissertatsion tadqiqot T.A. Akramov tomonidan olib borilgan bo'lib, innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish asosida avtomobil sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.[7]

Sharipov K., Shokamolov Sh.lar tomonidan avtosanoat korxonalarida innovatsion marketing tizimidan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq takliflar, yo'nalishlar belgilab berilgan hamda avtosanoat korxonalari innovatsion faoliyatini tashkil etishning umumiy metodikasi taklif etilgan.[8] Maraimova U.I. tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.[9]

Umuman olganda, marketing innovatsiyalari keng doirada tadqiq etilishi lozim bo'lgan ko'p tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish asosiy masalalar qatorida turibdi. Ushbu konseptual yondashuvlar innovatsion marketingni keng qamrovda tahlil qilish va uni marketingni alohida sohasi sifatida o'rganishning dolzarbligini belgilab berish bilan bir qatorda, iqtisodiyotning sohalari, ayniqsa, savdo uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada chakana savdo xizmatlarida marketing innovatsiyalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribalardagi eng asosiy tendensiyalar aniqlanadi. Chakana savdo tarmoqlarini barqaror rivojlanish maqsadlarida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar xalqaro ilmiy tadqiqotlar va eng yirik chakana savdo tarmoqlari tajribalaridan kelib chiqqan holda tizimlashtirish amalga oshiriladi. Umuman olganda, chakana savdodagi innovatsion faoliyat mijozlar tajribasini oshirish, operatsiyalarni tartibga solish va tobora kuchayib borayotgan raqobat bozorida o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli strategiya va texnologiyalar aniqlanib, ulardan O'zbekiston chakana savdo tarmoqlarida foydalanish imkoniyatlari belgilab beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshlikni saqlab qolish, rivojlanayotgan iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va chakana savdo landshaftidagi o'zgarishlarga moslashish uchun turli innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Chakana savdo korxonalarini tomonidan keng tarqalgan innovatsion faoliyatlar quyidagilardir:

Omnichannel (ko'pkanalli) chakana savdo: Chakana sotuvchilar tobora ko'proq oziq-ovqat va nooziq-ovqat do'konlari, elektron tijorat platformalari, mobil ilovalar, ijtimoiy media va boshqalar kabi turli savdo kanallarini birlashtirgan ko'pkanalli strategiyalardan foydalanmoqda. Ushbu yondashuv mijozlarga bir nechta aloqa nuqtalarida uzluksiz xarid qilish tajribasini taqdim etadi.

Shaxsiylashtirish: Chakana sotuvchilar xarid qilish tajribasini shaxsiylashtirish uchun ma'lumotlar tahlili va mijozlar tushunchasidan foydalanadilar. Bunga shaxsiy imtiyozlar va xaridlar tarixi asosida moslashtirilgan mahsulot tavsiyalari, maqsadli marketing xabarlarini, moslashtirilgan aksiyalar va moslashtirilgan chegirmalar kiradi.

Bosish va yig'ish xizmatlari (Click-and-Collect Services): Ko'pgina chakana sotuvchilar bosish va yig'ish yoki do'konda onlayn xarid qilish (click-and-collect or buy-online-pick-up-in-store (BOPIS)) xizmatlarini taklif qilishadi, bu esa mijozlarga mahsulotlarni onlayn xarid qilish va ularni jismoniy do'kon joyidan olish imkonini beradi. Bu savdo shoxobchalarida mijozlar harakatiga qulaylik yaratadi.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR): Ba'zi chakana savdo shoxobchalari xarid qilish tajribasini yaxshilash uchun AR va VR texnologiyalaridan foydalanadilar. Misol uchun, AR-ni qo'llab-quvvatlaydigan ilovalar xaridorlarga kiyimni deyarli sinab ko'rish yoki mebel sotib olishdan oldin ularning uylarida qanday ko'rinishini tasavvur qilish imkonini beradi.

Zamonaviy to'lov turlari: mobil to'lov texnologiyalarining yuksalishi va gigiyena va xavfsizlikka e'tibor kuchayishi bilan ko'plab chakana sotuvchilar mobil hamyonlar, diskont kartalar va QR kodli to'lovlar kabi kontaktsiz to'lov yechimlarini joriy qilishmoqda.

Robototexnika va avtomatlashtirish: chakana sotuvchilar robototexnika va avtomatlashtirishdan o'z faoliyatining turli jihatlarida, jumladan, inventarizatsiyani boshqarish, buyurtmalarni bajarish va mijozlarga xizmat ko'rsatishda foydalanishni

o‘rganmoqdalar. Bu samaradorlikni oshirishga, mehnat xarajatlarini kamaytirishga va umumiy xarid tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

Obuna xizmatlari: ba’zi chakana sotuvchilar obunaga asoslangan xizmatlarni taklif qilishadi, bu yerda mijozlar mahsulot yoki xizmatlarni muntazam ravishda olish uchun takroriy to‘lovni to‘laydilar. Ushbu model chakana sotuvchilar va mijozlar uchun prognozni ta’minlaydi va mijozlarning sodiqligini oshiradi.

Barqarorlik tashabbuslari: ko‘pgina chakana sotuvchilar qadoqlash chiqindilarini kamaytirish, ekologik toza mahsulotlarni taklif qilish, qayta ishlash dasturlarini targ‘ib qilish va energiya tejaydigan amaliyotlarni qo‘llash kabi barqarorlik tashabbuslarini amalga oshirmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar atrof-muhitga e’tiborli iste’molchilarni jalb qiladi va brendning farqlanishiga hissa qo‘shadi.

Ijtimoiy tijorat: chakana sotuvchilar mijozlar bilan muloqot qilish, mahsulotlarni namoyish qilish va bevosita ijtimoiy media kanallarida tranzaksiyalarni osonlashtirish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalanadilar. Ijtimoiy tijorat ijtimoiy tarmoq va elektron tijorat o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotib, xaridlarni yanada interaktiv va qulay qiladi.

Tajribali chakana savdo: chakana sotuvchilar interaktiv displeylar, do‘kon ichidagi tadbirlar, qalqib chiquvchi do‘konlar tajribalari kabi elementlarni o‘z ichiga olgan holda immersiv va tajribali xarid qilish muhitini yaratadilar. Bu jismoniy do‘konlarga piyoda trafigini oshirishga yordam beradi va mijozlarga unutilmas xarid qilish tajribasini beradi.

Chakana savdoda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllarining tasnifi juda xilma-xildir. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunida innovatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linishi belgilab berilgan:

mahsulotga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;

jarayonga oid innovatsiyalar — texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta’lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek, texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar;

marketingga oid innovatsiyalar — mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o‘zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar;

tashkiliy innovatsiyalar — biznesni tashkil etish va yuritish, ish o‘rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar.[10]¹

Albatta mazkur tasnif barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida, jumladan, chakana savdo sohalarida ham qo‘llaniladi. Bunday innovatsilardan foydalanish barcha


¹ O‘zbekiston Respublikasining “innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. QHMMB: 03/20/630/1101-son 24.07.2020-y.

korxonalarda o'zining bozor imkoniyatlarini oshirish bilan birga innovatsion salohiyatini namoyon etadi.

Chakana savdo korxonasining ishlash sifati uning innovatsion rivojlanish parametrlari bilan ham o'zaro bog'liqdir. Biroq, chakana savdo korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi ko'p jihatdan ushbu korxonalarining innovatsion salohiyati darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan, doimo o'zgarib turadigan bozor muhiti sharoitida korxonaning asosiy vazifasi uning innovatsion salohiyati darajasini har tomonlama tahlil qilish va baholashdir.

Ilmiy adabiyotlarda chakana savdo korxonalarining innovatsion salohiyatini va uning tuzilishini aniqlashda ko'plab yondashuvlar mavjud. Biroq, asosiy yondashuvda esa chakana savdo korxonalarining innovatsiyalarni joriy etishga tayyorligi tushuniladi; chakana savdo korxonasi uchun innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

Chakana savdo korxonasining innovatsion salohiyati ikkita asosiy komponentdan iborat: moddiy va intellektual resurslarning innovatsion salohiyati. Moddiy resurslarga asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, chakana savdo korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati kiradi. Intellektual resurslarga boshqaruv resurslari, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari kiradi. Har bir blok o'z yo'nalishi bo'yicha taqsimlanishi mumkin. Masalan, nomoddiy aktivlarga axborot-kommunikatsiya resurslari, marketing resurslari, savdo va texnologik jarayonlar, biznes konsepsiyasi, chakana savdo korxonasining strategiyasi va imiji kiradi (1-rasm).



1-rasm. Chakana savdo korxonasining innovatsion salohiyatining asosiy komponentlari¹

Chakana savdo korxonasining intellektual salohiyati innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi va moddiy boyliklar qo'shimcha funktsiya sifatida qaralishi mumkin. Ushbu qoidaga ko'ra, chakana savdo korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish faqat uning barcha bo'linmalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi kerak.

¹ Muallif ishlanmasi

Umuman olganda chakana savdo korxonalarining innovatsion salohiyati uning bozorga moslashishi, unda samarali va uzoq muddat faoliyatini ta'minlovchi moddiy va nomoddiy aktivlari sifatida qarash mumkin. Biroq chakana savdo korxonasi innovatsion marketing salohiyati ham zaruriy element sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Chakana savdo korxonasi innovatsion marketing salohiyati uning xaridorlarni jalb qilish, sotishni rag'batlantirish va bozorda ajralib turish uchun turli strategiyalar, texnologiyalar va yondashuvlardan kreativ tarzda foydalanish qobiliyatini tushunish maqsadga muvofiq.

Chakana savdo korxonalarining innovatsion marketing salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, marketing faoliyati va innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Har qanday korxonaning asosiy maqsadi bo'lgani kabi chakana savdo korxonalarining umumiy maqsadlari bozor faoliyatini rivojlanishini ta'minlash va ularning tovarlar va xizmatlar bozorida raqobatdosh ustunligini mustahkamlashdan iboratdir. Shuningdek chakana savdoning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

1. Tovar va xizmatlar bozorining muayyan segmentida iste'molchilarning yuqori sifatli tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq va o'z vaqtida qondirish;
2. Chakana savdo korxonalarida xizmat ko'rsatish sifati darajasini oshirish;
3. Savdo va texnologik operatsiyalarni bajarish uchun barcha resurslarning xarajatlarini kamaytirish. Ular foydani ko'paytirish va undan samarali foydalanishga hissa qo'shadilar;
4. Savdo faoliyati bilan bog'liq biznes risklari darajasini pasaytirish.

Biroq zamonaviy sharoitda chakana savdo korxonalarini barqaror rivojlanish maqsadlari bilan faoliyat maqsadlarini uyg'unligi ta'minlanishi ham talab etilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlillar asosida chakana savdo korxonasi barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish asosiy amaliyot sifatida qaratilishi lozim. Chakana savdo korxonasi barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan innovatsion marketing strategiyalarining asosiy komponentlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Yashil mahsulot takliflari: marketing kampaniyalarida organik, adolatli savdo, qayta ishlangan yoki mahalliy manbalar kabi ekologik toza mahsulotlarni ta'kidlash. Bu iste'molchilarni ushbu mahsulotlarning ekologik foydalari va ularning barqarorlik maqsadlariga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berishni o'z ichiga oladi.

2. Shaffoflik va kuzatuvchanlik: iste'molchilar bilan ishonchni mustahkamlash uchun mahsulotlarni olish, ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjiri haqida shaffof muloqot qilish. QR kodlari, blokcheyn texnologiyasi yoki mahsulotlarning kelib chiqishi va atrof-muhitga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berish uchun boshqa vositalardan foydalanish.

3. Ta'lim dasturlari: Barqarorlik muammolari haqida xabardorlikni oshirish va iste'molchilar o'rtasida ekologik toza xatti-harakatlarni targ'ib qilish uchun ta'lim marketing kompaniyalarini boshlash. Bu chiqindilarni kamaytirish, energiyani tejash

yoki barqarorroq xarid qarorlarini qabul qilish bo'yicha maslahatlar almashishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. O'zaro munosabatlar marketingi: atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlik qilish yoki marketing kampaniyalari orqali ijtimoiy sabablarni qo'llab-quvvatlash. Bu brendni iste'molchilar bilan rezonanslashadigan sabablar bilan moslashtirishni va kompaniyaning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatga sodiqligini bildirishni o'z ichiga oladi.

5. Aylanma iqtisodiyot tashabbuslari: marketing tashabbuslari orqali mahsulotni qayta ishlatish kabi aylanma iqtisodiyot tamoyillarini ilgari surish. Bu mahsulotning mustahkamligini ta'kidlash, ta'mirlash xizmatlarini taklif qilish yoki mijozlarni ishlatilgan mahsulotlarni qayta ishlash uchun qaytarishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

6. Qadoqlash bo'yicha innovatsiyalar: qadoqlash chiqindilarini kamaytirish va mahsulotni qadoqlashda ekologik toza qadoqlash materiallaridan foydalanish. Bu atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun biologik parchalanadigan materiallar, minimal qadoqlash dizayni yoki qayta ishlatiladigan qadoqlash variantlari kabi qadoqlash innovatsiyalarini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

7. Yashil marketing targ'iboti: risolalar, kataloglar va reklama materiallari kabi garovni sotish uchun barqaror materiallar va bosib chiqarish texnikasidan foydalanish. Bu an'anaviy bosma materiallarga qayta ishlangan qog'oz, soya asosidagi siyohlar yoki raqamli muqobillarni tanlashni o'z ichiga oladi.

8. Ijtimoiy jamoalar yaratish: iste'molchilarni barqarorlik tashabbuslariga jalb qilish va ishtirokni rag'batlantirish uchun onlayn platformalar yoki ijtimoiy media kompaniyalarini yaratish. Bu barqaror turmush tarzini tanlashni targ'ib qilish va iste'molchilar o'rtasida tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish uchun interaktiv viktorinalar, muammolar yoki jamoat forumlarini o'z ichiga olishi mumkin.

9. Xodimlarni himoya qilish: xodimlarga barqarorlik tashabbuslarini himoya qilish va ichki hamda tashqi aloqa kanallari orqali o'z tajribalarini baham ko'rish imkoniyatini berish. Bu xodimlarni barqarorlik amaliyotiga o'rgatish, ularning hissalarini tan olish va ularni barqarorlik uchun brend elchilari bo'lishga undashdan iborat.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini innovatsion marketing strategiyalariga integratsiyalashgan holda, chakana savdo korxonasi nafaqat atrof-muhitga e'tiborli iste'molchilarni jalb qilishi, balki bozorda raqobatdosh ustunlikni yaratish bilan birga kengroq ijtimoiy va ekologik maqsadlarga ham hissa qo'shishi mumkin.

Chakana savdodagi bunday barqarorlik tamoyillarini ilgari surish nafaqat uzoq muddat bozorda yashab qolishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy yo'naltirilgan savdo biznesini tashkil etishning ustuvor yo'nalishi ham hisoblanadi.

So'nggi yillarda tobora ko'payib borayotgan chakana sotuvchilar nafaqat obro'sini oshirish, balki ularning xabardorligini oshirish, ishonchini oshirish yoki maqsadli guruhlarning kompaniyaga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida yashil marketingga oid tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu harakatlar choralar oxir-oqibat mijozlarning chakana sotuvchilarni qanday qabul qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchilar ongida to'g'ri, ijobiy va faol imij shakllantirilgandan so'ng, ularning

sodiqiligini qozonish imkoniyati sezilarli darajada oshadi, bu esa kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga va maqsadli bozorga yaqinlashish samaradorligini oshirishga olib keladi. Oʻtkazilgan ish stoli tadqiqotlariga asoslanib, barcha chakana sotuvchilar qayta ishlashda keng ishtirok etmoqdalar, ular oziq-ovqat va nooziq-ovqat sohasida salomatlik va barqarorlik tushunchalarini tobora koʻproq qadrlashmoqda, ular qadoqlash jarayonlarini optimallashtirishga jiddiy eʼtibor qaratmoqdalar, hech boʻlmaganda, ular oʻzlarining maqsadli segmentlarini ekologik toza taʼlimga aralashishga tayyor. Joriy maqola chakana sotuvchilarning raqobatdosh ustunliklarini rivojlantirish va mustahkamlash, boshqa raqobatchilardan toʻgʻri farqlash va isteʼmolchilar ongida oʻzlarini joylashtirish uchun koʻrayotgan dolzarb chora-tadbirlarini taʼkidlab, yashil marketingning biologik xilma-xillik va atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlariga taʼsirini oʻrganishga harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Федюнин Д.В. Инновационная модель устойчивого развития розничной торговли на основе рационального ресурсобмена: дисс. .. док. экон. наук: 08.00.05 / Федюнин Дмитрий Валерьевич. - М-2014. - С. 296
2. Каскинов И. Технологии, который изменят торговлю. [Электронный ресурс]. -Режим доступа: http://www.prod-nn.ru/review_food_market/?id=12468
3. Ли Яккокка «Карьера менеджера» М. «Прогресс» 1990
4. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika klassifikatsiyasi.
5. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Дарслик. –Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. –178 бет.
6. Қаххоров А.Ж. Ўзбекистон автомобил транспорти тизимида инновацион маркетинг фаолиятини такомиллаштириш. 08.00.11 – Маркетинг (иқтисодиёт фанлари). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. ТДИУ, 2018 й. 11-бет
7. Акрамов Т.А. Автомобиль саноати корхоналарида маркетинг стратегияларини такомиллаштириш. 08.00.11 – Маркетинг (иқтисодиёт фанлари). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертациясидиссертацияси. Тошкент. ТДИУ, 2018 й. 25-бет
8. Шарипов К., Шокамолов Ш. Автосаноат корхоналарида инновацион маркетинг тизимидан фойдаланиш имкониятлари //Economics and education. – 2020. – №. 5. – С. 6-12.
9. Мараимова У. И. Инновацион маркетинг элементларини кичик бизнес экспорт амалиётида жорий этиш бўйича назарий ва методологик ёндашувлар //International scientific conferences with higher educational institutions. – 2022. – Т. 1. – №. 25.10. – С. 454-462.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. ҚХММБ: 03/20/630/1101-сон 24.07.2020 й.

KORXONALARNING BOZOR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

Musayeva Shoirazimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Marketing kafedrası professori

Email: musaeva_shoira@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalar investitsiyalarni jalb qilish bilan bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun korxonalar import tovarlari o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalar qurish, aholi uchun yangi ish o'rinlarini ochish, korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirish va strategik rivojlanishini ta'minlovchi omil, ishlab chiqarish jarayoniga yangilangan texnika va texnologiyalar joriy etish ko'rib chiqilgan.

Kalitli so'zlar: korxonalar, investitsiya, tovar, strategiya, jarayon, subyekt, infratuzilma.

Аннотация

В данной статье привлечение инвестиций на предприятия является фактором, обеспечивающим стратегическое развитие предприятий, строительство предприятий, выпускающих продукцию, замещающую импортные товары, создание новых рабочих мест для населения, расширение производства предприятий и Для стратегического развития предприятий экономики нашей страны сегодня были рассмотрены обновленные методы и технологии.

Ключевые слова: Предприятие, инвестиции, продукт, стратегия, процесс, предприятие, инфраструктура.

Abstract

In this article, attracting investments to enterprises is a factor that ensures the strategic development of enterprises, the construction of enterprises that produce products that replace imported goods, the creation of new jobs for the population, the expansion of enterprises' production and the strategic development of enterprises for the economy of our country today. updated techniques and technologies were considered for the process.

Key words: Enterprise, investment, product, strategy, process, entity, infrastructure.

KIRISH

Hozirgi kunda korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, har qanday faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi bevosita investitsiya jarayoniga bog'liqdir. Har bir ishlab chiqaruvchining rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag'larini jalb etishga qaratilishi zarurdir.

Korxonalar iqtisodiy jihatdan rivojlanishi korxonalar iqtisodiy jihatdan

yuqori rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan korxonalar uchun mamlakatning investitsion jozibadorligini tadqiq etish, investitsiya mablag'larini ichki kapital resurslar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar asosida ko'payishiga erishish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya resurslarini o'z vaqtida korxonalar iqtisodiyotiga jalb qilish imkoniyati bo'lmagan, pul mablag'lari tanqisligini mavjud bo'lgan korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha korxonalar darajasidan ancha orqaga qolib ketishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo'naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Korxonalar uchun mamlakatning investitsion jozibadorligini tadqiq etishni rivojlantirish va ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga L.P. Kurakov, M.V. Ignatev, A.V. Timiryasova, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan olda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga J. Zaynalov, YO. Abdullaev, A. Saliev, M. SHarifxo'jaev, D. Raximova, SH. Ergashxodjaeva, Sh. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin

O'zbekistonda 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" doirasida iqtisodiyotni liberallashtirish va boshqaruvda davlat aralashuvini kamaytirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilishga, investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitini yaxshilashga, bo'sh ish o'rinlarini yaratish hamda fuqarolarning moddiy farovonligining o'sishiga yo'naltirilgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Korxonalar investitsiyalarni jalb etish vositalaridan biri hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korxonalar investitsion faoliyati tahlili uzoq iqtisodiy tarixiy o'tmishga ega, ya'ni iqtisodiy fanlar tarixida ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan va o'rganilgan. Iqtisodiyot fani tarixidagi investitsiyalar va kapital qurilmalar nazariyasining ilmiy tarzda talqin etilishida siyosiy iqtisod vakillari bo'lmish A.Smit va D. Rikardo, J. Mill va "Marjinal inqilob" namoyondalaridan O.Bem-Baverk kapitalning xususiy konsepsiyasi yaratuvchilaridan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, mavhum-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlab kuzatish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish bilan bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun korxonalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim yaratib beradi:

- import tovarlari o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalarni qurish;

- aholi uchun yangi ish o'rinlarini ochish;

- korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirish va strategik rivojlanishini ta'minlovchi omil bo'lgan korxonalarining xususiy kapital hajmini oshiradi;

- korxonalarda ishlab chiqarish jarayoniga yangilangan texnika va texnologiyalar o'rnatiladi va buning natijada raqobatbardosh milliy mahsulotlar ishlab chiqariladi;

- korxonalarni xorijiy korxonalar va tashkilotlar bilan integratsiyasi amalga oshadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti darajasida yoki korxonalar iqtisodiyoti darajasida ham iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish uchun ma'lum bir chora-tadbirlarni bajarishlari zarur.

strategik istiqbolga ega bo'lgan biznes-rejaga ega bo'lishlari lozim;

ijobiy faoliyat yuritib kelayotgan bo'lishi investorlarni ishonchiga kira oladigan bo'lishi zarur;

korxonalar shaffof va ochiq faoliyat yuritishlari lozim. Buning uchun korxonalar buxgalteriya hisobi hujjatlari talab darajasida va korxonalar faoliyati bo'yicha yakuniy natijalar jamiyat a'zolariga ochiq e'lon qilinishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, investorlarning korxonalar iqtisodiyotiga kapital mablag'lari kiritishi ko'p jihatdan korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning siyosiy barqarorligi va davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatiga ham bog'liq. Investorlar korxonalariga kapital mablag'larini yo'naltirish uchun eng barqaror korxonalar faoliyatini tanlaydilar. Shuning uchun barcha korxonalar imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Xorijiy korxonalar kabi bizning mamlakatimizda ham korxonalar investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan korxonalar o'z faoliyatiga zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilish uchun mamlakatda investorlarga munosib shart-sharoitlar yaratishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

investorlar uchun mamlakatdagi siyosiy barqarorlik;

mulk to'g'risida qonunchilikning shakllanganligi;

iqtisodiyotda investitsiya jarayonlari uchun infratuzilmaning yaratilganligi;

mamlakatning qulay geografik joylashuvi;

ishlab chiqarishni rivojlantirishi va mamlakatning mineral-xomashyo resurslariga boyligi;

yuqori malakaga ega kadrlarning mavjudligi;

ichki bozorni yetarli darajada kengligi.

Investorlar uchun berilgan imtiyozlar va moliyaviy rag'batlantirishlar investitsiyaviy jozibadorlikning muhim omili hisoblanadi. Bu imkoniyatlarni

yaratilganligi esa to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasida, xususan, eksport salohiyati yuqori bo'lgan korxonalariga yo'naltirilishini ta'minlaydi.

Investitsiyalarni korxonalariga jalb qilishning muhim yo'nalishlaridan biri — mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirish hisoblanadi. Mamlakatimizda Navoiy, Jizzax, Angren, G'ijduvon, Qo'qon, Urgut, Xazorasp erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilib, ular bugungi kunda o'z faoliyatlarini samarali yuritishmoqda va ichki bozor uchun zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlab kelmoqda.

Oxirgi ikki yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kapital investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi va uning tarkibidagi o'zgarishlarga e'tiborimizni qaratsak, unda investitsiyalar hajmining keskin ortganligini va tarkibi sifat jihatidan yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

2023 yil ma'lumotlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan o'sish sur'ati 118,1 foizga ko'payib, 107333,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha olganda korxonalar va aholi mablag'lari 2018 yilda 39,3 % ni, 2017 yilda 43,9 % ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kredit mablag'lari 2022 yilda 6,5% ni, 2023 yilda 15,5 % ni tashkil etgan. Davlat byudjeti mablag'lari, korxonalar va aholi mablag'lari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'lari hajmi kamaygan bo'lsa, boshqa ko'rsatkichlar esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

1-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)

| № | Moliyalashtirish manbalari | 2022 yil | 2023 yil |
|---|--|----------|----------|
| 1 | Davlat byudjeti mablag'lari | 5,5 | 3,8 |
| 2 | Byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari | 3,9 | 5,1 |
| 3 | Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari | 0,3 | 0,3 |
| 4 | Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari | 8,5 | 7,4 |
| 5 | O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kredit mablag'lari | 6,5 | 15,5 |
| 6 | Korxonalar mablag'lari | 29,4 | 28 |
| 7 | Aholi mablag'lari | 14,5 | 11,3 |
| 8 | To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'lari | 20,4 | 13,7 |
| 9 | Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | 11,0 | 14,9 |

Aytish joizki, korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalar salmog'ining sezilarli miqdorga ega bo'lishi ijobiy holat bo'lib hisoblanadi. 2023 yil ma'lumotlariga asosan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar salmog'i YAIM ga nisbatan – 26,3 % ni tashkil etib, 2022 yilning mos davridagi ko'rsatkichiga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi. Korxonalar iqtisodiy rivojlanish borasida o'zining strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun investitsiyalar jalb qilish hajmini oshirishi lozim bo'ladi. Buning uchun, birinchidan, investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq korxonada amal qiluvchi mavjud mexanizmni takomillashtirish, ikkinchidan, korxonada mahsulot ishlab chiqarish sifati va hajmini oshirib ichki va tashqi bozorga kirib borishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘rinib turibdiki, investitsiya mablag‘larini yanada jadal jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq bosqichni bosib o‘tishni taqozo etadi, ya’ni, birmuncha vaqtni talab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridagi masalalarning ijobiy hal etilishi, korxonalar faoliyatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishiga, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga, pirovardida korxonalarning moliyaviy yuksaltirishga, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

2. Адам Смит Исследование о природе и причинах богатства народов / М.: Изд.: Эксмо, 2017 год;

3. Милл, Дж. С. Основы политической экономии и некоторые аспекты их приложения к социальной философии. Т.1/ Дж. С. Милл. - М.: Прогресс, 1980-1981. - 148 с.; Макроэкономика: учебник для вузов

4. Л.П. Кураков, М.В. Игнатов, А.В. Тимирязова и др.; под общ. ред. Л.П. Куракова. – М.: Изд-во ИАЭП, 2017. – 63 с.; Бем-Баверк, О. Основы теории ценности хозяйственных благ. Австрийская школа политической экономии / О. Бем-Баверк. — М.: Экономика, 1992.-328 с.

5. Мусаева Ш.А. Маркетинг тадқиқотлари. Дарслик «STAR-SEL» МЧЖ нашриёт ва ижодий бўлими. Самарқанд-2023

6. Мусаева Ш.А. Интеграллаштирилган маркетинг коммуникацияси ўқув қўлланма «Маҳорат» нашриёти, Самарқанд – 2022

7. Мусаева Ш.А., Усмонова Д.И. Инновацион маркетинг «TURON EDITION» 2021 йил учун ўқув қўлланма.

BOJXONA TO'LOVLARINI HISOBLASH, UNDIRISH VA DAVLAT BYUDJETIGA O'TKAZISHNING AYRIM MASALALARI

Pardayev Tulkin Nasirovich

Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi
e-mail: tulkinpardayev65@mail.ru

Farrux Furqatovich Farxodov

Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti
o'qituvchi
e-mail: farrux.farxodov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bojxona organlarining fiskal faoliyatni amalga oshirishdagi roli ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va davlat byudjetiga o'tkazish jarayonlari tahlil etilgan. Mamlakat fiskal barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlarini yanada jadallashtirish maqsadida belgilangan vazifalarni hal etishda bojxona to'lovlarini o'rni va ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, bojxona to'lovlari, bojxona yig'implari, davlat byudjeti, import bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, tashqi savdo.

Аннотация

В статье раскрывается роль таможенных органов в осуществлении фискальной деятельности. Анализируются процессы исчисления, взимания и зачисления таможенных платежей в государственный бюджет Республики Узбекистан. Показаны роль и значение таможенных платежей в решении поставленных задач по обеспечению фискальной стабильности страны и ускорению процессов экономического развития. Даны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию механизма взимания таможенных платежей.

Ключевые слова: Акцизный налог, таможенные платежи, таможенные сборы, государственный бюджет, ввозная таможенная пошлина, налог на добавленную стоимость, внешняя торговля.

Abstract

The role of customs authorities in the implementation of fiscal activities is revealed in the article. The processes of calculating, collecting and transferring customs fees to the state budget in the Republic of Uzbekistan are analyzed. The role and importance of customs payments in solving the tasks set in order to ensure the fiscal stability of the country and to accelerate the processes of economic development have been shown. Scientifically based suggestions and recommendations on improving the mechanism of collecting customs fees are given.

Key words: Excise tax, customs payments, customs fees, state budget, import customs duty, value added tax, foreign trade.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan xalqaro savdoni rivojlanishi, mamlakat importi tarkibining optimallasishi va milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishning takomillashuvi hamda uning miqdorini ko‘payishi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va tarkibiy o‘zgartirishlarni jadallashtirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonida mamlakatimizni rivojlantirishni 2030-yilga bo‘lgan strategiyasida maqsadlar va ularning bajarilishi bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilandi. Uning 46-maqsadi “Fiskal barqarorlikni ta‘minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” – 2030-yilda samaradorlik ko‘rsatkichi: konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 %dan va kelgusi yillarda 3 %dan past bo‘lgan miqdorda bo‘lishini ta‘minlash” kabi O‘zbekiston Respublikasida fiskal barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalar belgilandi [1].

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish"[1] kabi vazifalar belgilab berilgan. So'nggi yillarda esa tashqi savdoni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 13-apreldagi "Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5012-sonli farmoni mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan samarali integratsiyalash bo'yicha bir qator strategik maqsadlar belgilab berilmoqda. Ushbu holatlar esatashqi savdoni boshqarish bo'yicha maqsadli strategik yo'nalishlarni tanlash kabi vazifalarni belgilab bermoqda.

Jahon iqtisodiy rivojlanishining hozirgi sharoitida O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuv jarayoni tashqi savdoning balans muvozanatiga

salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan va tadbirkorlikni rivojlanishini barqarorligini saqlab turuvchi va rag'batlantiruvchi, iqtisodiy rivojlanishdagi tahdidlardan holi bo'lgan strategik boshqarish asosida amalga oshirilishi lozim.

Jahon olimlarining fikricha milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuv jarayonida tashqi savdo sohasi asosiy xavf omili hisobladi. Biroq, zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi savdo siyosati bu umum-iqtisodiy siyosatning soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati, import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishi hisoblanadi. Aytish o'rinliki, tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar ko'pincha qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davr uchun esa, bu rivojlangan davlatlar tajribasida o'z ifodasini topgan, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni yanada oqilona hamda samarali joylashtirishga imkon beradi.[9]

Erkin tashqi savdo g'oyalari 300 yil oldingi David Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi asosiga qurilgan bo'lib, unga ko'ra, xalqaro miqyosda barcha ishlab chiqarish resurslarining erkin (cheklovlersiz) harakatlanishi iqtisodiy samaradorlikni o'stiradi va resurslar o'zidan maksimal manfaat keltirgan holda aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.[10]

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tashqi savdoni tashkil etish nuqtayi nazaridan batafsil bayon qilinishi mumkin bo'lgan juda ko'p turli xil muammolarni qamrab oladi. Shu sababli, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy nazariyalarida tashqi savdoni boshqarish borasida ko'plab yondashuvlar shakllangan. Sababi shuki har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun jahon mamlakatlari bilan integratsion munosabatlarda xalqaro savdo katta rol o'ynaydi va bu uning yalpi milliy daromadini oshirishga imkon beradi.[11]

So'nggi yillarda O'zbekistonda Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish haqidagi munozaralar mamlakatning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha so'nggi rasmiy uchrashuvdan taxminan 15 yil o'tgach, 2020-yilda qayta boshlangan. Ushbu davr mobaynida hukumat JSTga a'zo bo'lish bo'yicha yo'l xaritasini tayyorladi, tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandumni taqdim etdi, bu JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni qayta boshlash uchun muhim qadam bo'ldi va JSTga a'zo bo'lishni o'z ichiga oladi. Hukumatning 2022–2026-yillarda “Yangi O'zbekiston”ni rivojlantirish strategiyasining maqsadlarida ham bu masalaga ustuvorlik berilgan. Agar O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish uchun zarur bo'lgan tamoyillarni amalga oshirishda muvaffaqiyat qozonsa, mamlakat tashqi savdoning amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasini tavsiflovchi xarajatlar, vaqt va noaniqliklarning sezilarli qisqarishini boshdan kechirishi mumkin.[12]

Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekistonda bugungi kunda "Xalqaro savdo" ko'rsatkichi bo'yicha mamlakat reytingini tashkil etuvchi barcha indikatorlarni takomillashtirish bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, savdo aylanmasining kengayishiga, ichki bozorni va ishlab chiqaruvchilarni zarur tovarlar bilan ta'minlashga hamda respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolarni yechish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 30-noyabrdagi “Tovar bozorlarida savdoni

yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5564-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra savdoni 2 bosqichda erkinlashtirish nazarda tutildi va kiritilgan o‘zgarishlar 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval

O‘zbekistonda tashqi savdoni erkinlashtirish yo‘nalishlari

| Amaldagi tizim | Yangi tizim |
|--|---|
| O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bo‘yicha | |
| Import qilinadigan yuqori likvidlik tovalarni ichki bozorda faqat birja savdolarida cheklovlersiz sotishga ruxsat berilgan | Import bo‘yicha olib kelingan yuqori likvidlik mahsulot turlarini, egalarining xohishiga ko‘ra, ichki bozorda, shu jumladan, birja savdolarida cheklovlersiz sotishga ruxsat etildi |
| Iste‘mol moliya krediti faqat O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun ajratilgan | Iste‘mol moliya kredit import yoki mahalliy mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun bir xil shartlarda taqdim etilishiga ruxsat berildi |
| Ayrim turdagi tovarlar (cho‘chqa go‘shiti, uy parranda go‘shiti, o‘simlik yog‘i, shakar, non va non mahsulotlari, rudalar, ipak chiqindilari va h.k.) eksporti cheklangan | Ayrim turdagi tovarlar (cho‘chqa go‘shiti, uy parranda go‘shiti, o‘simlik yog‘i, shakar, non va non mahsulotlari, rudalar, ipak chiqindilari va h.k.) eksporti uchun cheklov bekor qilindi |
| Internet tarmog‘idagi elektron savdo maydonchalari orqali tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportni amalga oshirish tartibi belgilanmagan edi | Tadbirkorlik subyektlariga eksport shartnomasini tuzmasdan va bank komissiyasi undirilmagan, Internet tarmog‘idagi elektron savdo maydonchalari orqali tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportni amalga oshirish huquqi berildi |
| Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona deklaratsiyasiz tovar olib o‘tish 3000 AQSH dollarigacha edi | Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona deklaratsiyasiz tovar olib o‘tish 5000 AQSH dollarigacha oshirildi |
| O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 24.03.2018-yildagi “Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3624-son Qarori bo‘yicha | |
| Import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin majburiy inspeksiyadan o‘tkazish tartiboti qo‘llangan | Import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin inspeksiyadan o‘tkazish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. |

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasidamamlakatimiz tashqi savdosi dinamik rivojlanayotgan tendensiyaga ega bo‘lib, faol eksport va import siyosati yuritilib, tayyor mahsulot eksporti ustuvor darajada o‘z bormoqda. (2-jadval). Iqtisodiyotning ochiqlikligini ta‘minlash siyosati, modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash hamda diversifikatsiya jarayonlari sohasidagi tadbirlar izchil amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoni samarali va yuqori natijaviy modellar asosida rivojlantirishga mustahkam asos yaratilib, o‘z navbatida qator pozitsiyalar bo‘yicha tegishli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda.

Respublikada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH

dollariga yoki 23,9 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi, mln.AQSH dollari

| Ko'rsatkichlar | 2020- yil | 2021- yil | 2022-yil | 2023-yil |
|-------------------------------|----------------|----------------|-----------------|----------------|
| Tashqi savdo aylanmasi | 36256,1 | 42071,6 | 50500,3 | 62567,4 |
| Eksport | 15102,3 | 16610,6 | 19732,6 | 24426,2 |
| <i>tovarlar</i> | <i>7292,8</i> | <i>9953,4</i> | <i>11020,3</i> | <i>10989,9</i> |
| <i>xizmatlar</i> | <i>2005</i> | <i>2547,4</i> | <i>4456,7</i> | <i>5179,7</i> |
| <i>nomonetar oltin</i> | <i>5804,4</i> | <i>4109,8</i> | <i>4255,6</i> | <i>8256,6</i> |
| Import | 21153,8 | 25461 | 30767,8 | 38141,2 |
| <i>tovarlar</i> | <i>19932,4</i> | <i>23724,2</i> | <i>28220,3</i> | <i>35574,8</i> |
| <i>xizmatlar</i> | <i>1221,4</i> | <i>1736,8</i> | <i>2547,5</i> | <i>2566,4</i> |
| Saldo | -6051,5 | -8850,4 | -11035,2 | -13715 |

TSAda eksport hajmi 16 610,6 mln. AQSH dollariga (10,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 25 461,0 mln. AQSH dollariga (20,4 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 8 850,4 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

O'zbekiston jahonning 182 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (17,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (17,7 %), Qozog'istonda (9,3 %), Turkiyada (8,1 %), Koreya Respublikasida (4,5 %), Qirg'iziston Respublikasi (2,3 %) va Turkmanistonda (2,1 %) qayd etilgan.

Ma'lumki, integratsiyalashuv jarayonida tashqi savdoni boshqarishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Savdo va tranzaksiyalarni liberallashtirish. Dunyoning aksariyat mamlakatlari (birinchi navbatda, Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar) tovarlar va xizmatlarning transchegaraviy harakati uchun bojxona va boshqa to'siqlarni kamaytirdilar. Savdo erkinlashtirish dunyoning aksariyat davlatlari siyosatining asosiy prinsipiga aylantirish uchun sharoitlar yaratilmoqda.

2. Yangi tashqi savdoni boshqarish mexanizmlari va institutlarni tashkil etish.

3. Muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi organlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga, savdo oqimlariga, qoidalariga va ularni rivojlantirish strategiyasiga ta'sirining samaradorligini oshirish.

4. Milliy bozorda raqobatning kuchaytirish.

5. Jahon sanoat kuchlarining raqobat ustunligidan himoya qilish doirasida mintaqaviy integratsion guruhlarini shakllantirish. O'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan savdo-iqtisodiy, valyuta siyosatini amalga oshirish va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish asosida mamlakatning global raqobatda ustunliklarini ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib integratsiyalashuv jarayonlarida tashqi savdoni milliy manfaatlar asosida strategik boshqarishga boʻlgan yondashuvni takomillashtirishda asosiy eʼtibor quyidagilarga qaratilishi lozim deb hisoblaymiz:

milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirish lozim. Bunda, milliy manfaatlar doirasi raqobatli ustunlikni taʼminlashga qaratilib, unda bojxona cheklovlarini bevosita cheklov (proteksionistik) bilan emas, balki bilvosita shakllaridan ichki raqobat muhitini shakllantirish kabi usullardan foydalanish taklif etiladi. Asosiy strategik maqsad himoya usullarini bosqichma-bosqich kamaytirib borish orqali ishlab chiqaruvchilarni erkin raqobatga tayyorlab borishdir. Mamlakat raqobatbardoshligining asosiy sharti sifatida M. Porter nazariyasida “mamlakatda raqobat qanchalik rivojlangan va xaridorlarning talablari yuqori boʻlsa, bu mamlakat korxonalarining xalqaro bozordagi muvaffaqiyatga erishish ehtimoli shuncha yuqori boʻladi aksincha, milliy bozordagi raqobatning kuchsizlanishi, qoidaga koʻra, raqobat ustunligi kuchsizlanishiga olib keladi”[13];

xorijiy isteʼmolchilarni mamlakatda ishlab chiqarilayotgan talab yuqori boʻlgan mahsulotlar turlari va hajmlari toʻgʻrisida xabardor qilish[14] maqsadida ichki bozordagi narx indeksleri, bozor konyunkturasi boʻyicha marketing tadqiqotlarini oʻtkazish va ushbu tadqiqot natijalarini ochiq maʼlumot sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining rasmiy Veb-saytlarida berib borilishi lozim;

jahon amaliyotida xalqaro savdoda mahsulotlarga qoʻllaniladigan notarif usullar hisoblangan sanitar va fitosanitar chora tadbirlar koʻp miqdorda qoʻllanilmoqda. Oʻzbekistonda ham tashqi savdoni erkinlashtirishda taʼrif usullarini Xalqaro Valyuta Fondi, Butunjahon Savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlari normalariga yaqinlashtirgan holda notarif usullardan foydalanish yoʻnalishiga oʻtish tavsiya etiladi. Notarif usullari nafaqat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni, balki mamlakat aholisi turmush farovonligini taʼminlashda ham sezilarli taʼsir etadi.

Maʼlumki, tashqi savdodagi cheklovlarning yuqoriligi yashirin iqtisodiyot rivojlanishiga bevosita taʼsir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. 2005-2022-yillarda yashirin iqtisodiyot hajmi 31 foizdan 53 foizgacha yetgan. 2017-yilda Oʻzbekistonda keng koʻlamli islohotlar doirasida pul-kredit va valyuta siyosatining erkinlashtirilishi natijasida naqd pul hamda valyuta oldi-sotdisi bilan bogʻliq muammolar bartaraf etildi. Bu, oʻz navbatida iqtisodiyotda naqd pul hajmining oshishiga taʼsir qilib, yashirin iqtisodiyot koʻlamini rasmiy iqtisodiyotga nisbatan salkam 59 foizgacha oshishiga olib keldi. Lekin keyingi yillarda muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar sonining sezilarli darajada koʻpayishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi, shuningdek, soliq islohotlarining amalga oshirilishi yashirin iqtisodiyot hajmining 2018-yildagi 55 foizdan 2021-yilda 42 foizgacha

kamayishiga xizmat qildi[15] O‘zbekistonda bojxona tariflarini belgilashda Jahon savdo tashkilotining Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (GATT)ning ta‘riflar bo‘yicha “Miliy rejim” tamoyilini qo‘llash, shuningdek, import qilingan tovarlarning hisobotlarini elektron tarzda shakllanishini ta‘minlash orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarida tashqi savdoni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda yuqorida ta‘kidlangan usul va vositalardan imkoni boricha bilvosita shaklda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yakubov O. Legal Mechanism For Regulation Of Trade Relations Of The Republic Of Uzbekistan Within The Framework Of Joining The World Trade Organization //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2023. – Т. 21. – С. 20-24.

2. Имамова Д. Improvement of legal regulation of foreign economic transactions in the Republic of Uzbekistan //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 94-104.

3. Nigora, Talipova. "Uzbekistan: foreign trade liberalization and basic mechanisms on reduce trade barriers." (2014).

4. Ахмедов Ф. Х. Ташқи иқтисодий фаолиятни тартибга солишда валюта сиёсатининг ўрни //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

5. Пардаев Т. Н. Божхона тўловларини қўллашни оптималлаштириш ташқи иқтисодий фаолиятни либераллаштиришнинг муҳим омили //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

6. Суюнов Қ. Ташқи иқтисодий фаолиятни бож-тариф орқали тартибга солишнинг айрим жиҳатлари //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 106-112.

7. Хамидова Д. Д. Иқтисодий интеграция жараёнларида ташқи савдони тартибга солишда бож тарифини такомиллаштириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1110-1115.

8. Abdusalomov O. E. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy jihatlari, xalqaro standartlashtirish va sifat menejmenti //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

9. Мирзаев М.М. Жаҳон бозорига фаол чиқиш: ташқи савдони тартибга солишнинг замонавий усуллари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2017 йил.

10. Манба: <https://www.xabar.uz/iqtisodiyot/protekcionizm-va-savdo-urushi>

11. Серова Д.Б. Клопот Е.А. Протекционизм и свободная торговля в международных экономических отношения // Роль Евразийского экономического союза в глобализации российской экономики: Сборник статей

по итогам Международной научно- практической конференции. Стерлитамак, 2017. – с. 292.

12. Анализ делового климата в Узбекистане. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2023/05/insights-on-the-business-climate-in-uzbekistan_9ac46b98/84ffe567-ru.pdf#page=48.49.

13. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/Пер. с англ. — М.: Альпина Biznes books, 2005. – 454 с.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 ноябрдаги “Товар бозорларида савдони янада эркинлаштириш ва рақобатни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5564-сонли Фармони. <http://lex.uz/ru/docs/4030912>.

15. Ўзбекистонда яширин иқтисодийотни қисқартириш бўйича таклифлар берилди. <https://uzreport.news/society/uzbekistonda-yashirin-i-tisodiyotni-is-artirish-buyicha-takliflar-berildi>.

ELEKTRON SAVDONING O‘ZIGA HOS JIHATLARI

Turdiyeva Shohista Bahriddin qizi
TDIU, Marketing kafedrası tayanch doktranti

Annotatsiya

Jahon iqtisodiyotida savdo faoliyati o‘tish davriga guvoh bo‘lmoqda. Barcha kompaniyalar onlayn texnologiyalar orqali axborotga asoslangan operatsiyalarga orqali faoliyat yuritmoqda. Texnik o‘tishning sur‘ati shu qadar kuchliki, zamonaviy Elektron savdo hozirda sanoatning barcha sohalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy muhitda sezilarli siljishlarni amalga oshirmoqda. Internet kompaniyalar doirasini kengaytirdi. Ushbu maqolada Elektron savdoning jihatlari, jumladan uning ahamiyati, afzalliklari, O‘zbekiston bozoridagi qiyinchiliklari va ko‘lami muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar. Biznes, iste‘molchi, Elektron savdo, internet, bozor strategiyasi, o‘shish, foyda.

Аннотация

Торговая деятельность в мировой экономике переживает переходный период. Все компании работают посредством информационных операций с помощью онлайн-технологий. Темпы технологических изменений настолько велики, что современная электронная коммерция в настоящее время вносит существенные изменения в экономическую среду, что затрагивает все отрасли промышленности. Интернет расширил сферу деятельности компаний. В данной статье рассмотрены аспекты электронной коммерции, включая ее важность, преимущества, проблемы и масштабы на рынке Узбекистана.

Ключевые слова. Бизнес, потребитель, электронная коммерция, Интернет, рыночная стратегия, рост, прибыль.

Abstract

Trade activity in the world economy is witnessing a period of transition. All companies are operating through information-based operations through online technologies. The pace of technological change is so strong that modern E-commerce is now making significant changes in the economic environment that affects all sectors of the industry. The Internet has expanded the scope of companies. This article discussed the aspects of e-commerce, including its importance, advantages, challenges and scope in the market of Uzbekistan.

Keywords. Business, consumer, E-commerce, internet, market strategy, growth, profit.

KIRISH

Globalashuv va axborot texnologiyalari (IT) tashkilotlarning biznes yuritish uslubini o‘zgartiradi. O‘z kompaniyasining yakuniy rivojlanishi uchun IT infratuzilmasiga katta miqdorda sarmoya kiritgan deyarli barcha kompaniyalarda IT tizimi joriy etilgan va integratsiyalashgan. EC bilan korxonalar "Just in Time" ishlab chiqarishni butun dunyo bo‘ylab o‘zlarining strategik qobiliyatlarini oshiradigan savdo hamkorlari bilan bog‘lamoqdalar. Elektron savdo aloqa nuqtai nazaridan telefon

liniyalari, kompyuter tarmoqlari yoki boshqa vositalar orqali ma'lumot, xizmatlar, mahsulotlar yoki onlayn to'lovlarni taqdim etishi mumkin. EC biznes jarayonlari nuqtai nazaridan korporativ tranzaksiyalar va ish oqimlarini avtomatlashtirish texnologiyasini joriy qiladi. Xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan, EC — bu mahsulot samaradorligini oshirish va xizmatlarni yetkazib berishni tezlashtirish bilan birga xizmatlar narxini pasaytirish usuli bo'lib, u sanoat, mijozlar va rahbariyatning xohishiga javob beradi.

Ushbu maqolada Elektron savdo haqida umumiy ma'lumot berilgan, asosan uning ta'rifiga va zamonaviy bozor uchun muhimligiga e'tibor qaratilgan. Elektron savdoning afzalliklaridan tashqari, keyingi bo'limlarda muhokama qilinadigan ba'zi kamchiliklar ham mavjud.

ADABIYOTLARNI SHARHI

R. E. Walch [1] biznes bilan bog'liq tranzaksiyalarni amalga oshirish usuli sifatida elektron savdodan (EC) foydalanish kuchayib borayotganligi ko'plab kompaniyalar uchun ustuvor vazifa bo'lib kelayotganligini ta'kidlagan.

E. Turban, J. Whiteside, D. King, and J. Outlandlar [2] o'zlarining ilmiy izlanishlarida "Bugungi kunda yirik kompaniya operatsiyalari onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. Odamlar mahsulot va xizmatlarni onlayn tarzda sotadilar hamda sotib oladilar va internet infratuzilmasisiz ma'lum xaridlarni amalga oshirib bo'lmaydi" deya o'z fikrlarini ilmiy asoslagan.

E. E. Grandon and J. M. Pearsonlar [3] Elektron savdo — biznes operatsiyalarida elektron aloqa va raqamli axborot jarayonlari tashkilotlar va shaxslar o'rtasida qiymat yaratish munosabatlarini yaratish, o'zgartirish hamda qayta aniqlash uchun ishlatiladi deya ta'kidlaydi.

D. Gefen [4] o'zining elektron savdo bo'yicha o'zining Elektron savdoda ishonchning roli nomli ilmiy maqolasida — Elektron savdoning rivojlanishi iqtisodiy jihatdan o'sish tendensiyasiga ega mamlakatlar kichik bizneslari uchun real istiqbollarni yaratishini ta'kidlaydi.

R. Rahayu va J. Day [5] elektron savdoning iste'molchi uchun eng katta afzallik shundaki, ko'p vaqtni tejaydi va dunyoning istalgan nuqtasidan xaridni amalga oshirish uchun qulayligini ta'kidlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron savdo — tovarlar va xizmatlar bilan ishlash uchun elektron ommaviy axborot vositalari va internetni anglatadi. Elektron savdo kompaniyaning internetga, shuningdek, elektron ma'lumotlar almashinuvi, ITga kirishini o'z ichiga oladi. Elektron savdo internet-sotuvchining veb-saytiga, to'g'ridan-to'g'ri platformadan foydalanuvchiga tovarlar yoki xizmatlar savdosini amalga oshirish, kredit karta, debet karta yoki elektron pul o'tkazmasi orqali to'lash uchun simsiz xarid qilish savatchasini anglatadi.

AKTning, xususan, Internetning ommalashib borayotganligi dunyo tez sur'atlar bilan Elektron savdoga (Business-to-Business) o'tayotganligini anglatadi. Internet iste'molchilarga global iqtisodga kirishga imkon berganligi sababli, ular narxlarini

hududlar bo'yicha solishtirishlari, so'rovlar bo'yicha qanday o'zgarishini bilishlari va almashtirishdan xabardor bo'lishlari mumkin. Xaridorlar aniq afzalliklarga ega bo'lishadi. Bozorning ochiqligi tufayli iste'molchilar turli veb-saytlardagi Elektron savdo takliflarini qulay tarzda solishtirishlari mumkin. Agar kompaniya elektron bo'lsa, raqiblar darhol mijozdan bir marta bosish masofasida bo'ladi.

Elektron savdo faoliyatini amalga oshirishda bir qator yordamchi texnologiyalar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:


Internet — elektron savdo internetning keng kirib borishi tufayli o'sdi. Internet va aqlli mobil telefonlar tom ma'noda har bir hayotning bir qismi bo'lib kelgan. Internet endi razvedka manbasi emas, ammo u otlilar, duradgorlar, shifokorlar va boshqalar sotib olishlari, o'qishlari, muloqot qilishlari va hatto xizmat ko'rsatishlari mumkin bo'lgan samarali vositadir. Ta'minot zanjiri nozik va aqlli, chunki raqamli tarmoqlar tezda mijozlar bilan bog'lanishi mumkin, bu ifloslanishni sezilarli darajada kamaytiradi va yashil biznesga foyda keltiradi. So'nggi 15 yil ichida AKT inqilobi iqtisodiyotni misli ko'rilmagan darajada quvvatladi. Internet va uning xizmatlari ulkan texnologik yutuqlar bilan yangi bozorlarni o'sishiga yordam berdi. 1980-yillarda internet foydalanuvchilari soni kichik edi va 1994 yilgacha testdan foydalanuvchilar soni o'sib borguncha bosqichma-bosqich, ammo barqaror o'sish kuzatildi. Tarmoq foydalanuvchilari soni World Wide Web paydo bo'lishi va keyinchalik multimedia kontentining kengayishi bilan portladi. Internet, o'z navbatida, boshqa barcha vositalarga qaraganda tezroq rivojlandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Elektraloqa Ittifoqi (XEI) yaqinda 2025 yilda 7,2 milliard foydalanuvchi onlayn bo'lishini prognoz qildi.

Analitika — bu ma'lumotlarni qaror qabul qilish ma'lumotlariga aylantirishning empirik usuli. Analitika tashkilotlarga o'z mijozlarini to'plash, tartibga solish, ko'rib chiqish va sharhlashda yordam beradi. Ma'lumotlar hajmining katta o'sishi tashkilotlarning mijozlarning xatti-harakatlarini bilish uchun tadqiqotlarga tayanishiga sabab bo'ldi. Chakana sotuvchilar internet investitsiyalari va kanallar aralashmasidan daromadlarni hisoblash uchun real vaqt rejimida bilimga ega bo'lishlari kerak. Elektron savdo o'yinchilari uchun asosiy tahlillar mavjud; mijozlar tushunchasi uchun o'rtacha buyurtma hajmi, savat hajmini o'lchash, konversiya nisbatlari talab qilinadi va chuqurroq tahliliy yondashuv zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar — o'z tovarlarini reklama qilish uchun korxonalar doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Ijtimoiy media Internet orqali ulanish va ma'lumot almashish uchun kompyuter yoki mobil telefondan foydalanishga imkon beruvchi bloglar va kompyuter ilovalarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy tarmoq mahsulotlarni yaratishda muhimroq bo'lib, mijozlarga turli bitimlarni eslatib turadi. Mahsulot yoki xizmat haqidagi ma'lumotlar ham foydalidir. U ishonchli iste'molchilar guruhini, nashrlarni, og'zaki so'zlarni va boshqalarni yaratish uchun brend yaratish vositasini taqdim etadi.

3D bosib chiqarish — 3D printer raqamli 3 o'lchovli modelni yarata oladigan elektron qurilmalar toifasiga kiradi. "Qo'shimcha ishlab chiqarish" usuli — bu siyohli printerning ranglarini tekis qog'oz varag'iga muvaffaqiyatli joylashtirishga o'xshash qoplama. 19-asr boshidagi sanoat inqilobi qishloq xo'jaligi hayotini larzaga

keltirganidek, 3D bosib chiqarish bir kun kelib odamlar foydalanadigan mahsulot usulini yo‘q qilishi mumkin. 3D bosib chiqarish iste‘molchi chop etishi kutilayotgan yoki dizayner uchinchi tomon ishlab chiqaruvchisi bilan bog‘langan prototiplar biznesini ishlab chiqaradi. Tayyor mahsulot sotilmaydi — konsepsiya sotiladi va chop etiladigan litsenziya. Internetning burchaklarida istiqbolli rassomlar uyda yoki ishda chop etish rejalarini ko‘rsatadilar.



1-rasm. Elektron savdo biznes turlari¹

Biznesdan biznesga (B2B) — elektron savdo firmalar o‘rtasidagi barcha elektron mahsulotlar yoki xizmatlarni o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ishlab chiqaruvchilar va an‘anaviy sanoat ulgurji kompaniyalari elektron savdo uchun ushbu yondashuvdan foydalanadilar.

Biznesdan iste‘molchiga (B2C) — kompaniya va yakuniy mijoz elektron kompaniya hamkorligi. Bu Elektron savdo xarid qilish bo‘limi bo‘lib, u erda an‘anaviy chakana savdo odatda amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik uslublari oddiyroq, murakkabroq va vaqti-vaqti bilan bo‘lishi mumkin va ular to‘xtatilishi mumkin. Ushbu biznes turi mijozlarga kompyuterlar, elektronika, kitoblar, aksessuarlar, avtomobillar, oziq-ovqat, moliyaviy materiallar va raqamli nashrlar kabi har qanday turdagi mahsulotlarni taklif qiluvchi bir qator onlayn-do‘konlar va markazlar bilan Internetning paydo bo‘lishi tufayli sezilarli darajada kengaydi. An‘anaviy savdodagi chakana savdodan farqli o‘laroq, xaridor odatda mavjud bo‘lgan mazmunli kontent haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘ladi va siz shunga o‘xshash individual mijozlar tajribasini xavf ostiga qo‘ymasdan, shuningdek, oson ishlov berish va tarqatishni va‘da qilmasdan arzonroq sotib olishingiz mumkinligi odatda qabul qilinadi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Iste'molchidan iste'molchiga (C2C) — turi elektron Elektron savdo mijozlar o'rtasida elektron shaklda tovarlar yoki xizmatlarning barcha savdolarini qamrab oladi. Odatda bu almashinuv onlayn tranzaksiya forumini taklif qiluvchi uchinchi tomon tomonidan amalga oshiriladi.

Iste'molchidan biznesga (C2B) — tovarlar almashinuvining odatiy konteksti o'zgartiriladi. Elektron savdoning bu usuli kraudsorsingga asoslangan kompaniyalarda keng qo'llaniladi. Ayrim xizmatlar yoki mahsulotlarni maqsad qilgan kompaniyalar uchun jismoniy shaxslar ham o'z xizmatlari yoki mahsulotlarini sotadilar. Ushbu tadbirlarga rassomlar logotip uchun bir nechta takliflar so'raladigan va faqat bittasi muvaffaqiyatli tanlangan va sotib olingan joylarni o'z ichiga oladi. Ushbu biznes segmentidagi yana bir mashhur vosita — royaltidan xoli fotosuratlar, fotosuratlar, media va dizayn elementlarini sotadigan bozorlar.

Biznes-ma'muriyat (B2A) — bu qism kompaniyalar va hukumat o'rtasidagi barcha internet tranzaksiyalarini o'z ichiga oladi. Bu turli xil dasturlarni, xususan, soliqqa tortish, ijtimoiy yordam, sog'liqni saqlash, huquqiy hujjatlar va hujjatlarni rasmiylashtirish va hokazolarni qamrab oladi. So'nggi yillarda bu xizmatlar turlari davlat boshqaruviga sarflangan mablag'lar hisobiga sezilarli darajada kengaytirildi.

Iste'molchi-ma'muriyat (C2A) — modeli hukumatlar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi barcha elektron xaridlarni o'z ichiga oladi. Ilovaning diqqatga sazovor joylariga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim – axborotni tarqatish, masofaviy ta'lim va h.k.
- Ijtimoiy ta'minot – axborotni tarqatish, to'lovlarni amalga oshirish va h.k.
- Soliqlar — soliq deklaratsiyasini topshirish, to'lovlar va boshqalar.
- Salomatlik – uchrashuvlar, kasalliklar to'g'risidagi ma'lumotlar, tibbiy xizmatlarga haq to'lash va h.k

Elektron savdo sanoatidagi yangi tendensiya endi qanday boshlanganiga nisbatan ko'p yo'nalishlarga tarqaldi. Elektron savdo bozori bugungi kunda odamlar sotib olish yoki sotish uchun oddiy onlayn forum emas, balki undan ham ko'proq, Elektron savdo tobora o'zgarib bormoqda, chunki u juda mahalliy bo'lib, sun'iy intellektni targ'ib qiladi va hatto nomoddiy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadi. GST ijrosi va qisqa muddatli kreditlar sifatida. Yorug'lik tezligida rivojlanayotgan texnologiyalarni joriy etish bilan iste'molchining potensial ko'rinishi to'liq o'tish arafasida. Shu bilan birga, u narsalar Interneti (IoT) bo'ylab kengaytirilgan maishiy xizmatlar, ma'lumotlarni qayta ishlash, logistika, sun'iy intellekt, shaxsiylashtirish va Elektron savdo namunalarning keyingi avlodi uchun giper-lokal makonga e'tibor qaratishi aniq.

Iste'molchilar uchun Elektron savdoning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- savdo stavkalarini pasaytirish;
- kengaytirilgan moslashuvchanlik — xaridlarni firma bilan jismoniy aloqa qilmasdan kuniga 24 soat amalga oshirish mumkin;
- vaqtni tejash — iste'molchilar istalgan vaqtda istalgan mahsulotni onlayn xarid qiladi yoki sotadi;
- mijoz ma'lumotlarga oson va doimiy ravishda kirib, ko'plab sahifalarda tafsilotlarni qidirish uchun tugmani bosish orqali yaxshiroq kirish imkoniyatiga ega;

- xarid qilishda ham, tranzaksiyalarda ham qulaylik xaridorga uydan yoki ofisdan kerak bo'lgan qulaylikdan kelib chiqadi;

- agar kompaniya faoliyati qoniqarsiz bo'lsa, boshqa kompaniya-mijozlarga o'tish hali ham oson;

- mahalliy yoki milliy bozorda iste'molchiga avvalgidan ko'ra kattaroq mahsulotga kirishni ta'minlaydigan mahsulot mavjud emas edi;

- yakuniy xaridni amalga oshirishdan oldin iste'molchi boshqalar nima sotib olganini ko'rish yoki boshqa mijozlarning sharhlarini ko'rish uchun mahsulot haqida fikr bildiradi.

Internet orqali sotishning ko'payishi joriy va barqaror xarajatlarning kamayishi sotuvchilar nuqtai nazaridan Elektron savdoning asosiy afzalligi hisoblanadi. Bularga:

- daromad olishda yordam beradi;

- foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi;

- xarid qilish va sotib olishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi;

- mijozlarning sodiqligini oshirishga, shuningdek, ushlab turishga yordam beradi;

- mahsulotlarni tashish uchun byudjet xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish;

- mijoz va yetkazib beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash hamda rivojlantirish;

- sotish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi;

- ichki va tashqi aloqani yaxshilash;

- har qanday kompaniya va brendning imijini targ'ib qiladi.

Yuqoridagi imkoniyatlar bilan birga Elektron savdoda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu qiyinchiliklarga asosan xaridorlar hamda internetdan biznes uchun vosita sifatida foydalanadigan sotuvchilar duch kelishadi. Ushbu muammolar elektron savdo bozori xususiy va davlat korxonalarini bilan birga yuksalmayapti. Elektron savdo sanoatini oshirish uchun xususiy va davlat hamkorligi zarurligi. Tizim himoyasi, ishonchliligi, maxsus talablari va ba'zi aloqa protokollari mavjud emas. Agar Elektron savdo veb-sayti buzilgan bo'lsa, mijoz pulini yo'qotadi. Elektron savdo veb-saytlari uchun kibernetik xavfsizlik eng keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Yana bir eng muhim omil bu elektron hisob-kitoblarga ishonch. Asosiy qonunlar va qoidalar bo'yicha standart hujjat Elektron savdo operatsiyalarining to'g'riligi va qonuniyligini ta'minlashi mumkin. Rivojlangan dunyoda ishonch zamonaviy qonunchilik va elektron operatsiyalarda xolislikka asoslangan. Elektron savdoga asoslangan operatsiyalarni o'rnatmaydigan qonunchilik va sud tizimi, haqiqiy yoki idrok etilgan bo'lsin, qamrab olinmagan bo'lsa-da, ular salbiy. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda naqd pul yetkazib berish bugungi kunda ham eng mashhur jarayon bo'lib, cheklar va kredit kartalari osonlikcha qabul qilinmaydi.

Yuqoridagi muammolardan tashqari, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti boshqa ko'plab muammolarga duch kelayotganini alohida ta'kidlash zarur:


- kadrlar etishmasligi;

- turli madaniyat va an'analar;

- onlayn marketing bilan bog'liq zaif asos;

- kamroq marketing va reklama;
- siyosiy masalalar;
- an'anaviy bozorga nisbatan xizmatlar va mahsulotlarning yuqori narxi;
- internetning kamroq qamrovi;
- mamlakat bo'ylab tartibsiz aloqa;
- sotuvchi va xaridor bilan bevosita uchrashuvning yo'qligi.

Elektron savdo orqali mahsulot va xizmatlarni xarid qilish xaridorlarga qachon va qayerdan sotib olishni tanlash hamda tovar, sotuvchi va boshqa variantlarni o'rganish imkonini beradi. Onlayn ma'lumotlarning mavjudligi xarid qilish jarayonini inqilob qildi. Do'konda xarid qilish mumkin bo'lgan deyarli hamma narsani, jumladan, oziq-ovqat kabi tez buziladigan narsalarni Elektron savdo orqali xarid qilish mumkin. Butun dunyodagi mijozlar esa bu imkoniyatlardan foydalanishdi. Sanoatning barcha jabhalarida, xizmat ko'rsatishdan tortib, xaridorga yangi mahsulot dizaynigacha, elektron savdoning ta'siri allaqachon mavjud. U iste'molchilar bilan uchrashish va ular bilan muloqot qilish uchun kompaniya bilimlarining yangi shakllarini taklif etadi, masalan, Internetda reklama va tijoratlashirish, onlayn buyurtmalarni bajarish va mijozlarni onlayn qo'llab-quvvatlash. Shuningdek, buyurtmani qayta ishlash xarajatlarini minimallashtirishi va ko'p sonli sotuvchilar va savdo hamkorlari bilan aloqa o'rnatishi mumkin, bu odatda mahsulot va xizmatlar xarajatlariga katta qo'shimcha xarajatlar keltiradi. Elektron savdo O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ulkan imkoniyatlar beradi. O'zbekistonda u hali boshlang'ich bosqichida, lekin eng salbiy prognozlar ham kelajakdagi yuqori o'sishni ko'rsatmoqda. 2023-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasida Elektron savdo hajmi 2016-yilga 200 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. 2016-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi elektron savdo aylanmasi, mln so'm

2016 yilda O'zbekistonning Elektron savdo bozori 6 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu tarmoqning 2023 yildagi ko'rsatkichi 132 milliard so'mdan oshganligini ko'rish mumkin. Bunday natijaning asosiy omillaridan biri internet va smartfonlardan foydalanishning ko'payishi bo'lib, buning natijasida onlayn xaridlarning ortishi hamda

korxonalar o'z mijozlari bilan bog'lanish imkoniyatini berdi. Elektron savdoning sog'lom va xavfsiz hamkori sifatida mobil tijorat tez rivojlandi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Elektron savdo sanoati elektron biznes sohasidagi yetakchi tarmoqlardan biriga aylanadi. Elektron savdodagi inqilob tezda yangi bozorlarni taklif qilish va chegaralarni kesib o'tish orqali tranzaksiya sanoatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu dunyodagi an'anaviy bozor tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi va odamlar hayotini yaxshilashga imkon berdi. Garchi u mijozlar va sotuvchilarga mukofotlar taqdim etsada, Elektron savdo an'anaviy biznesni barqaror joyga to'sqinlik qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar Elektron savdoni rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, uni samarali olib borish uchun bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Internet narxleri minimal bo'lsa, Elektron savdo tez rivojlanadi va ko'plab kompaniyalar odatda quriydi. Qulaylik iste'molchilar uchun Elektron savdoning asosiy afzalliklaridan biri bo'lib, mijozlarning sodiqligini oshiradi. Buning sababi shundaki, iste'molchilar istalgan joydan Internetga kirish orqali buyurtma berishlari mumkin. Kompaniyaning uzluksiz ishlashi va bir nechta to'lovlarni taklif qiladigan elektron savdosi har qanday mijoz uchun muhim bo'lishi va onlayn rejimda foydalanish mumkin bo'lgan ko'proq funksiyalarni ta'minlashi kerak. Boshqa afzalliklarga kengaytirilgan mahsulotlar va kengaytirilgan mintaqaviy qamrov kiradi. Biroq, Elektron savdo kompaniyalari kengayishda ko'plab muammolarga duch kelishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. R. E. Walch, "Electronic commerce," in Key Aspects of German Business Law (Fourth Edition): A Practical Manual, 2009.
2. E. Turban, J. Whiteside, D. King, and J. Outland, Introduction to Electronic Commerce and Social Commerce. 2017.
3. E. E. Grandon and J. M. Pearson, "Electronic commerce adoption: An empirical study of small and medium US businesses," Inf. Manag., 2004, doi: 10.1016/j.im.2003.12.010.
4. D. Gefen, "E-commerce: The role of familiarity and trust," Omega, 2000, doi: 10.1016/S0305-0483(00)00021-9.
5. R. Rahayu and J. Day, "E-commerce adoption by SMEs in developing countries: evidence from Indonesia," Eurasian Bus. Rev., 2017, doi: 10.1007/s40821-016-0044-6.
6. A. G. Khan, "Electronic Commerce: A Study on Benefits and Challenges in an Emerging Economy," Type Double Blind Peer Rev. Int. Res. J. Publ. Glob. Journals Inc, 2016.
7. P. Kalia, N. Kaur, and T. Singh, "E-Commerce in India," in Mobile Commerce, 2017.
8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2>

LOGISTIK KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH XUDUD RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING OMILI SIFATIDA

Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li
TDIU Marketing kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada hududlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan logistika klasterlarni shakllantirishning metodologik jihatlari, muammolari va tashkil etish shakllari o‘rganilgan. O‘zbekistonda logistika klasterlarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: logistika, klaster, klaster tashabbuslari, logistika klaster, klaster a‘zolari, innovatsiya.

Аннотация: В статье изучены методологические аспекты, проблемы и формы формирования логистических кластеров, направленных на повышение конкурентоспособности регионов. Предложены основные направления формирования логистических кластеров в Узбекистане.

Ключевые слова: логистика, кластер, кластерные инициативы, логистический кластер, участники кластера, инновации.

Abstract: Methodological aspects, problems and forms of formation of logistic clusters aimed at improving the competitiveness of regions are studied in the article. The main directions of formation of logistics clusters in Uzbekistan.

Keywords: logistics, cluster, cluster initiatives, logistics cluster, cluster members, innovation.

KIRISH

Iqtisodiyotning globallasuvi hududlarda raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy shakllari va texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatidan yangilashga imkon beradigan shakllardan biri bu “klaster strategiyasidir”dir. O‘zbekiston Respublikasida turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan klaster tashabbuslarining kengayib borishi hamlogistika klasterlarini yaratish zaruriyati va ularni shakllantirish strategiyalari amalga oshirishni dolzarblashtirmoqda.

Klasterlar global iqtisodiyotda raqobatda ustunlikni ta‘minlashga qaratilgan va o‘zaro manfaatdor tomonlar kuchlarini birlashtirishning tashkiliy shakli bo‘lib, murakkab funksional tuzilmaga ega bo‘lgan boshqaruv strategiyasi hisoblanadi. Ularning rivojlanishi jamiyatni axborotlashtirish, sanoatni innovatsion rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster nazariyasini o‘rganish jahon hamjamiyatida tez sur‘atlarda o‘sib bormoqda va uni amaliyotda qo‘llash esa hudud va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishi hamda o‘zaro munosabatlarga asoslangan raqobat ustunliklarini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishiga aylangan.[1]

Logistika ma'lum vaqtda eng kam ehtimoliy xarajatlar mavjud bo'lganda ma'lum tovarni dastlabki tayyorlanishini ko'zda tutadi"[5]. B.K. Plotkin nisbatan qisqaroq ta'rifni taklif etadi: "Logistika – tizimlarda oqimlarni boshqarish to'g'risidagi fandir"[6]. A.I. Semenenko "Logistika– bu, avvalambor, ko'lamli ishlab chiqarish, xo'jalik (tarmoqli, mintaqaviy, xalq xo'jaligi) tashkilotidava keng miqyosli tadbirkorlik va tijorat faoliyatida ("erkin" bozor iqtisodiyotiga tatbiqi) ma'lum ilg'or fikr, yanada samaraliroq uslub"[7] deya ta'riflaydi. A.N. Rodnikov bir ta'rifda nafaqat logistika haqida faoliyat sohasi sifatida tushuncha berish, balki uning mazmunli tomoniniyoritib berishga harakat qildi. Bunda u, avvalambor, jarayonning uslubiga emas, balki jo'natish va saqlash jarayoniga e'tibor qaratadi. "Logistika – xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish korxonasi gacha yetkazish, zavodda qayta ishlashda oxirgi iste'molchining qiziqishlari va talablariga muvofiq yetkazish, shuningdek, tegishli axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonida amalga oshirilgan moddiy va nomoddiy operatsiyalar hamda jo'natish, omborlashtirishni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish to'g'risidagi fandir"[8]. Undan farqli o'laroq, S.A. Uvarov logistikaning ta'rifiga "Insonga – mashinali tizimlarga moddiy, moliyaviy, mehnat, energetika, axborot oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish nazariyasi" kabi ta'rifni qo'lladi[9]. S.A. Uvarovning fikriga ko'ra, "Logistika – bozor iqtisodiyoti tizimida moddiy, moliyaviy, huquqiy va axborot oqimlari yig'indisining harakatlanish jarayonini rejalashtirish, amaliy boshqarishni tashkil etish va nazorat qilish nazariyasi"dir[9].

Bizning fikrimizcha, logistika faoliyatining transport tarkibiy qismiga torayadi va logistikada klaster shaklidan foydalanishni jiddiy darajada ochib bermaydi. Shu munosabat bilan ushbu hujjatda logistika faoliyatining zamonaviy tomonlarini aks ettiruvchi "logistika klaster" tushunchasini ko'rib chiqamiz.

«Logistika klaster» tushunchasi ilmiy faoliyatda faoliyatning muayyan turiga nisbatan foydalanishda hisobga olinadi. Mavjud ta'riflar faqat ushbu klasterni tashkil etuvchi subyektlar ro'yxati bilan yakunlanadi. Klasterni tushunishga bunday yondashuv bizni logistika tashkilotining ushbu shaklini boshqalardan ajratib olishga va uni boshqa turdagi klasterlardan, masalan, ishlab chiqarish klasteridan ajratishga imkon bermaydi.

Logistika klasteri — bu harakatdagi va o'zaro bog'liq moddiy oqimlarning harakatini ta'minlashga va etkazib beruvchilardan yakuniy foydalanuvchilarga optimallashtirishga qaratilgan logistika funksiyalarini bajaradigan mustaqil jug'rofiy jihatdan markazlashgan bozor subyektlarining manfaatli hamkorlik munosabatlaridir.

Logistika klasterini shakllantirishdan maqsad — umumiy resurslarni o'zaro bog'liq faoliyat bilan taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni soddalashtirish, moddiy va nomoddiy aktivlarni jalb qilish va klaster a'zolari o'rtasida ishonchni oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali ma'lum bir hududning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanishdir.

Logistika klaster shaklining asosiy xususiyati uning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'z-o'zidan bozor asosida emas, balki tashkiliy va rejali ravishda

o'zgartirishdir. Logistika klasterlar asosiy yuk oqimlari kesishishida hosil bo'ladi va ko'plab ixtisoslashtirilgan obyektlarni birlashtiradi.

METODOLOGIYA

O'rganishlar klaster nazariyasining ko'p jihatligi va bu unga nisbatan turli metodologik yondashuvlar shakllanishiga sabab bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida, iqtisodiyotni klasteri tuzilishi davlatning umumiy iqtisodiy siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu, birinchi navbatda, fan va ta'limning rivojlanishi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, eksport faoliyati, zarur infratuzilma va zamonaviy bozor faoliyatini yaratish bilan bog'liq. Klaster yondashuvining afzalliklari ularning ishlashining quyidagi jihatlari hisoblanadi [4]:

1) klasterlar yangi texnologiyalar, bilimlar, mahsulotlarni, qo'shma ilmiy bazaga asoslangan texnologik bazani tezkor tarqalishining mustahkam mexanizmga asoslanadi;

2) klaster korxonalarini ichki ixtisoslashuv va standartlashtirishni amalga oshirish, innovatsiya xarajatlarini minimallashtirish tufayli qo'shimcha raqobat ustunligi ta'minlaydi;

3) klasterlarning muhim xususiyati ularning tarkibida moslashuvchan tadbirkorlik tuzilmalari — iqtisodiy o'sishning innovatsion nuqtalarini shakllantirishga imkon beradigan kichik korxonalar mavjudligi hisoblanadi;

4) mintaqaviy sanoat klasterlari kichik biznesni rivojlantirish uchun juda muhimdir: ular kichik firmalarga ma'lum bir tadbirkorlik uyiga xizmat ko'rsatishda yuqori darajadagi ixtisoslashuvni yuzaga chiqaradi va innovatsiyalarni, texnologiyalarni va bilimlarni tadbirkorlar tomonidan o'zlashtirish va foydalanishga keng imkoniyat yaratadi.

Klasterda ishtirok etuvchi korxonalaridan ishlab chiqarish omillarini olishning o'zaro ta'sirining shaffofligi va uzluksizligi tranzaksion xarajatlarni pasayishiga olib keladi. Klaster ichida resurslarni taqdim etish kommunikatsiya jarayonlarini osonlashtiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va xizmatlardan umumiy foydalanishga imkon beradi.

Faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda klasterlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Diskret klasterlar. Ushbu turdagi klasterlarga diskret tarkibiy qismlardan tashkil topgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, shu qatorda avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, dvigatel ishlab chiqarish, mashinasozlik majmuasining boshqa tarmoqlari, shuningdek, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabilardir. Diskret klasterlarga, odatda, yig'uvchi zavodlar va ularning kichik va o'rta yetkazib beruvchilar kiradi.

2. Jarayonli klasterlari. Ularga neft-kimyo, metallurgiya, shuningdek, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalar deb ataladigan jarayon sohalarini bilan bog'liq korxonalar kiradi.

3. Innovatsion va "ilmiy" klasterlar iqtisodiyotning yangi deb nomlanuvchi tarmoqlarida, masalan, axborot texnologiyalari, biotexnologiya, yangi materiallar,

shuningdek ijodiy va ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq turli xizmat sohalarida rivojlanmoqda.

4. Turistik klasterlar mintaqadagi turistik aktivlar asosida shakllantiriladi va turistik xizmatlar bilan bog'liq turli sektorlardagi korxonalaridan iborat.

5. Transport va logistika klasterlariga infratuzilma va yuklarni, yo'lovchilarni saqlash, saqlash va yetkazib berishga ixtisoslashgan kompaniyalar kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Logistika klasterlari integratsiyasining iqtisodiy asosi ijtimoiy kapital bo'lib, asosiy ma'muriy resurs ma'muriy manba hisoblanadi. Mahalliy va davlat hokimiyatining tashabbusi bilan ma'lum bir hududning maqsadli klaster siyosati alohida korxonalar va faoliyatni qo'llab-quvvatlashga emas, balki xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan[3].

Shu munosabat bilan O'zbekistonda logistika faoliyatini tashkil etishning ushbu shakli muvofiqlashtirish elementlari mavjudligida, ya'ni davlat va turli bozor subyektlari, masalan, infratuzilma tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarni tartibga solishda birgalikda ishtirok etishda bunday klasterlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Logistika klasterlarni shakllanishi davlat va boshqa institutlar o'rtasida konstruktiv va samarali muloqot olib borishga imkon beradi.

Mamlakatimizda ilk logistika klasterini shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar "Angren logistika markazi" AJ bazasida tashkil etishi belgilangan bo'lsa, "Navoiy" xalqaro aeroporti negizida tashkil etilgan transport logistika markazining boshqa transport turlariga bo'lgan multiplikativ ta'sirini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu mintaqalararo xabning faoliyati natijasida avtomobil va temir yo'l transportiga bo'lgan talab kuchaydi. Milan yoki Seuldan 5 soat davomida yetib kelgan yuk O'zbekiston yoki Markaziy Osiyodagi oxirgi manziliga eng qisqa fursatlarda yetkazilishi zarur. Aks holda xabning tashkil etilishi o'z mohiyatini oqlamaydi.

Tashkilotning klaster shaklini ajratib turadigan ikkinchi muhim tarkibiy element bu jamoat tashkilotlari va birlashmalarining jami bo'lib, ular o'z faoliyati orqali ushbu subyektning boshqa ishtirokchilarining xavflarini kamaytirishni ta'minlaydi. Nodavlat tashkilotlari, uyushmalar, ekspeditorlik kompaniyalari, bojxona, brokerlik idolari, biznes uyushmalari, savdo-sanoat palatalari va boshqalar tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Logistika klasterining tuzilishi yagona moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni birlashtirgan tashkilotlar va korxonalar tomonidan shakllantirilgan. Logistika klasteri o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- moddiy oqimlarni shakllantiradigan, o'zgartiradigan va o'zlashtiradigan bozor subyektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tijorat vositachilari);
- yer, suv, havo transporti xizmatlarini taklif etuvchi transport kompaniyalari;
- ekspeditor kompaniyalar, shu jumladan, ekspeditorlar, kuryerlar, ekspeditor-agentlar (vositachilar), multimodal yuk tashuvchi va ularga xizmat qiluvchi korxonalar va kartellar;
- ombor komplekslari, tarqatish markazlari va terminallar;

- ma'muriy boshqaruv idoralari, jumladan, transport vazirligi, moliya vazirligi, bojxona qo'mitasi, sanitariya-epidemiologiya va veterinariya nazorati xizmatlari va boshqalar;

- yordamchi mutaxassislar (moliya tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv markazlari, konsalting va marketing agentliklari);

- tegishli xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar (transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, yo'l qurilish kompaniyalari, xizmat ko'rsatish tashkilotlari).

Logistika klasteri ikki tomonlama xususiyatga ega, bu logistika klasterini ko'rib chiqish imkoniyati bilan izohlanadi:

1) iqtisodiy klasterning infratuzilmasi (proto-klaster) sifatida;

2) klaster integratsiyasining mustaqil shakli sifatida.

Birinchi holda, logistika klasteri ma'lum bir hudud uchun strategik muhim tovar ishlab chiqaruvchilar, tegishli faoliyat turlari va iste'molchilar, shuningdek boshqa infratuzilma subyektlari o'rtasidagi jarayonlar oqimini ta'minlaydi. Logistika protoklasterining vazifasi sinergiya samarasini ta'minlash asosida klaster a'zosining raqobatdoshligini oshirishdir. Logistika klasterini yaratishda sinergiya samaraning asosiy manbalari esa quyidagilar:

1) markazlashtirilgan ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borish (bozorni o'rganish, innovatsion tadqiqotlar, marketing tadqiqotlari va boshqalar);

2) tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hisobiga moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish;

3) AKT va ilmiy tadqiqot sohasida innovatsiyalardan birgalikda foydalanish;

4) qiyosiy ustunliklarni ta'minlash;

5) hududiy moddiy va nomoddiy resurslardan birgalikda foydalanish.

Mustaqil shakl sifatida logistika klasteri xom ashyo yetkazib beruvchilardan va ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan yagona qiymat yaratish zanjiri doirasida bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan iste'molchilarga va ushbu hududning rivojlanishiga hissa qo'shadigan logistika salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etiladi.[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqanda logistikaning biznes yo'nalishi sifatida rivojlanishi omillari, shart-sharoitlari va bozor harakati konsepsiyasi tufayli logistika klasterining o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy rivojlanish nazariyasi bilan asoslanadigan klasterlarning o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari (hududiy konsentratsiya, ichki raqobat, barqaror biznes aloqalari, tashqi formatsion o'zaro ta'sir, innovatsiya va boshqalar), bizning fikrimizcha quyidagilar:

1) logistika klasteri mahsulotlari resurslar ayriboshlash jarayonlarida sohasidagi o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu xizmatlar mintaqaning xizmat ko'rsatish salohiyatini oshiradi va ma'lum bir hududda klaster shakllanishining mavjudligini tashxislar mezoni hisoblanadi;

2) taqdim etilayotgan xizmatning xususiyatlariga qarab (birlamchi, ikkilamchi, qo'llab-quvvatlovchi, birlashtiruvchi), logistika klasteri faoliyati shakllanadigan

klasterning "yadrosi" yoki "qo'shimcha" tarkibiy element sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. [5] "Yadro" obyektlarining ishlashiga hissa qo'shadigan, ammo ularning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan "yadro", "ta'minlovchi" esa klaster elementining ishlashini bevosita ta'minlaydi. Ba'zi hollarda logistika klasteri "yordamchi" element rolini o'ynashi mumkin, uning mavjudligi har doim ham talab qilinmaydi;

3) logistika klasterning mahsulotlari klasterning o'zi joylashgan hududdan tashqarida iste'mol qilinishi mumkin, masalan, yuk tashish xizmati, shuning uchun logistika klasteri ma'lum bir hududdan tashqarida iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatida harakat qilishi mumkin;

4) logistika klasterlar tipik tuzilishga ega, chunki ularni shakllantirish ko'rib chiqilayotgan shakllanish jarayonini muvofiqlashtirish va ta'minlashga qodir bo'lgan bir qator yetakchi tashkilotlarni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda transport koridorlari tizimini rivojlantirish doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarini o'zaro integratsiyaviy bozor tizimini shakllantirish mumkin transport va eksport-import yuk oqimlarini yaratishda eng samarali strategik loyiha sifatida qarashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. З.А.Хакимов. Енги́л саноат корхоналари рако́батбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. 08.00.11-“Маркетинг” ихтисослиги. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. ТДИУ. 2018 й. 36 б;

2. Евтодиева Т. Е. Логистические кластеры: сущность и виды // Экономические науки. — 2011. — № 4 (77).

3. Евтодиева Т. Е. Экономическая сущность логистического кластера // Вестник Поволжского государственного университета сервиса. — 2011. — № 4 (18). — Серия «Экономика».

4. Проскура Д. В., Рогова Е. М., Ткаченко Е. А. Теоретические аспекты формирования региональной кластерной политики // Проблемы современной экономики. — 2008. — № 4 (28).

5. Рыжаков Е. Д. Финансовое обеспечение концепции кластерной стратегии развития экономики региона: теория и методология : автореф. дис. .. д-ра экон. наук. — Казань, 2008.

6. Смехов А.А. Основы транспортной логистики. М., 1995 с.27

7. Плоткин Б.К. Основы теории и практика логистики СПб. : СПб УЭиФ, 1996 с171.

8. Семенов А.И. Введение в теорию обоснования логистических решений (эффективность логистических систем) СПб. : СПб УЭиФ, 1999 с247.

9. Родников А.Н. Логистика. Терминологический словарь М.: Экономика, 1995. С. 252.

10. Уваров С.А. Логистика – Инвестиции в науку и производство. М., 1996 С. 232.

MARKETING STRATEGIES TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF SMALL AND MEDIUM BUSINESS

Xolmatova Mumtozbegin Alisher kizi
TSUE, researcher of the Department of Marketing

Abstract

The article highlights the importance of using innovative marketing strategies of small business entities producing industrial products. He studies the theoretical aspects of the management of the market activity of small industrial enterprises and the introduction of innovations into the production process. Innovative marketing strategies aimed at increasing the competitiveness of small business entities will be systematized.

Keywords: economics, marketing, competition, innovation, innovation marketing, industry, technological innovation, product innovation, game fiction, marketing evangelism, storytelling, crowdsourcing.

Annotatsiya

Maqolada sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish dolzarbligi asoslanadi. Kichik sanoat korxonalarining bozor faoliyatini boshqarish va ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishning nazariy jihatlarini o'rganadi. Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion marketing strategiyalari tizimlashtiriladi.

Kalit so'zlar: iqtisod, marketing, raqobat, innovatsiya, innovatsion marketing, sanoat, texnologik innovatsiyalar, mahsulot innovatsiyasi, o'yin fantastika, marketing xushxabari, hikoya qilish, kraudsorsing.

Аннотация

В статье подчеркивается важность использования инновационных маркетинговых стратегий субъектов малого предпринимательства, производящих промышленную продукцию. Он изучает теоретические аспекты управления рыночной деятельностью малых промышленных предприятий и внедрения инноваций в производственный процесс. Будут систематизированы инновационные маркетинговые стратегии, направленные на повышение конкурентоспособности субъектов малого предпринимательства.

Ключевые слова: экономика, маркетинг, конкуренция, инновации, инновационный маркетинг, промышленность, технологические инновации, продуктовые инновации, игровая фантастика, маркетинговый евангелизм, сторителлинг, краудсорсинг.

INTRODUCTION

In the face of intense competition in the global markets, the development and improvement of economic relations further complicates the market mechanism. This is due to changes in consumer demand, demand, taste and outlook, as well as proportional behavior of manufacturers in relation to market laws. In addition to the intense

economic competition between producers, there is also a distinctive competition between the seller and the buyer to match the price and quality of the product. It is precisely this kind of competition that requires the use of innovative marketing strategies to effectively meet consumer needs in developed markets.

High market share is considered as a key factor for innovative development in the world. Innovative developments in the world have increased by 7.8% over the last five years, and innovation costs account for 2.1% of global GDP [1].

In Uzbekistan, as an important sector of the economy, it is strategically important to expand production at industrial enterprises and to compete in international markets.

In our country, there is insufficient scientifically researched problem of the need to use modern methods of modernization and innovative management of industrial enterprises, lack of innovative approaches to form theoretical-methodological foundations of marketing strategies of enterprises, conceptual and practical problems.

Thus, in the current conditions of global economic instability and increased competition, the sustainable operation of industrial enterprises in the economy is largely dependent on a well-chosen innovative marketing strategy.

LITERATURE REVIEW

Strategy of actions for development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 "further modernization and diversification of the industry through the transition to a qualitatively new stage aimed at accelerated development of high-tech processing industries, first of all with the deep processing of local raw materials. "[2] has been identified as one of the key areas.

The effective implementation of these tasks, in particular, the effective use of modern marketing strategies at industrial enterprises, the conduct of marketing research, the development of high-tech industries, and the promotion of innovative activities Innovative marketing strategies should be used effectively in industry to address these issues.

The evolution of views on the interconnectedness of the economic categories under consideration shows that initially the competition was given a stimulating function in creating innovations: introducing new technologies, releasing new products, improving product quality (A. Smith, A. Marshall, J. Clark, J. Schumpeter). Later, innovative factors moved to the center of the mechanism of competition, turning into an integral tool of radical change (M. Porter, G. Hamel, K. Prahalad).

The turbulence of the external environment of the company, characterized by economic, political disasters, general uncertainty, a rapid change of technology, globalization and other trends, forces firms to revise the traditional rules of doing business. In addition, as consumer demands become more complex, firms are faced with a lack of resources to independently support their core activities.

The limited resources of firms that are forced to fight for the consumer have led to the fact that competitive rivalry has partially been replaced by competitive cooperation¹, in which competing enterprises, not ceasing to fight for the client,

¹ Хэмел Г., До И., Прахалад К.К. Сотрудничайте с конкурентами и побеждайте // Стратегические альянсы. М.: Альпина Бизес Букс, 2008. С. 9-32.

cooperate in various areas (creating new developments, reducing the costs of current activities, ensuring more wide market coverage, increasing competitiveness, etc.)¹.

The introduction of innovative marketing strategies for industrial enterprises will have a positive impact not only on the competitiveness of national and world markets, but also on the organization of the economy on the basis of innovation and the achievement of high ratings.

The first research on marketing innovations was introduced by Theodore Levitt in 1960, showing its impact on the effectiveness of the enterprise. Regardless of marketing innovations, many businesses now focus on product and process innovation.

In his research, T.Livitt says that "while innovating in enterprise management, as well as producing new products, it deliberately strives to create and take into account the effectiveness it sees through the introduction of new marketing systems" [3] highlights. In his view, marketing innovation is seen as a process that is ignored by businesses and occurs spontaneously or by accident.

Currently, many studies have widely recognized that economic productivity cannot be achieved only through product innovation. [4]

In general, the main issue is the development of multi-system approaches to which marketing innovations should be widely studied. It can be seen that these conceptual approaches, along with a comprehensive analysis of innovation marketing and the relevance of studying it as a separate area of marketing, are important to the sectors of the economy.

ANALYSIS AND RESULTS

During the years of independence, Uzbekistan has achieved significant development in the oil and gas, chemical, automotive, construction materials and pharmaceuticals, light and food industries, as well as other industries. Industry share in Uzbekistan's GDP is over 25.0%, about 38% of total investments in fixed assets, the economy has grown by an average of more than 8.5% over the last 2005-2018, accounting for 14.0% of total employment in the economy. However, the impact of global competition on global markets dictates that all countries must effectively use innovation in the development of industrial markets. Therefore, effective introduction of marketing innovations in the development of industrial enterprises, assessment of their formation and development, complex research on theoretical and methodological issues, development of innovative marketing activities in industrial enterprises, identification of specifics, innovative features of industrial enterprises in the republic the development of mechanisms to improve the organizational and legal framework of marketing activities .

The diversity of consumer needs and new forms of competition that create and execute their own market strategies based on the principles of innovative marketing strategies for industrial enterprises can help the company grow unprecedented growth opportunities.

¹ Котляров И.Д. Маркетинг конкурентов и связи с конкурентами // Практический маркетинг. – 2010. №4. С. 15-16.

The impact of marketing innovation on enterprise development is evaluated first and foremost on the impact of product and technological innovation on marketing innovation. The introduction of continuous marketing innovations in conjunction with product innovations is an urgent issue as the old methods of marketing new products are ineffective. The use of old marketing techniques to enter the market with a new product does not ensure sufficient sales volume for the new product. [5]

When developing an innovative marketing strategy, there may be some differences in different markets, for example:

- The individual emotions of a particular consumer play a key role in making the purchase decision in the B2C (business-to-customers' business for the consumer) market;

- In the B2B (business-to-business) marketplace, the buyer's choice is based on rational thinking. The following key features of B2B marketing are:

- focusing on the impact of rational factors on consumer motivation;
- Impact on individual motivation of employees (salary increase, promotion, positive evaluation by the management, achievement of certain employment achievements);

- Procurement decision-making through gradual and multilevel processes;

- prolonging procurement processes for a certain period;

A number of targeted strategies for innovative development of industrial enterprises abroad have been implemented. In recent years, marketing innovation has been a major factor in enhancing the competitiveness of industrial enterprises in countries around the world. To provide long-term industry development, countries have invested a lot of money in science and development. The fact that the national innovation system, created in developed countries, accelerates economic growth is clearly reflected in today's socio-economic indicators.

Innovative development of the industry means the intellectual potential of industrial enterprises, the creative potential of workers and employees, knowledge, all stages from the creation of the product to the consumer. Innovation in these areas is a key resource for the strategic development of an industrial enterprise. In today's conditions, the economy is competitive, creating an industry with high science intensiveness that is based on innovative, intellectual knowledge and a skilled workforce.

Foreign companies have developed and implemented various strategies, organizational and economic principles that encourage innovative marketing strategies of industrial enterprises.

Large corporations and companies have extensive experience in the use and application of innovative marketing technologies in various fields.

Sub Way, a fast-food retailer in India, launched its DART strategy in selling sandwiches in 1956. The main approach of the DART strategy is that the consumer creates the product for himself, that is, the buyer is directly involved in the product creation from start to finish.

DART - communication, accessibility, risk assessment and information transparency (dialogue, access, risk assessment, transparency) operating system

Prahalad and Ramaswamy [6] view DART as a key way to create value for innovative marketing that facilitates communication with consumers, transparency, open communication with the consumer, consumer impressions, innovation and effective communication.

DART planners say adding new bus stops along rural Sussex County roads is difficult because there is no place for a bus to safely pull over. They also say new stops must be Americans with Disabilities Act compliant, which can cost as much as \$100,000. DART officials say areas like Oak Orchard will have to wait until infrastructure catches up¹.

Gamefication (USA) is an innovative marketing strategy that is used effectively in US businesses as a gaming approach to customer engagement. Its main focus is on attracting new customers to the market effectively through its various mobile games.

Marketing evangelism is an innovative marketing strategy used to increase the loyalty and use of company products by providing technical information, developing diverse teams and consumers, relying on independent experts and creating a feedback channel.

"Marketing evangelism" refers to the process of building up a new market and enhancing the market potential by introducing a new image of a particular consumer in the minds of consumers.

Storytelling is an innovative marketing technology that is actively used in developing brands, especially new ones. This technology is based on a holistic brand history. Its main purpose is marketing strategy to attract consumers through praise-worthy slogans. Leading companies provide the consumer with a variety of tools and distribute video clips that tell them about their accomplishments.

Market Map is a reflection tool for all intuitive market participants, as well as product promotion processes for end users, so that interest groups, distributors, information channels and products of the company can also reflect the actions of their competitors and market participants. Market Maps provide the framework to collect the necessary data and conduct the analysis. Market Maps come in many different types (competitive, value, product, technology, positioning, partnerships & acquisition, etc.). The type of map you build is based on the questions you need answered. The key is to remember that you are analyzing the current competitors that play in and around your space to identify ways you can be more competitive. The completed map allows you to zoom in to view a specific competitor and to zoom out to determine ways to increase your competitiveness and create a Go-to-Market strategy².

Crowdsourcing is an innovative marketing strategy aimed at reducing the commercial risk of innovative products by engaging consumers in news creation and testing. Meaning of crowdsourcing(English crowdsourcing, crowd - "public" and sourcing - "use of resources") - solving problems and creating new brands based on the creativity, experience and knowledge of ordinary people.

¹ <https://www.capegazette.com/article/dart-strategies-miss-mark-sussex/197897>

² <https://www.goldbergstrategy.com/blog/tag/Market+Map>

Crowdsourcing is the transfer of certain functions to create consumer values, and then, in connection with this, with other marketing functions to an indefinite number of people from among real and potential consumers on the basis of a public offer (offer) from the manufacturer. At the same time, it is not intended to conclude any formalized labor contract or its unformalized analogues. This latter crowdsourcing differs from the competition for filling a vacant position, during which the applicant must perform certain work in the interests of the potential employer (in some cases, such competitions are a fraudulent form of crowdsourcing). There are exceptions of a different kind: for example, it has become customary for Procter & Gamble to publish problems that they cannot solve themselves on a special site, offering large monetary rewards to more than 160 thousand “solvers”, which make up the park-panel of P&G freelance researchers¹

CONCLUSIONS

With the foregoing, marketing strategies that are now prevailing as a result of market access, such as guerilla marketing, guerilla marketing, macromarketing, megamarketing, green marketing, and internal marketing, are not only achieving global competitiveness. should be considered as an important vector for the development of countries.

REFERENCES

1. The Global Innovation Index 2017. Innovation Feeding the World - <https://www.globalinnovationindex.org/gii-2017-report>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 й., 6-сон, 70-модда.
3. Levitt T. (1960) ‘Growth and profits through planned marketing innovation’, Journal of Marketing, Vol. April, pp. 1-8.
4. Lin C. Y.-Y. and Chen M. Y.-C. (2007) ‘Does innovation lead to performance? An empirical study of SMEs in Taiwan’, Management Research News, Vol.30, No. 2, pp. 115-132.
5. Д. Усмонова. Маркетинг инновацияларини шакллантиришнинг методологик жиҳатлари. // “Бизнес Эксперт”. №10 (130) -2018 йил.<http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/61591--marketing-innovatsiyalarini-shakllantirishning-mtodologik-jihatlar>.
6. Прахалад К., Рамасвами В. Будущее конкуренции. Создание уникальной ценности вместе с потребителем. - М.: Олимп-Бизнес, 2006.

¹ <https://www.marketing.spb.ru/lib-mm/strategy/crowdsourcing.htm>

BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Togayev Salim Sobirovich
"Moliya, soliq va bank ishi"
kafedra dotsenti, PhD

Ruziyev Shaxzod Behzod o‘g‘li
TDIUSF ST-122 guruh talabasi
Email: Shaxzodruziyev87@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola byudjet-soliq siyosatining iqtisodiyotdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada byudjet-soliq siyosatining iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya, ishsizlik va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turli mamlakatlarning byudjet-soliq siyosati tajribalari o‘rganilib, ularning iqtisodiyotdagi natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari byudjet-soliq siyosatini samarali boshqarish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: soliq, byudjet-soliq siyosati, iqtisodiyot, tizim, bozor munosabatlari, daromad, xarajat, defitsit.

Abstract

This article analyzes the importance of budget-tax policy in the economy. The article examines the impact of budget-tax policy on economic growth, inflation, unemployment and other macroeconomic indicators. Also, the experiences of budget and tax policy of different countries are studied and their results in the economy are analyzed. The results of the research include recommendations for the development of the economy through the effective management of the budget and tax policy.

Key words: Tax, budget-tax policy, economy, system, market relations, income, expenditure, deficit.

Abstract

This article analyzes the importance of budget-tax policy in the economy. The article examines the impact of budget-tax policy on economic growth, inflation, unemployment and other macroeconomic indicators. Also, the experiences of budget and tax policy of different countries are studied and their results in the economy are analyzed. The results of the research include recommendations for the development of the economy through the effective management of the budget and tax policy.

Key words: Tax, budget-tax policy, economy, system, market relations, income, expenditure, deficit.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2017-yil 13-dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-son, 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5216-sonli Farmonlarini qabul qilinishi mazkur siyosatning oldiga bir qator qo‘shimcha vazifalar qo‘ymoqda.

Moliyaviy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan byudjet-soliq siyosati har qanday mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. U iqtisodiy o‘rta, inflyatsiya, bandlik va umumiy iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan soliqqa tortish va davlat xarajatlariga oid hukumat qarorlarini o‘z ichiga oladi. Samarali byudjet-soliq siyosati barqaror rivojlanishga yordam beradi, iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytiradi va resurslarning samarali taqsimlanishini ta‘minlaydi. Aksincha, noto‘g‘ri ishlab chiqilgan siyosat iqtisodiy samarasizlikka, davlat qarzining oshishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o‘ringa chiqishiga, avvalambor, davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo‘linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi hamda ularning ma‘lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo‘lgan.

Ingliz iqtisodchisi S. Parkinson so‘zi bilan aytganda: “Soliqlar ko‘hnadir – xuddi dunyodan kelishida qachondir bir mahalliy qo‘mondon o‘z hududida joylashgan daryo yoki tog‘dan savdogar hamda sayohatchi o‘tsa, ulardan haq olishi sabab bo‘lgan”.¹

Soliqlar paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o‘zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar, asosan, pul shaklida undirilayotgan bo‘lsa, ular qadimda bir qancha ko‘rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu bilan birgalikda, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi.

V. Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini 3 bosqichga ajratib ko‘rsatadi.² Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o‘rta asrlar qishloq xo‘jaligi tizimiga xos bo‘lib, tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Xuddi, shu davrda soliq mexanizmi undirilishi joriy etildi. Ilk soliqlar tizimsiz to‘lovlar ko‘rinishida bo‘lib, ular natura shakliga ega bo‘lgan.

Ikkinchi bosqichning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko‘rilgan. Soliq obyektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan. To‘g‘ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o‘rinni aksizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, hamma daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan.

¹ Parkinson S. Zakon i doxodi. — M.: PKK "Interkontakt", 1992. — S.14-15.

² Pushkareva V. Istoriya finansovoy misli i politiki nalgov. Uchebnoe posobie. — M.: Infra-M, 1996. -S.17.

Uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatda moliya ilmining rivojlanishi bilan soliqqa tortish muammolari va uslubiyatlariga bag'ishlangan yangi-yangi ilmiy-nazariy qarashlar vujudga keldi. Ammo hech qanday iqtisodiy maktab soliqlarning fiskal funksiyasidan muhimroq qarashni ilgari sura olmadi.

Zamonaviy soliq falsafasi yoki nazariyasi odatda klassik iqtisodchi olimlar, eng avvalo, Adam Smit tomonidan boshlangan deb hisoblanadi. Lekin zamonaviy siyosiy falsafaning asoschisi Tomas Gobbs (1588-1639), iqtisodchi va faylasuf Uiliam Petti (1623-87) kabi ilg'or olimlarning ham hissasi katta. Gobbs ko'proq iqtisodiy nazariyalari bilan taniqli bo'lsa ham, u bir qancha asarlarida, jumladan, o'zining eng mashhur "Leviathan" asarida soliq'larga katta e'tibor bergan. Uning soliq nazariyasi ma'lum darajada murakkab deb qaraladi va unda soliq kishilarning boyligiga emas, balki uning himoyasi va qonun ustuvorligini saqlab turish, keyingi o'rinda harbiy xizmat uchun davlatga bo'lgan qarzi orqali aniqlanishi kerak deb qaraladi. U, shuningdek, o'z mehnat layoqati bilan yashash uchun yetarli mablag' topa olmaydiganlarga ijtimoiy ta'minot berishni qo'llab quvvatlaydi.¹

METODOLOGIYA

Maqolada taqdim etilgan masalani ko'rib chiqishda asosiy usul bo'lib asosiy baholash, mantiqiy va induktiv ishonch yondashuvi xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir mamlakatda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati va uning yo'nalishlarini, eng avvalo, shu mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda uning qanday modeliga tayanilgani (asoslanganligi) belgilab beradi. Shu ma'noda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosati o'zaro vobastadir. Ularning ikkinchisini (byudjet-soliq siyosati birinchisi) bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellaridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Agar aksincha ish tutilsa, bu bir tomondan mamlakatda sog'lom bozor munosabatlarining rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, uni murakkablashtiradi.

Ikkinchi tomondan esa byudjet-soliq siyosatida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning u yoki bu modelining o'ziga xos xususiyatlari, talablari va prinsiplari inobatga olinmasa, bu bunday siyosatning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga o'ziga xos zamin tayyorlaydi va byudjet-soliq siyosati, albatta, ertami-kechmi baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shuning uchun ham bu yerda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro vobastaligini to'g'ri idrok etish prinsiplar ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan alohida qayd etish lozimki, u yoki bu mamlakatda xo'jalik yuritishning zamonaviy shakli yoki usuli sifatida bozor iqtisodiyotini shakllantirish (tarkib toptirish, vujudga keltirish) to'g'risida gap ketar

¹ Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group. 2017

ekan, avvalo, uning dunyo amaliyotida umume'tirof etilgan quyidagi ikki modeli mavjudligi qayd etiladi:

- 1.Liberal model.
- 2.Sotsial (ijtimoiy) yo'naltirilgan model.



1-rasm. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va byudjet-soliq siyosatiga ta'siri.

Zamonaviy byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, soliqlar, soliq tizimi va byudjet-soliq siyosatiga tegishli bo'lgan amaldagi vaziyatga aniqlik kiritish zarur. Ana shu vaziyat keyingi bir necha o'n yillik davomida O'zbekiston Respublikasining buyuk iqtisodiy eksperimentni o'z boshidan kechirayotganligi, unga ko'ra xalq xo'jaligini rejali usulda boshqarishdan iqtisodiy taraqqiyotning bozor mexanizmlaridan foydalanishga o'tilayotganligi bilan xarakterlanadi. Yangi iqtisodiy instrumentlar avvalgi iqtisodiy tizimning qoldiq elementlari va iqtisodiy munosabatlar subyektlarining ongida mustahkam ildiz otgan an'analar bilan birgalikda yashamoqda. Bu jarayon o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakat bir vaqtning o'zida huquq, siyosat va iqtisodiyot sohalarida tegishli o'zgarishlarni parallel ravishda amalga oshirish zarur bo'lganligi uchun yanada murakkablashmoqda.

Iqtisodiyotni qayta qurish ma'lum darajada ishlab chiqarishning qisqarishiga, inflyatsiyaning o'sishiga, ishsizlikning vujudga kelishiga, davlat sektorining qisqarishiga olib kelmoqda. Bunday salbiy hodisalarga barham berish kerak. Shu munosabat bilan byudjet-soliq siyosati va mamlakatimizdagi soliq organlari tizimining samarali isloh qilinishi iqtisodiyotimizni bozor iziga ko'chirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri ekanligini hozirgi paytda deyarli hamma tan olayпти. Soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo'layotgan, isloh qilish bo'yicha tahlil obyekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlardan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'q. Boshqa bir tomondan esa soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda yaratilgan soliq tizimini keskin (tubdan) qayta o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunday hollarda faqat bir daqiqalik samarani (qaytimni) hisobga olmasdan, balki bu takliflarning mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining barcha tomonlariga qay darajada ta'sir etishi, albatta inobatga olinishi lozim.

Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin.

Soliq tizimi xo'jaliklardagi bozor munosabatlari rivojlanishiga ta'sir qilishi, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berishi va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzining pasayib ketishiga to'sqinlik qilishi kerak.

Ana shunday sharoitda bozor iqtisodiyotida byudjet-soliq tizimini tashkil qilishning asosiy prinsiplari tariqasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlari, ularning mulkiy ahvolini hisobga olish imkonini beruvchi soliq tizimi, ularning turlari, to'g'ri (bevosita) hamda egri (bilvosita) soliqlar nisbatining bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos tarzda rivojlanishi;

- mulkchilik shakliga va uning tashkiliy-huquqiy shakllariga bog'liq bo'lmagan holda xo'jalik yuritishning samaradorligi uchun barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona talablarni o'rnatish maqsadida soliqqa tortish uslublarini universallashtirish;

- daromad olishning manbai, xo'jalik yuritish sohasi va iqtisodiyotning tarmog'iga bog'liq bo'lmagan holda soliq miqdorini hisoblashda bir xil yondashish;

- soliqqa tortishning bir martalik tamoyilini ta'minlash va ikki yoqlama soliqqa tortishga yol qo'ymaslik;

- soliq to'lovchiga korxon va tashkilotning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydigan, ishchi kuchini takror ishlabchiqarish imkonini beruvchi soliqqa tortishning hissasini (qismini) hamda soliq stavkasini belgilashning (o'rnatishning, aniqlashning) ilmiy jihatdan asoslanganligi;

- daromad darajasi yoki mol-mulkning qiymatiga va bir vaqtning o'zida xo'jalik yuritishning bozor asoslarini sog'lom rivojlanishiga sharoit yaratib berishiga qarab soliq stavkalarini tabaqalashtirish (differensiatsiyalashtirish);

- uzoq vaqt davomida soliq stavkalarining barqarorligini, ularni hisoblashning oddiylikini ta'minlash;
- tadbirkorlik faoliyatiga mablag'larni investitsiyalashtirish jarayonini real rag'batlantiradigan va bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolat prinsiplariga javob beradigan, fuqarolarga kun (hayot) kechirish minimumini kafolatlaydigan soliq imtiyozlari tizimini o'rnatish;
- soliq to'lovchilarning barcha toifalariga nisbatan soliq imtiyozlarining yagonaligi;
- kuchli, aniq ishlaydigan, texnik jihatdan yaxshi jihozlangan byudjet-soliq xizmatini yaratish;
- davlat boshqaruv darajasi bo'yicha soliqlarning aniq taqsimlanishi.

Biroq mamlakatimizda amal qilib kelayotgan byudjet-soliq soliq tizimi yuqorida qayd etib o'tilgan prinsiplarning barchasiga ham to'liq javob berayotgani yo'q. Boshqa bir tomondan, amaldagi byudjet-soliq tizimi soliq to'lovchilarning ham (soliq yukining og'irligi, tadbirkorlar huquqini cheklanganligi, qonuniy va me'yoriy hujjatlarni (aktlarni) talqin qilishning murakkabligi, chigalligi, bir xil emasligi, qonunlarga va tegishli me'yoriy hujjatlarga tez-tez o'zgartirishlarning kiritib turilganligi va boshqalar), soliq xizmatining ham soliq to'lashdan qochish imkoniyatlarining ko'pligi, turli xildagi imtiyozlarining mavjudligi soliq to'lovchilar o'rtasida notenglikni vujudga keltirayotganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazayotganligi, iqtisodiyotda qisqa muddatlarda faoliyat ko'rsatayotgan firmalarning mavjudligi, soliq xizmati huquqining cheklanganligi, soliq inspektori ishining xavfliligi, og'irligi, kam maoshligi va boshqalar manfaatlariga to'liq darajada javob bermayapti.

Ishlab chiqilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan byudjet-soliq siyosatining asl mohiyatini soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosisiz to'g'ri idrok etib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan soliqqa tortish nazariyasi tarixida eng dolzarb muammo sifatida quyidagi savolning javobini izlab topish sanaladi: byudjet daromadlarini shakllantirishda sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? Bularning qaysi biri afzal? Qaysi biri maqsadga muvofiq?

Albatta, bizning sharoitimizda hamma ham (hatto shu sohaning mutaxassislari ham) bu savolga qat'iy qilib bir xil tarzda javob bera olmaydi. Lekin sirdan qaralganda bu savolning javobi uncha murakkab ko'rinmaydi. Chunki savolning o'zida uning javobi mavjud. Faqat uning murakkabligi shundaki, savolning ikki xil javobi berilgan. Birinchi javobga ko'ra, byudjet daromadlarini shakllantirishda faqat sof fiskal uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ikkinchi javobga ko'ra esa, byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish afzaldir. Shunday bo'lishiga qaramasdan har ikki javobning qay biri tanlanishidan qat'i nazar undan so'ng «Nima uchun aynan shu variantni tanladingiz?», — degan navbatdagi savolning kun tartibiga qo'yilishi tabiiy. Bu savolga javob berish esa ancha murakkab hisoblanadi.

Quyida keltirilgan fikrlar muammoning asl mohiyatini to'g'ri idrok etishga va to'g'ri javobni tanlashga yordam beradi, deb o'ylayman:

1. Soliq yukini real pasaytirish soliq organining xohish-istagiga emas, balki mustahkam iqtisodiy asosga tayanadi. Aks holda bu narsa butunlay teskari natijalarga olib kelishi mumkin.

2. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniyaning davlat arbobi, professor L. Erxardning fikricha, barcha fuqarolar va xo'jalik yurituvchi toifalarning soliq yukini pasaytirishga yo'naltirilgan istaklarini adolatli deb tan olmoq lozim. Bir vaqtning o'zida u maqsadga erishishning vositalarini ham ko'rsatib beradi: xarajatlarning talab qilingan barqarorligiga va unumdorlikning rivojlanishini belgilangan sur'atlarda amalga oshirilishiga erishilsa, soliqlarni qanday pasaytirish imkoniyatini hisoblab topish va tasavvur qilish mumkin. Faqat shu yo'l bilangina bizning hammamizni ezib kelayotgan soliq muammosini haqqoniy va realistik tarzda yechishga erishishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, L.Erxardning Germaniya xo'jalik vaziri, so'ngra esa kansleri bo'lgan davrlarida uning tashabbusi yordamida qabul qilingan tadbirlar orasida uning soliq siyosati urushdan keyin Germaniya iqtisodiyotini ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

XX asrning 70-80-yillarida G'arb mamlakatlarida Amerika iqtisodchisi A. Leffeming byudjet konsepsiyasi tan olindi. Uning fikricha, soliq tushumlari ikki asosiy omilining mahsulidir:

1. Soliq stavkasi.
2. Soliq bazasi.

Soliq yukining og'irlashuvi (o'sishi) faqat ma'lum bir chegaraga yetgunga qadar davlat daromadlarining ko'payishiga (oshishiga) olib kelishi mumkin. Bu chegara milliy ishlab chiqarish soliqqa tortiladigan qismining qisqarishi bilan boshlanadi. Agar ana shu chegaradan bosib o'tilsa, soliq stavkasining o'sishi byudjet daromadlarining o'sishiga emas balki, aksincha, qisqarishiga olib keladi.

A.Leffer egri chizig'i davlat byudjeti daromadlarining soliq stavkasi darajasiga (o'lchamiga) bog'liqligini ko'rsatadi. Undan soliq stavkalarining o'sishi ma'lum bir kritik (maksimal) nuqtaga yetgunga qadar davlat byudjeti daromadlarining o'sishiga (ortishiga) olib kelishi mumkinligini aniqlash qiyin emas. Ana shu kritik (maksimal) nuqtadan so'ng soliq stavkalarining yana oshirilishi (ko'tarilishi) teskari natijalarga olib keladi: korxonalar olingan foydani qanday qilib bo'lsa ham soliqdan «qochirish», uni yashirib qolish yo'llarini qidira boshlaydilar (afsuski, bu «yo'llar»ni qidirib topadilar ham) va buning natijasida ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmi ham qisqaradi.

A.Leffeming fikricha, soliq stavkalarining maksimal darajasi (kritik nuqtasidagisining) pasaytirilishi (kamaytirilishi) tadbirkorlikning, jumladan, xususiy tadbirkorlikni ham rivojlanishi uchun yaxshi, qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, investitsiyalarning o'sishiga, bandlikka erishishga, daromadlarning ko'payishiga va nihoyat davlat byudjetiga soliq tushumlarining ortishiga olib keladi. Bu pirovardida byudjet defitsitining qisqarishi va inflyatsion jarayonlarning susayishi demakdir.

Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish vazifasini soliq «zulmi»ni yengillatish orqali hal qilish lozim.

Soliqqa tortish stavkasining pasaytirilishi ishlab chiqarishning o‘shishiga va bu, o‘z navbatida, kelajakda soliq tushumlarining vaqtinchalik kamayishini kompensatsiya qilinishiga olib keladi. Inflyatsiyasiz ishlab chiqarishning o‘shishiga eng avvalo, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari va soliqqa tortishning progressivligini oqilona manipulyatsiya qilish hisobiga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Byudjet-soliq siyosati iqtisodiyotning muhim boshqaruv mexanizmlaridan biri bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu siyosat davlat daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini boshqarish orqali iqtisodiy faollikni tartibga soladi. Maqolada samarali soliq siyosati iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi, investitsiyalarni jalb qiladi hamda ijtimoiy adolatni ta’minlanishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, soliqlar va davlat xarajatlari o‘rtasidagi muvozanat makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi. Maqola, shuningdek, soliq siyosatining turli model va strategiyalari, ularning iqtisodiy ta’siri hamda optimal soliq yukini belgilash masalalarini ko‘rib chiqadi. Xulosa qilib aytganda, ma’qullangan va adolatli byudjet-soliq siyosati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi va bu orqali jamiyatning farovonligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

2. T.S.Malikov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: “IqtisodMoliya”, 2019. — 376 b.

3. Худойқулов С.К., Абдурасулов А.А., Хонтўраев Б.А. “Солиқ назарияси”. Дарслик –Т.: “IQTISODIYOT”, 2020. — 3076

4. I.M.Niyazmetov; "Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot". Monografiya. -Toshkent: "Moliya", 2016.-192b.

5. <https://lex.uz/uz/>

6. Yuldashev Z.Yu., Malikov T.S. Moliya: uy xo‘jaliklari moliyasi: O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 112 b.

7. Xusainov R.R. Moliya va soliqlar. II qism (Soliqlar): o‘quv qo‘llanma. T.: "Voriz nashriyot", 2014. — 336 b.

8. Jo‘rayev A.S., Artikov N.A. Soliq huquqi asoslari.-T. “Ilm-ziyo”.2012y.

9. www.soliq.uz .

10. Anufrieva L.P. Mejdunarodnoe chastnoe pravo. V trex tomax. T.2. Osobennaya chast. M. 2010. — 656 s.

11. Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. AQSH. Massachusetts universiteti ilmiy nashri.



2024-yil, iyul. №5-son

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Salixova Nodira Maksudovna

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Karimova Shirin Zoxid qizi

2024-yil, iyul, 5-soni

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

tdiu.marketing@mail.ru

Bot:

[@marketinjournaltbot](https://t.me/marketinjournaltbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>



“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669517 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №240874



“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710
ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari.
Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621